

**T. A. HIDOYATOV, S. A. KADIROVA,
Y. I. ABDURAHMONOV**

ZAMONAVIY JIHOZLASH VA INTERYER



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**T. A. HIDOYATOV, S. A. KADIROVA,
Y. I. ABDURAHMONOV**

ZAMONAVIY JIHOZLASH VA INTERYER

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5580100 — Arxitektura yo'nalishi talabalari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI
MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI
TOSHKENT — 2012**

UDK 72.02(075)
ББК 85.128
X 47

Hidoyatov T. A.

Zamonaviy jihozlash va interyer/ Hidoyatov T. A., Kadirova S. A., Abdurahmonov Y. I.; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent Arxitektura va qurilish instituti. — T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2012. — 168 b.

I. Kadirova S. A.
II. Abdurahmonov Y. I.

UDK 72.02(075)
ББК 85.128
X 47

***O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arxitektor,
Arxitektura fanlari doktori, professor
T. A. Hidoyatov tahriri ostida***

Darslikdagi bayon etilayotgan material kerakli ma'lumotlar bilan to'ldirilib, talabalar bilimini boyitish, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, osonlashtirishga yo'naltirilgan va malakaviy intuitsiya, binolar, inshootlar interyerlarini bezatishda paydo bo'ladigan estetik topshiriqlarni yechishlarida yordam beradi.

Darslikning mazmuni talabalar oldidagi funksional tashkil etish qonuniyatlarini va ichki fazoviylikning maqsadli rangda bezatilishini hamda zamonaviy estetik nuqtayi nazardan ochishni tushuntirib beradi.

Darslikda ilk bor binolar interyerining O'zbekiston milliy me'morchiligi mohiyatiga tegishli bo'lgan ko'p asrlik tajribasidan foydalanilganligi e'tiborga sazovor.


Darslikning 5- va 6-bo'limlari «Arxitekturaviy loyihalash» kafedrasida katta o'qituvchilari F. X. Magamedova, N. A. Zokirovalar tomonidan yozilgan.

Taqrizchilar:

V. M. Mahmudov — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arxitektor,
Arxitektura fanlari doktori, TAQI professori;

M. Q. Ahmedov — O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan arxitektor,
Arxitektura fanlari doktori, TAQI professori.

ISBN 978-9943-391-45-1



© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2012.

KIRISH

Interyer — tashkil etilgan fazoviy kenglik sifatida faqat arxitekturaning ajralmas qismi bo'libgina qolmasdan, balki uni arxitekturaning boshlang'ich asosi deb ham atashadi. Tarixiy tarzda to'plangan tajriba va hozirgi vaqtdagi voqelikning guvohlik berishiga ko'ra interyerning yechimi avval ham, bundan keyin ham arxitekturaviy faoliyatning ajralmas qismi bo'lib qolaveradi. O'ziga xos ichki muhitni yaratishda turli profilda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar — texnologdan boshlab rassom va dizaynerni o'z tarkibiga birlashtirishdek vazifani bajarishda yetakchilik qilish roli interyerga tegishlidir. Interyer muhit sifatida ichkaridan qabul qilinadigan arxitekturaviy shaklning estetik qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etiladi. Interyerning arxitekturaviy obyekt turiga (xona, bino va h.k.) bog'liq bo'lgan differensiallashgan tushunchasi muhitning ma'lum bir turi ko'rinishini joylashtirishning aniq usulini belgilashdan iboratdir.

Interyer estetik shakllanishining jihatlarini anglash uchun ichki muhit tashkil etilishining spetsifikasini chuqur o'rganish talab etiladi. Zamonaviy qurilish sifatini oshirish sharoitlarida sun'iy muhitning nafaqat funksional, balki estetik tomonlari ham alohida katta ahamiyat kasb etadi. Odamlar vaqtining aksariyat qismi o'tadigan interyerning yechimiga arxitekturaning sifati, spetsifik mazmunining qabul qilinishi va san'at sifatida baholanishi ham bog'liq bo'ladi.

Ichki fazoviy kenglikni, aniqrog'i, interyerni loyihalash zaruriy maxsus tayyorgarlikni talab etadi. «Interyer bo'yicha ixtisoslashtirish» deganda loyihalash jarayonini tashkil etishning zamonaviy jamoa formasidan bevosita amaliy foydalanishga ega bo'lgan arxitektor faoliyatining zarur sohalaridan birini chuqur o'rganish nazarda tutiladi.

Interyer bo'yicha bajariladigan ijodiy ishning xarakteri shakl, plastika, yorug'lik, rang, tekstura va faktura, materialning rolini chuqur tushuntirib bera oladigan spetsifik bilimlarni talab etadi. Konkret xona va ular sistemasida hayotiy muhitni tashkil etish imkoniyati haqida, har xil tipdagi ichki fazoviy kengliklarni qabul qilishning jihatlarini, ularning o'lchamlari va shakli haqida, to'suvchi yuzalarning arxitekturaviy kompozitsiyasining spetsifik vositalari va usullari haqida real tasavvurlarga ega bo'lish bo'lajak arxitektorlar uchun juda zarurdir. Tasviriy san'at bilan birgalikda sintezdan foydalanish deganda nafaqat ularning turlarini va bajarish usullarini bilish, shuningdek, interyerning obrazli yechimiga organik tarzda kiritiladigan murakkab bo'lmagan kompozitsiyalarni

mustaqil ravishda eskizlashtira olish bo'yicha egallanadigan saviyalar ham tushuniladi. Muhitda jihozlarning roli alohida ahamiyat kasb etib, ular interyerning boshqa elementlari bilan birgalikda kompozitsiyaga kirib boradi. Bu spetsifik arxitekturaviy — dizaynerli loyihalashda namoyon bo'lib, bunda o'zining xususiy funksional o'lchovlariga ega bo'lgan jihozlash predmetlari «inson — predmet» bog'liqligiga javob bergan holda «predmet — muhit» deb ataluvchi badiiy talablarga muvofiq keluvchi estetik sifatlarni yuzaga chiqarmog'i lozim bo'ladi. Arxitektor yorug'lik va alohida yoritish vositalari (alohida chiroqlar) sistemasi, mebellar va mebellarning alohida tiplari sistemasi, ko'rish orqali qabul qilinadigan informatsiya (axborot)lar va ularning elementlari tizimlarini hisobga olgan holda loyihalashni uddalay olmog'i lozim.

«Zamonaviy jihozlar va interyer» predmeti inson va jamoa faoliyati o'tadigan binoning ichki kengligini estetik tashkil etishning qonuniyatlarini ochib beradigan asosiy savollar majmuyini o'z ichiga oladi. Bunda shuni alohida ta'kidlash muhimki, agar turar-joy, jamoat va sanoat binolari tipologik xarakteristikalarining chegaraviy holatlariga ega bo'lsa, u holda xonalarning funksional jihatlar, tabiiy-iqlimiy sharoitlar, aholi turli etnik guruhlarining har xil urf-odatlar, milliy va mahalliy an'analari, ijrochilar va buyurtmachilarning didlari hamda ko'plab boshqa faktorlar bilan belgilanadigan jihozlar tizimi, stilli yo'naltirilganlik, badiiy bezaklar bilan pardoqlashning o'zaro ta'sirlashuvi orqali yechiladigan ichki fazoviy kenglikni tashkil etishning kompozitsion variantlari amaliy jihatdan juda xilma-xil va juda ko'p bo'lishi mumkin. Bunday variantlarning ichida interyerning muvaffaqiyatli variantlari bilan bir qatorda kamroq muvaffaqiyatga ega bo'lgan variantlarini ham topish mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, interyer tashkil etilishining yuqori sifatiga erishish asosida ularni qurish qonuniyatlari va uslublarining prinsipial asoslarini chuqur bilishga asoslangan oqilona yondashuvi yotadi. «Zamonaviy jihozlar va interyer» predmeti shunday bosh nazariy baza deb ham hisoblanadiki, uning asosida bo'lajak arxitektorlarda ular egallashi zarur bo'lgan bilimlar majmuasi, saviyalar va professional intuitsiya shakllanadi. Bu bilimlar arxitektorlarga binolar interyerini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan murakkab ijodiy masalalarni yuqori sifatda yechish imkonini beradi. Unda ketma-ket tarzda interyerning o'ziga xos tasniflari, turli funksional vazifalar bajariladigan xonalarda interyerni shakllantirishning o'ziga xos jihatlar va uni loyihalashning uslubiy asoslari ochilib boriladi. Interyer

badiiy individualligining diapozoni juda keng va u quriladigan obyektning qurilish joyi va vaqti bilan belgilanadigan konkret sharoitlarga bog'liqdir. Binoning interyeri arxitekturaviy muhit turlaridan biri sifatida tashqi shaklga yondashishda birmuncha mustaqillikka ega. Muhit tushunchasi asosida yotadigan fazoviylik mohiyati «interyer» tushunchasiga, ya'ni inson faoliyatining ma'lum bir turi uchun mo'ljallangan chegaraviy kenglikka bevosita aloqadordir. Amalga oshiriladigan faoliyatning xarakteri va faoliyat jarayonida muhitning estetik nuqtayi nazardan muvofiq tarzda qabul qilinishi interyerining badiiy mazmuni va kompozitsion tashkil etilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu yerda turar-joy, jamoat va sanoat binolari arxitekturasida haqida obrazli tasavvurlarning haqiqiy adekvatligi tug'iladi. Interyerining inson ruhiy holatiga faol ta'sir ko'rsatishi uning eng muhim xossalardan biri hisoblanadi. Muvofiq keluvchi holatning yoki rangli gammaning tanlanishi inson ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hayotiy-faoliyat jarayonini tezlashtirishi, inson kayfiyatini yaxshilashi, uyg'otuvchan ta'sir ko'rsatishi va aksincha, yuqoridagilarga qarama-qarshi bo'lgan holatlarni yuzaga keltirishi ham mumkin. Tashkil etilgan ochiq kengliklar (hovli, maydon)ga erkin holatdagi tabiat peyzajlarini faol kiritish yo'lidan tashqari maxsus rejaviy usullarni qo'llash orqali ham ichki kenglikni organik tarzda davom ettirish (kengaytirish) mumkin. Arxitektorning ijodiy anglashi orqali tug'iladigan har qanday g'oya qat'iy ravishda uning tomonidan ishlab chiqilgan loyihada aks ettirilmog'i lozim. Bu avvalombor, grafik tasvirlashga va g'oya muallifining fikrlarini aniq aks ettirish imkonini beradigan kompozitsion uslublarga tegishlidir. Loyiha tarkibiga va loyiha materialiga umumiy tarzda kiritiladigan ko'rsatmalar, talablar va tavsiyalardan doimo foydalaniladi. Biroq, har bir konkret holda interyerlarni loyihaviy ishlab chiqishning metodikasi o'ziga xos spetsifik jihatlariga egadir. Ushbu predmetning maxsus bo'limida bino va inshootlar interyerlarini loyihalashning hamma jihatlarini batafsil ko'rib chiqiladi, ularning mukammal o'zlashtirilishi bo'lajak arxitektorlarni zaruriy bilim va saviyalar hamda kasbiy intuitsiya bilan qurollantiradi, egallangan bu bilimlar ularga o'zlarining ijodiy faoliyatida uchraydigan masalalarni yechishda yordam beradi.

1-§. Qisqacha tarixiy ma'lumotlar

Xonalarning interyerini o'rganishda inson hayoti va faoliyati o'tadigan muhitning estetik tashkil etilishi va rivojlanishining xarakterli jihatlarini tushunib olish arxitektorlarning kasbiy faoliyati uchun juda foydalidir. Ilk, ya'ni dastlabki davrlardagi insonlar o'z hayotini tabiiy kenglikda kechira boshlaganlar. Kuzatishlar orqali bu kenglikning fizik xossalari va hissiy ta'sirini sezganlar. Inson jamiyati vujudga kela boshlagan davrlardayoq uning bosh vazifasi yovvoyi yirtqich hayvonlardan va tabiiy iqlim sharoitlarining noxush ta'sirlaridan himoyalaniş maqsadida o'zi uchun tashqi muhitdan muhofazalangan kenglikni yaratishdan iborat bo'lgan.

Inson jamiyatining boshlang'ich davrlarda, asosan, tabiiy tepaliklar va tog' cho'qqilaridagi g'orlardan boshpana sifatida foydalangan, chunki ularga ko'proq sondagi odamlardan tashkil topgan jamoa joylashishi mumkin bo'lgan. Bunday joylar ma'lum bir darajada qulay va xavfsiz bo'lgan. Keyinchalik tajriba to'planishi va oilaviy struktura shakllanishining boshlanishi bilan o'ta oddiy yashash yacheykalari paydo bo'la boshladi. Inson bu bilan ma'lum



1-rasm. G'orning ichki ko'rinishi. Rasmlar tushirilgan devor tekisligi orqa planda tasvirlangan.

darajadagi shinamlik va qulayliklarga ega bo'lgan madaniy muhit yarata boshladi. Eng muhimi, bu muhitning ichki fazoviy kengligidagi devorlar tekisligini yirtqich hayvonlar va ov jarayonini aks ettiruvchi rasmlar bilan boyitish orqali estetik zavq berishga intilishdi. Bir so'z bilan aytganda, estetik sifatlarga ega bo'lgan sun'iy moddiy shakl yaratishga birinchi qadam tashlandi. Inson hayoti kechadigan muhit rivojlanishning keyingi bosqichlari har xil ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadagi regionlar rivojlanishining umumiy fonida turli davrlarda barpo etilgan. Binolar interyerlarining tashkil etilish va estetik shakllanish prinsiplari evolyutsiyasini kuzatish imkonini beradi.


Dastlab insonlar turar-joylaridagi tasvirlarda hayvonlarning va ov jarayonining real shakli chizilgan bo'lsa, amaliy ijoddagi rivojlanishning keyingi aks ettirilgan bosqichlarida esa estetik nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda sun'iy shakllar yaratila boshlandi. Ko'p tarmoqli obyektlarning paydo bo'lishi va xonalar tarkibining kengayishi bilan binolar interyerlarini tashkil etish tushunchasi ichki sirt yuzalarining devoriy tasvirlar va bezaklar bilan oddiy pardoqlash chegaralaridan tashqariga chiqa boshladi va endi ularning rejaviy hamda hajmiy-fazoviy strukturasi yaratila boshlandi.

Misr arxitekturasi rivojlanishining dastlabki davrlarida ichki va tashqi kenglikning differensiallashuvini va ular orasida badiiy-mantiqiy bog'lanishlarni o'rnatish orqali arxitekturaviy muhitni o'zlashtirishda birinchi qadam tashlandi.

Xonalarining alohida kengligidan boshlab ularning yagona funksional — badiiy tizimga birlashishini o'z ichiga olgan rivojlanish yo'li o'qli chiziqli rivojlanishning qonuniyati bo'yicha ketma-ket ravishda bosib o'tildi. Yorug'lik va rangning shakllar (formalar)ning xossalarini aniqlashda muhim rolga ega ekanligiga ishonch hosil qilindi. Misr me'morchiligining interyerida fazoviy munosabatlarning aniqlanishi to'suvchi konstruksiyalar va ulardagi elementlar arxitekturaning obrazli namoyon qilinishida muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatib berdi. Bunga yuzalar plastik yechimi usullari, tayanchlar, haykaltaroshlik va boshqa unsurlar metrlik qatorlar asosida joylashishining aniq ritmik tarzda bajarilishi, devorlar tekisliklarining va hajmiy elementlarning o'zaro ta'sirlashuvi tegishlidir. Ochiq kenglikda turadigan ustunlar go'zallikning o'ziga xos arxitekturaviy vositasi sifatida konstruksiyaning tektonik va badiiy jihatdan o'zlashtirilishi haqidagi tasavvurlarning uslubi sifatidagi orderdir. Tasviriy san'at, haykaltaroshlik va rangtavsvirni arxitektura bilan organik birlashtirishning shakli aniqlandi. Qadimgi Misr me'morchiligida ichki kengliklar estetik tashkil etilishining o'ziga xos xususiyatlarini xarakterlaydigan inshootlarga Xefron saroyi, Luksordagi Amon saroyi, Deyl-el-Baxri saroyi hamda to'suvchi konstruksiyalar va ulardagi bezaklarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Xefrona ibodatxonasi (2-rasm). Bu ibodatxonada o'zining shakli bilan yo'naltirilgan harakatni ifodalaydigan fazoviy kenglik tizimining badiiy jihatdan qurila boshlanganligini kuzatish mumkin. Bunda birinchi zalning keng ko'ndalang fronti pog'onali ravishda so'nib borish orqali uzun zalli o'tish joyiga olib boradi. Bu o'tish zalidan harakatlanish o'qiga

ko'ndalang joylashgan katta hovliga kiriladi. Bu kompozitsiyada har bir xona kengligi shaklidan, ularning turli plastik ifodalanish jihatlaridan, yo'naltirilganlikning dinamikasi va ochilish darajasidan foydalanilgan. Ayniqsa, zalning yopiq kengligidan kontrastli ravishda yorqin yoritilgan ichki hovliga chiqish ancha samaralidir. Bu inshootning xonalarida alohida turadigan ustunli tayanchlar ham uchraydi. Ularning qo'llanilishi ichki kenglikni fazoviy kengaytirishga va mayda xonalarning torligidan yoki ularning uzun yo'lakli davomiyligidan chekinishga shart-sharoit hozirlaydi. Ustunlarning kiritilishi bilan fazoviy kenliklarni hamda ularning plastikligini yaratishda, ritmik yo'nalishda masshtabli qismlarni shakllantirish usullarining kompozitsion imkoniyatlari boyitiladi. Shakliga ko'ra elementar bo'lgan kengliklardan tashkil topgan bir xilli tarkibi




2-rasm. Xefrona
ibodatxonasi.

ancha ko'rkam bo'lganlari bilan almashina boshladi. «Pog'onali» zalning ustunlari son bo'yicha o'sib borib, xonaning markaziy o'qi bo'yicha joylashadi. «Bo'ylama» zalda tayanchlarning metrik ritmi tashrif buyuruvchilarning harakatini o'q bo'ylab yo'naltiradi, taqab qurilgan hovli galereyasida yopiq va ochiq kengliklar ancha yengil birlashtirilgan. Xuddi shu yerdan bo'lg'usi portik ochiq kenglik va interyer o'rtasidagi oraliq bo'lim sifatida o'zining boshlanishini oladi.

Luksordagi Amon ibodatxonasi (3-rasm).

Keyingi bosqich ochiq kengliklar va hajmlar massasining differensiallashuvdagi ancha murakkab bo'lgan munosabatlarning yechimlarini belgilab berdi. Yangi podsholik davri ichki kengliklarning arxitekturaga to'liq o'tishi bilan xarakterlanadi. Ibodatxona binosi o'zining


funksiyasi va shakliga ko'ra aniqlangan kengliklar qatorining ketma-ket uyg'unlashuvini namoyon etadi. Ichki kenglikning arxitekturasi oddiy devor orqali namoyon bo'ladigan binoning tashqi ko'rinishiga qaraganda beqiyos darajada muhim bo'lgan. Bundan faqat kirish tomon — pilon mustasno bo'lgan. Birinchi bo'lib bunday puxta kompozitsion qurilishda tashkil etilgan ibodatxona fazoviy tarkibi ko'p asrlar davomida tashkillashtirildi. Luksordagi Amon ibodatxonaning tashqi va ichki arxitekturaviy kengliklari yagona kompozitsion o'qqa ega bo'lgan.



3-rasm. Luksordagi Amon ibodatxonasi.


Kompozitsiyaning boshlanishi kirish joyiga olib boruvchi o'ziga xos alleyaning ikki tomoniga sfinksar yoki qo'chqorlarning haykaltaroshlik tasvirlari metrik ritmining qismi orqali belgilangan. Pilonning yetarli darajada uzun va ensiz bo'lgan oralig'i galereyalik bo'lgan katta hovliga o'tish joyining fazoviy kenglik sifatidagi kontrastlik ifodasidir.

Hovlidan ochiq va yorug' osmon ko'rinib turadigan kenglik bir-biriga yaqin turuvchi yo'g'on kolonnalar bilan ko'p sonli mayda kengliklarga ajratilgan gipostilli katta zalning yopiq kengligi bilan almashadi. Birmuncha kengaygan shakldagi o'rta o'tish joyi kompozitsion o'qni undan keyin joylashgan devorlar bilan tashqi muhitdan muhofaza qilingan muqaddas joyga yo'naltiradi. Ibadatxona interyeri plastik kompozitsiyasining rivojlanishi undagi muqaddas joyning mazmunini ifodalovchi yorug'lik nurlarining sirli ravishda hosil bo'lish joyi bo'lgan yadroga to'planib birikishida kenglik «siqilishining» ma'lum bir g'oyasini ifodalaydi. Misr arxitekturasidagi xonalar fazoviy shakllarining plastikligi uning rejaviy chegarasida, ya'ni devorlar orqali o'zlashtirilgan; xonalarning shiplari doimo tekis va yassi bo'lgan.



4-rasm. Deyl-el-Bahridagi ibodatxonalar.

Deyr-el-Bahridagi mozarli ibodatxonalar (4-rasm). Qadimgi podsholikda interyerli kenglik (ibodatxonalari) tashqi muhitdan muhofazalangan holatda rivojlangan. Arxitekturadagi navbatdagi qadam ularni birlashtirishga qaratilgan bo'lib, tomoshabinga ta'sir ko'rsatish diapozonini kengaytirish yo'li orqali boyitishga yo'naltirilgan Deyr-el-Bahridagi mozarli ibodatxonalar firavn qudrati g'oyasining arxitekturaviy vositalar orqali ifodalanadigan ancha




5-rasm. Toshli devordagi relyef.

ingichga bo'lgan talqini haqida guvohlik beradi. Piramidalar massasining oddiyligi va ahamiyatligi o'z o'rnini asta-sekin ularning har xil uyg'unlikda boyitilgan shakllariga bo'shatib bera boshladi. Bunda inshootdagi badiiy tasvir uning ichki kengligiga, ya'ni interyerga o'tkazila boshlandi. Bu esa inshoot tashqi hajmining keskin kamayishiga olib keldi, uni yaqindan qabul qilish muhitining roli o'sdi. Ochiq

arxitekturaviy kengliklar o'tish joylarining ichki kengliklariga aylandi, ular tomoshabin e'tiborini bosh inshootga qaratishga xizmat qildi. Chegaralangan kengliklar o'zaro munosabatlarining tartibini aniqlaydigan yagona fazoviy o'q vujudga keldi. O'q yo'nalishining bir tomonlamaligi va arxitekturaviy kengliklar birlashtirilishining to'g'ri chiziqliligi, ehtimol, kosmologik g'oyalar ta'sirining natijasidir.

Xonalar go'yoki tabiatni qamrab olgandek, koinot bilan ko'rinmas o'q orqali to'g'ridan to'g'ri bog'langandek edi va shu bilan o'zining yerdagi holatini tasdiqlayotgandek tuyulardi. Kosmik mo'ljal yoki koinot mo'ljali sifatida, asosan, quyosh botishining



6-rasm. Monumental haykaltaroshlik.




7-rasm. Gi postil kolonna zali (qayta tiklangan).

kun va tun tenglashadigan qishki, yozgi vaqtni tanlagan. Baʼzida oy yoki eng yorqin yulduz holatidan ham moʻljall sifatida foydalanishgan. Ochiq kenglikka ega boʻlgan katta hovli interyer va tabiat oʻrtasidagi oraliq sifatida bino oldiga joylashtirilgan. Bosh fasad va kirish joyiga orientirlangan uzun alleya bog lanish elementi sifatida xizmat qiladi.

Asosiy oʻq hovli terassalariga eltuvchi haykallar va panduslarning joylashtirilishi bilan yoʻnaltirilgan. Ehtimol, Misr meʼmorchiligi interyerida fazoviy bogʻlanishlarning rivojlanishi arxitekturaning obrazli qiyofasi uchun toʻsuvchi konstruksiyalar elementlarining muhim jihatlari yuzaga chiqargandir (5, 6, 7-rasmlar). Bunga yuzalarning plastik yechimlari, tayanchlar, haykallar va boshqa elementlarning metrik qatorlar asosida aniq ritmik joylashuvi, devorlar tekisligi va hajmli elementlarning oʻzaro taʼsirlashuvi tegishlidir. Ochiq holatda turgan kolonna koʻrkamlilikning spetsifik arxitekturaviy vositasi va konstruksiyaning tektonik hamda badiiy oʻzlashtirilishi haqidagi obrazli tasavvurning uslubi sifatidagi orderdir.



Tasviriy sanʼat, haykaltaroshlik va rang-tasvirning arxitektura bilan organik birikish shakli topilgan. Maʼlum badiiy obrazni yaratishda ijodiy uslub sifatida assotsiativ fikr-mulohaza yuritishning toʻlaqonli roli ochib berildi.

Antik arxitekturada interyerining roli pastroq eʼtibor qaratilgan badiiy-estetik sifatlarda namoyon boʻladi. Ijtimoiy ehtiyojlarga javob berish evaziga madaniy va jamoat binolarining erkin ichki kengligi oʻlchamlari sezilarli ravishda kengaydi (8-rasm). Antik arxitekturaning obrazlilik gumanistik ideologiya prinsiplari asosida qurildi. Bunda olam bir butun garmonik



8-rasm. Basraxdagi Apollon ibodatxonasi. A — qirgim, B — reja. Fazoviy tarkibiy kompozitsion yechimi oʻzining funksional va badiiy xususiyatlari masalasiga asoslangan.



sistema degan oqilona tushunchaga tayanildi. Ijoddagi goʻzallik obyektning bir butunligi, qismlar nisbiyligining oddiyligi, mantiqiyiligi hamda uning fragmenti va alohida elementidagi aniqlik doirasidan tashqarida yaratilmadi. Moddiy konstruksiya va pardoynning realistik asosida bajarilgan abstrak geometrik formalar goʻzalligi tabiat



9-rasm. Panteon binosi.
A — ichki fazoviy kenglik; B — reja. Ichki kenglikni svodsimon yopilmalar bilan kengaytirish an'anasining misoli.

obrazini, inson tanasining kuchi va go'zalligini aks ettirdi. Shuning uchun san'at va ayniqsa, arxitektra asarlari ma'lum matematik nisbatlar va proporsiyalarda shakllana borib, obrazning shoirona ko'tarinkiligini ta'minladi.

Arxitekturaviy obrazning talqini ellin yoki rimlikning namoyon etilishi bilan idealning, haqiqatning, insonning qudratini ifodalaydi. Antik arxitekturada fazoviy shakl va pardoiz bilan ishlashda professional usullar arsenalida kengayish yuz berdi. Ko'p burchakli, doira, silindr, yarim sfera kabi figuralar asosida yaratilgan shakllar va ularning plastik xarakteristikalari turli-tumanligi oshib bordi (9-rasm). Keyinchalik shaharlar, forumlar,




10-rasm. Antik Rimda interyerdagi go'zallikni ko'rsatishga asosiy ahamiyat berilishiga interyerdagi barcha to'siq yuzalariga faol ravishda dekorativ bezaklarni qo'llash yo'li orqali o'tilganligiga misollar. A — antik uylardagi devoriy naqshlar; B — karakall termasining zali.

muqaddas ansambllar, jamoat va turar-joy binolarining tashqi hamda ichki kengliklarini tashkil etishning chiziqli-o'qli usuli keng tarqaldi va rivojlandi. Gumbazli yopilmalarda birinchi bo'lib markaziy-o'qli uslubni tashkil etish o'zlashtirildi. Yagona ichki kenglikning qabariqsimon murakkab tarkibli usuli ishlab chiqildi. Bu struktura o'zaro perpendikulyar o'qlar asosida bir-biriga bog'liq bo'lgan garmonik elementlardan tashkil topadi. Bu bilan «oqib o'tuvchi» kengliklar prinsipiga asos solindi. O'zaro kesishadigan chiziqli o'qlar ikki o'qli asosdagi tizimga birlashtiriladigan xonalar qatoridan tashkil topgan binoning murakkab tarkibi yuzaga keldi.

Bu yerda badiiy ko'rkamlikka turli fazoviy shakllar yuqori qismlarining garmonik uyg'unlashuvi effekti bilan erishiladi. To'suvchi konstruksiyalar yuzasini qayta ishlashda klassik orderli tizim yaratildi. Bu tizimda massalar va kengliklarning nisbatlari odam tanasi qismlarining masshtabiga asoslangan holda olinadi. Orderdan konstruksiyaning tektonik obrazi sifatida foydalaniladi. Interyer bezaklarida tekislikni boyitish an'analari ko'zga tashlanadi (10-rasm). Rimliklar davrida barcha to'siqlar bo'laklari kompozitsiyaviy jihatdan qayta ishlov berilib, turlik plastik va rangli uslubda hamohang ko'rsatilar edi.

Interyer san'ati rivojlanishining navbatdagi bosqichi o'rta asrlar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda rus va G'arbiy Yevropa arxitekturasida faol rivojlandi. Ushbu davr binolarining interyerlari arxitektorlarning



11-rasm. Rossiyadagi o'rta asr ibodatxona tarkibi. A — Smolenskdagi XX asrda qurilgan. Arxangel Mixail ibodatxonasi (reja, qirqim); B — Kolomenskdagi XVI asrda qurilgan Vozneseniye ibodatxonasi (reja, qirqim).


madaniy binolar obrazlarining yorqin individualligini aniqlashda olib borilgan izlanishlarining umumiyy ta'siri ostida shakllandi.

Cherkov bosh jamoat binosi sifatida shakllandi, u faqatgina vazifasining ahamiyatiga ko'ra birinchida turgan xudoga sig'inish joyi bo'libgina qolmay, balki davlat va jamiyat hayotining boshqa muhim harakatlari: ibodat qilish, ziyorat qilish, dafn etish marosimi, tantanali yig'inlar, nikoh va ko'plab diniy hamda tantanali ijtimoiy marosimlarni o'tkazish joyiga aylandi. Bularning hammasi interyerning obrazli qurilishini tashkil etishda e'tiborga olina boshlandi.


XI — XII asrlarda Rus davlatida cherkov binolarini tiklashda uch apsidli bo'lgan uchnefli (*11-rasm*) bino tipidan ko'proq foydalanildi. Markaziy nef yon tomonlardagiga qaraganda kengroq qilindi, bunday yondashuv hajmi katta bo'lmagan oltita, aksariyat hollarda to'rtta ustunga ega bo'lgan cherkovlar uchun juda muhim edi. Cherkov binolaridagi rangli gumbazlarning ustki markaziga xoch belgisi tushirilgan o'rnatmalar qo'yildi. Gumbazlar tagidagi kenglikka (bo'shliqqa) arkali to'rtta ustun bilan qamrab olingan amvon va faxriy o'rin-joylar joylashtirildi, bu kenglikning rejadagi eni 9—5 metrni, ustunlarning gumbaz ostigacha bo'lgan balandligi 21—11 metrni tashkil etadi. Interyer kengligi xonalar parametrlarining markazga tomon o'sishida vertikal yo'nalishda gorizontaldagiga qaraganda ustunroq rivojlantirildi.

XVI asrda yorqin arxitekturaviy obrazlar yaratish bo'yicha olib borilgan ijodiy izlanishlar memorial monument sifatidagi qator ibodatxonalar binolarining yaratilishiga sabab bo'ldi. Pravoslav ibodatxonasidagi to'siq konstruksiyalar yuzasi kompozitsion usullarida o'rta xoch va gumbaz aksentiga yo'naltirilgan Vizantiya an'analari kuzatiladi (*12-rasm*). Bu joyda ham detaljarning plastik qayta ishlanishi, shakllarning guruhlanishi, rangli tasvirlarning faolligi o'sdi.

Ibodatxona ichidagi devorlar cherkovli toj bo'yicha diniy mazmunni



12-rasm. Kiyevdagi Sofiya sobori cherkovi zalining O'rta xochi. XII asr (gumbazning ichki ko'rinishi).



13-rasm. Vasily Blajenn ibodatxonasi galereyasining dekorativ plastikasi va rangli tasviri. XVI asr (konturli chiziqlar shaklning ritmi va masshtabini bajaruvchi qo'shimcha qismlarga ajratish rolini bajaradi).

ifodalaydigan syujetli tasvirlar bilan bezatildi. Toshidan ishlangan to'suvchi konstruksiyaning massivligi va tayanchlar, umuman olganda, interyerga og'ir vaznlik taassurotini beradi, ayniqsa, fazoviy kenglikning kichik o'lchamlarida bu juda tez seziladi. Shuning uchun deraza oraliqlarining ravoqli proporsiyalarida, tasvirlar kompozitsiyasida vertikal yo'nalishlar ustunlikka ega bo'la boshladi. Cherkov zalining chegaralangan yorug'lik sharoitlarida plastik shakllarning konturlarini va to'suvchi konstruksiyalarning detallari — arkalar, ustunlarning qirralari, arxivoltlar va shunga o'xshashlarni yuzaga chiqarish usulidan foydalanildi (13-rasm). Shuningdek, konturli yo'lkalar

shakllarning ritmliligini va masshtabini yuzaga chiqaruvchi, qo'shimcha qismlarga ajratish rolini ham bajaradi. Rasmi va rangi bo'yicha shartli bo'lgan rangli tasvirlarning xarakteri tekislikda konstruksiyalarning tektonikasini buzmaydi, balki uning geometrik shakllari ichiga chizildi. Figuralarning tasvirlanishi ularning yirikligi bo'yicha kenglikning kompozitsion markazigacha o'sib bordi. Bunday tasvirlar vizantiyacha an'analarda kuzatiladi. Ular oltin rangli fon bilan mozaikada ishlangan.


Interyerning chizilishini amalga oshirish qiyin bo'lgan, aytarli darajada katta bo'lmagan Pskov ibodatxonalarda va yog'ochdan ishlangan cherkovlarda ikonalaridan foydalana boshlashgan, uncha baland bo'lmagan altarli to'siqlarga ularni biriktirib guruhlaganlar. Keyinroq, XVI asrda bu voqealar cherkovlarda keng ikonostikani yaratishga xizmat qildi. XVII asrning ustunsiz cherkovlari ikonostas devoriy rangli tasvirni chetga surib, kenglik kompozitsiyasining rangli kulminatsion aksentiga aylandi.

O'rta asrlar davrida Rim ma'lum siyosiy o'zgarishlar ta'siri ostida Yevropaning diniy markazi maqomini oldi. Bu davrga kelib Rim



14-rasm. Interyerda bazilika-dromon uslubi.

A — interyer; B — reja.




yepiskoplari katolik dinining formasi bo'yicha dogmatik ko'rinishlar tizimini ishlab chiqishdi. Bu tizimda fazoviy struktura sifatida antik bazalikadan foydalanishdi. Katolik cherkovlarining rivojlanishi uchta: *dromoncha*, *romanistik*, *gotik bosqichlarni* o'z ichiga oladi (14, 15, 16-rasmlar).


Dromoncha bosqichda bazilikaning mavjud bo'lgan strukturasi qo'llandi, lekin uning sharqiy qismi interyerida altarli apsidlar ancha faol yuzaga chiqdi. Baland

o'rta nef to'g'ri altarga qarab intiladi. Bu varvar davrdagi binolar qo'pol toshli devorlarning tiklanishi bilan barpo etildi, ularning interyeriga qaratilgan ochiq turgan nevlari yog'och konstruksiyalar bilan to'sildi.

Keyingi bosqichda monastirli cherkovlar qurilishi asosida **romanistik yo'nalish** yaratildi. Bu davrda adabiyotshunoslikda va xorli ashulada ro'y bergan jarayonlar katta ahamiyat kasb etdi. Bunday tadbirlar cherkov zalining sharqiy qismida olib borilar edi. Ibadat qilishning va xudoga sig'inishning o'sib borishi dinning ishonchli argumenti sifatida ko'p sonli aholini cherkovlarga yetaklay boshladi. Ehtimol, bu yo'nalishda ichki kenglikning fizik kengayishi (uzunligi 50—70 m, balandligi 16—20 m) uning shakliy korrektilirovkasi bilan ro'y bera boshladi: markaziy qism uch nefli strukturaga ay-




15-rasm. Tuluzdagi Sen-Seren ibodatxonasi. XI—XII asrlar.
A — qirgim;
B — ibodatxona rejasi.





A



B

16-rasm. Reymsdagi Gotik sobori.
XIV asr. A — bino qirgimi;
B — bino rejasi.


lantirilib kengaytirildi, xor atrofida keng aylanish yo‘lakchasi (altar va uning oldidagi joy) tashkil etildi.

Interyer umumiy kengligining strukturasida kirish joyidan altargacha o‘tgan markaziy o‘q yetakchilik rolini bajaradi. Markaziy nef silindrik gumbazli tom yopilmasiga ega. Fazoviy shaklning dinamikasi nef proporsiyasining uzunlik va balandlik bo‘yicha uzaytirilgan holati hosil qilingan.


Gotik usulda qurilgan soborlar derznovenli ijodga misol bo‘ladi. Undagi keng, yorug‘ fazoviy kengliklar (uzunligi 75—115 m, balandligi 30—40 m) interyerga juda xosdir. Cherkovdagi urf-odatlar jirkanch sirli illatlardan xoli bo‘lgan. Adabiyotshunoslik an‘anaviy mushoira keng qamrovga ega bo‘la boshladi va ko‘p sonli ixlosmandlarni o‘ziga jalb

etdi.


Romanistik cherkovlarning to‘suvcchi konstruksiyalari sirtlarining asosi ravonli birikmalar bilan birlashtirilgan mustahkam tayanch ustunlar, tashqi devorlar, silindrik va xochsimon gumbazlarning aniq shakllaridan tashkil topgan massivli konstruktiv tarkibni ifoda etadi. Interyerga kirib turuvchi toshning tabiiy og‘irligi inson tomonidan his qilindi, bu og‘irlik Roden haykalining obrazli qiyofasiga bosim o‘tkazganday edi. Ikki asr



A



B



D

17-rasm. Katolik ibodatxona interyeridagi dekor: A — gotik sobordagi gumbazning plastikasi. B — XII asr, monastir kapituli zalining interyeri; D — gotik ibodatxonasi gumbazining plastikasi.

davomida tosh sirtining asta-sekin qirralashtirilishi, sayqallanishi, o'ymakorlik san'ati bilan pardozlanishi va bezatilishi, ya'ni bir so'z bilan aytganda uni qayta ishlash yo'li bilan devor konstruksiyasi og'irligining ancha kamaytirganligini ko'z orqali ko'rish bilan ham sezish mumkin edi. Devorlar yuzasiga tasvirlanadigan plastik mavzu order elementlarining o'ziga xos badiiy ishlanishi bilan yaratildi. Asosiy konstruksiya uchun orderli tizim ancha dekorativ hisoblaniladi. Bir vaqtning o'zida orderli elementlardan funksional detallarni ajratishda, aniqroq qilib aytganda, galereya oraliqlarini, kirish joylarini va jihozlarni ajratishda ham foydalanildi. Antik davrdan farqli o'laroq, bu davrda har bir detal o'z mazmun-mohiyati va proporsiyasi bo'yicha umumiylikning tegishli qismi bo'lib, unda detal o'zining tektonik jihatdan ifodalanishida va proporsiyadagi shakliga ko'ra yetarli darjada mustaqil edi (*17-rasm*). Orderli mavzu faqatgina to'suvchi elementlarni yagona badiiy ko'rinishda tashkil etishda yordam berdi, xolos. Fazoviy kengliklar va tekisliklarning vertikal va gorizontal bo'yicha qismlarga ajratilishi turli kattalikdagi orderlar bilan belgilandi, ajratilgan qismlar ritmik qatorlarga kiritildi va ma'lum kema-ketlikda birlashtirildi.

Neflar yonida turgan ustunlarga tayangan yaruslarning arkadaları arxivoltlar bilan ramalashtirildi. Bosh nefning ko'ndalang yo'nalishida hamma yaruslar orqali o'tadigan ustunlarga baland ingichka ustunlar markaziy svodning arkalarini ko'tarib turishi uchun qo'shma tarzda qurildi. Fragmentdan boshlab butunigacha, kichigidan boshlab kattasigacha bo'lgan ritmik qatorlarning qurilishi fazoviy shakllarning dinamikasini mustahkamladi, uning masshtabini ifodaladi. Devorlarning hayotiyiligiga qayta ishlangan toshning turli plastika va fakturalarini qiyoslash orqali erishildi. Kapitellar, arxivoltlar, balyustradalar kabi mas'uliyat bilan yondashish talab etiladigan kompozitsion joylar relyefi qayta ishlandi. Umuman olganda, plastikli tasvirlarning ingichka relyefli silliq yuzalarda yaxshi aks ettirilishi tufayli bu silliq yuzalar romanistik yo'nalishda yetakchilik qildi. Gotik soborining interyeridagi xarakterli engillik ko'p tomonlama to'suvchi yuzalarning plastik traktovkasiga bog'liq bo'lgan. Karkasli konstruksiyada toshli massa juda kamaydi. Markaziy nef to'suvchi konstruksiyasi bitta vertikal fragmentining maydoni yuzasining faqat to'rttdan bir qismigina massa bilan to'ldirilgan, xolos, qolgan qismlarini esa arka proyomlari, triforiya va oynali yuzalar tashkil etadi. Ingichka turkumdagi ustunlar, ustunlarning sayqallanganligi tayanchlarning haqiqiy katta yo'g'onligini yashirib turadi. Ustunlar

turkumi asosning bitta bazasidan boshlangan Turkumdagi ustunlar tarmoqlangan va arxivoltlarga tutashgan. O'rtadagilari esa gumbazgacha davom etgan va o'zlarining nervyurlari bilan birikkan holda shiftda to'r hosil qilgan Chiziqlarning uzluksiz yagonaligi butun tekislikni qamrab olgan va barcha to'siqlarga ta'sir qiluvchi yengil kuchlanishlarning tektonik taqsimlanishini ta'minlaydi hamda yuk ta'sirini ustunlar turkumi orqali poydevorga uzatadi Interyerning umumiy bus-butunligi ravonlar uchlik yakunlanishining yagona xarakteriga ega. Barcha ravonli shakllarning har bir abrisidan boshlab ularning balandligi va enining o'xshash mutanosiblik nisbatlari bilan, taxminan 3:1 nisbatda qabul qilinadi. Yuza fakturasini ishlab chiqishda silliq, sayqallashtirib qilingan va o'yma naqshlar tushirilgan toshlarning keng diapozonidan foydalaniladi. Ingichka yoki yupqa toshli parapletlarga yopishtirilgan toshli yo'laklar ega bo'lgan vitrajlarining rangli yaltiroq yoritilgan yuzalari interyerga alohida o'ziga xos yengillik beradi.

Bino va inshootlar interyerlarining rivojlanish tarixida Yevropada boshlangan yangi zamon (XV — XIX asrlar) arxitekturasida ancha sezilarli va o'chmas iz qoldirdi. Bu davr jamiyatning ijtimoiy hayotida kapitalistik iqtisodiy munosabatlarning namoyon bo'lishi bilan xarakterlanadi. Shungacha bo'lgan besh asr davomida badiiy yo'nalishli izlanishlarning umumiy asosini antik arxitektura tajribasi va uning orderli sistemasi tashkil etdi. Bunday holat XV—XIX asrlar arxitekturasida uchun «o'tmishdagi antik arxitektura» deb nomlangan umumiy atama bilan ifodalanadi. Arxitektura tarixida bu davr bir nechta bosqichlar bilan bog'langan. Bu bosqichlarda o'ziga xos fazoviy xarakteristikalarining ishlab chiqilishi bilan bir-biridan farqlangan va bu xarakteristikalar renessans,



A




18-rasm. «Qayta tug'ilish» davri stilidagi palatsso strukturasi. Florensiyadagi Gondi Palatsso hovlisi.

A — hovli interyeri; B — qirqim.

barokko, klassitsizm va eklektizm yoʻnalishlarida asta-sekinlik bilan birbirlarini almashtirgan holda namoyon boʻlgan. Arxitekturada antiklikning qayta tugʻilishini obrazli goʻzalikka erishishning umumiy badiiy prinsipi sifatida tushunish mumkin.

Boy yashash uyi qayta tugʻilish davridagi inshootlarning yetakchi tipiga aylandi. Xususiy uy yashash va koʻplab ijtimoiy funksiyalarni bajarish bilan birga uy egasining ijtimoiy mavqeyini belgilaydigan mulkka aylana bordi. Uyda qabul qilish xonalari, devonxona, ballar oʻtkazilishi va artistlarning chiqishlari uchun zallar, kartinali va haykaltaroshlik galereyalar va shunga oʻxshash xonalar joylashtirildi. Yashash uyining, yaʼni turar-joy binosi funksional mazmun-mohiyatining murakkablashishi unga mos keluvchi fazoviy strukturalar va uning badiiy yechimini qidirib topish uchun turtki boʻldi. XV asr oʻrtalariga kelib Italiyada shahar palatssosining koʻp sathli strukturasi aniqlandi. Unda xonalar guruhi uchta qavat boʻyicha puxta zonalashtirildi (18-rasm): birinchi qavatga faoliyat yuritish boʻyicha qabulxonalar va ishlash xonalari; ikkinchi qavatga — tantanavor xonalar: zallar, kabinetlar, kapella; uchinchi qavatga esa oila aʼzolari va xizmatkorlarning yotoqxonalari joylashtirildi.

Strukturani qismlarga ajratishda xonalar oʻrtasidagi oʻzining funksional ifodasini toʻliq topmagan anfiladli funksional bogʻlanishlar prinsipi oldinga surildi. Hovli deyarli oʻzining bir butun strukturasini hosil qilgan boʻlib, u ikki oʻqli yoki markaziy



19-rasm. Barokko usulidagi palatso strukturasi. Barberin palatssosi. A — interyer fragmenti; B — tantanavor zinapoya; D — bino rejasi.

o'qli kompozitsiya prinsiplari asosida qurila boshladi. Shakli va o'lchamlari bilan ajralib turuvchi markaziy fazoviy kenglik kompozitsiya yadrosi sifatida xizmat qila boshladi.

XVII asrdagi barakko badiiy prinsiplarining ta'siri o'ziga xos tarzda palatso strukturasi shakllanishida o'z aksini topdi (*19-rasm*). Funksional jihatdan mustaqil hajmiy-fazoviy guruhlar bo'yicha xonalarning kordinal chegaralanishi ro'y berdi. Bunda xonalar tantanali, xizmat ko'rsatuvchi, yashash xonalariga guruhlandi.

Kompozitsion — fazoviy yadro tantanali xonalar guruhini tashkil etdi va ular bosh o'qqa nisbatan simmetrik tarzda joylashtirildi. Turli fazoviy shakldagi bo'limlardan tashkil topgan bu guruh xonalarining zanjiri tomoshabinning harakatlanishi davomida ochaveradi.

Binoning interyerida alohida xonalarining «davomiy» chiziqlardagi oval, ellips, devorlarning egri chiziqli burchaklari vaplafonlar hamda boshqa faol plastik shakllar muhim rol o'ynadi. Shaklining o'zgaruvchanligi, zinapoyalarining turlicha uyg'unlashuvi, harakat yo'nalishining almashinuvi va gorizontal tekislikka nisbatan og'ish burchagining kattaligi bilan ajralib turuvchi tantanavor zinapoyalar harakatlanish ramzi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Zinapoyalar mavzusiga oid savol va masalalar barokko stilida arxitekturaviy nuqtayi nazardan juda yaxshi yechilgan va hattoki badiiy haykaltaroshlik darajasigacha yetkazilgan.


XVIII asrda Fransiya va vujudga kelgan klassitsizmning stilli yo'nalishi, ayniqsa, Rossiya o'ziga xos jihatlari bilan yorqin namoyon bo'la boshladi. XVIII asrning ikkinchi yarmida rus arxitekturasida dala hovli turidagi uylar, saroylar vashu kabi inshootlar ko'p o'qli prinsip asosida loyihalandi va qurilishining fazoviy tarkibi tashkil etishning ko'p o'qli prinsipi asosida qat'iy simmetrik sxema bo'yicha qurildi. Bosh o'q bo'yicha joylashtiriladigan markaziy xonalar guruhi alohida rivoj topa boshladi. Asosiy fazoviy kengliklarni ketma-ket birlashtirish an'anaviy portikni binoga kirish xonasi orqali asosiy zalga birlashtirish orqali boshlandi. Zarur bo'lgan hollarda bu zanjirga tantanavor zinapoyalar ham kiritildi.

Xonalarning o'lchamlari me'yori bo'yicha harakatlanishning ko'payishini hisobga olish bilan kattalashdi va ular bosh fazoviy yo'nalishga mos, ya'ni ustma-ust tushdi. Yon tomonga o'tish bosh o'qqa nisbatan perpendikulyar yo'nalishdagi o'qlar bo'yicha amalga oshirildi. Strukturani tashkil etishda uyg'unlashuvchi shakllar, ayniqsa, to'g'ri burchakli va

sirkulli chiziqli, silliq egri chiziqli klassik shakllarning mantiqiyliги va qat'iyliги muhim ahamiyat kasb etdi.

Umuman olganda, bu davrda barpo etilgan binolarning hamma interyerlarida plastik qayta ishlash asosini antik order tashkil etadi. Binolarga arxitekturaviy kenglikning tantanavorlik, monumentallik, bejirimlik, oddiylık va shunga o'xshash ma'lum obrazli emotsional sifatlarini berish maqsadida me'morlar tomonidan devor yuzasining dekorativ-tektonik kompozitsiyalari tanlana boshlandi. Besh asr mobaynida orderning shartli tushunchasi qolipida unga bo'lgan munosabat bir necha marta o'zgardi. Dekorativ-tektonik traktovka (renessans) ochiqchasiga bezatish traktovkasi barokko, eklektika sifatida qayta tug'ildi va uning tektonik mohiyatini ifodalaydigan klassitsizm dastlabki pozitsiyasiga maksimal yaqinlashtirish bilan qayta qurildi.

Renessansli palatso interyeri xarakteristikasida «tantanavor» xonalar kompozitsiyasi muhim rol o'ynadi, ulardan har biri tantanavor keng zallar qatoriga yetarlicha avtonom holatda kirib bordi. Obrazli xarakteristikaning ochilishi zalning tematik nomlanish qoidasini vujudga keltirishga zamin hozirladi (senatorlar zali, ikki yuz kishilik zal va h.k.). Kompozitsion ishlab chiqishga devorlar va shiftlar ham kiritildi. Plafonlar arxitekturaviy-plastikli asarlarni o'zida namoyon etdi, ularning yuzasi skulpturli relyefda geometrik shakllarning murakkab turida bajarildi. Bundan tashqari bu yuzalarga jonli ornamentlar va figuralarning tasvirlari tushirildi. Tantanavor xonalarning devorlari antik an'ana asosida syujetli kartinalar bilan bezatildi.



20-rasm. Barokko uslubi. Simmerman saroyi kutubxonasining zali. XVII asr.


Barokko order prinsipi sifatida shakllarning fazoviy ko'rkamligini oshirish masalalariga bo'ysunadi va uning dinamikligini belgilaydi (*20-rasm*). Orderli elementlar bu yerda devor va shipni ritmli-plastikli tashkil etishning vositasiga aylangan. Ular gorizontaal va vertikal harakatlantirish bo'yicha kompozitsiyani rivojlantiradi.

Mustahkamlash maqsadida hajmiy kolonnalar o'rniga devorning sirtqi yuzalariga

pilyastrlar shakllantirila boshlandi va undan keyin to'suvchi devorlarga o'yib kiritilgan taxmonlar illyuziya yaratish uchun kiritildi. Bu effektни yanada kuchaytirish uchun rangtasvir va haykaltaroshlik san'ati jalb qilindi. Devor sirtidan chiqib turuvchi hajmlarning skulptur tasvirlanishi oldingi predmetli rejani fiksatsiyalaydi. Barokko stilida interyer, avvalombor, shakllar va ranglarning bayramona muhitini yaratadi. Ranglar arxitekturaviy detallarning oltin rangdagi tonlari, jihozlarning elementlari va rangli matolarda ishtirok etadi. Plafon va devorlardagi ko'p sonli rangli tasvirlar tig'iz kontrastli uyg'unlashuvi bilan ajralib turadi. Agar renessans sistemasida erkin atmosferada shakllar aniqlik bilan yaratilgan bo'lsa, barokko sistemasida esa ichki hajmlarning fazoviy nisbatlari, yuzalarning dinamik plastikasi, shakllarning ritmik takrorlanishi ko'proq namoyon bo'ladi.

Rokoko yo'nalishining qisqa vaqtli gullab-gurkirashi, asosan, XVIII asrning 20—40-yillariga to'g'ri kelib, bu yo'nalish Fransiya'dagi aristokratik saroy interyerlaridagi san'atda kuzatiladi. Modali usullar sifatida rokoko usuli Germaniya'dagi saroylar va cherkovlarga sezilarli ravishda o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Ushbu usulning xarakterli dekorativ xususiyatlari yashash interyeri uchun shinamlik keltirmagan klassitsizmga bo'lgan qarshilikda namoyon bo'ldi. Birinchi marta orderli sistemalarning tektonik kanonlaridan chekinildi va sof uslublar yuzaga keldi (21-rasm). Nozik, majburiy bo'lmagan obrazlarga asoslangan shakllarning xususiy «tili» ishlab



21-rasm. Rokoko stili. Potsdamdagi saroyning Apollon zali. XVII asr.

chiqildi, bu obrazlardan o'simlik olamining ramzi sifatida foydalanilgan. Ornamentlar rasmlarining nozikligi, abrislarning oquvchanligi, tekisliklarning biridan ikkichisiga yengil o'tish va ularning tektonik aniqlanmaganligi og'ir massalarni illyuzion jihatdan bartaraf etishga shart-sharoit yaratdi. Bezaklarga ko'milgan katta toshoynali yuzalar bilan pardoziqlangan devorlarning yengilligi va o'tkazuvchanlik xossasi afsonaviy illyuziyani reallikka aylantirdi. Mebel, kartinalarning ramalari, chiroqlarning shakllar bilan bezatilishining umumiy dekorativ uslubga kiritilishi interyerda o'ziga xos badiiy muhitni yaratdi.


Dekorativ-tektonik vosita sifatidagi orderli sistemadan foydalanishning ko'p asrli pretседenti taxminan XIX asrning 30-yillaridan boshlab o'zini yo'qota boshladi. To'suvchi konstruksiyalarning dekorativ-orderli kompozitsiya uslubini kengaytirishga urinishgan me'morlar oxir-oqibat ochiq bezatish yo'liga o'tishdi. Dastlab stilizatsiya ma'lum «uslub» ostida antik orderli va boshqa arxitektonik sistemalardan foydalanish imkonini berdi. Obraz yechimining tasviriy vositalari asosida konstruktiv-fazoviy shakl emas, balki sof dekorativ-syujetli shakl yotadi. Masalan, Mischra xona, Pompeycha oshxona, Petrovskiy zali, Apollon zali va h.k.

Keyinchalik ijodning eklektik shakli odat tusiga kirdi. O'zining ajoyib turli-tumanligi bilan qamrab oluvchi bu shakl tobora kengayib borayotgan qurilishning ehtiyojlarini qondira boshladi. Detallar va elementlar komponovkasi, qoidaga ko'ra ortiqcha yuklatilganligi va o'ta boyitilganligi tufayli kuchlanganlik holatini boshidan kechiradi. Dekor uslubi aksariyat hollarda uning vazifasiga munosib ravishda yuzaga chiqdi: antik uslublar sig'inish, fan, insonparvarlik va saxiylik, qisman boylikni ifodalagan holda qo'llanildi. Bu uslublar bo'yicha muzeylar, kutubxonalar, shifoxonalar, banklardagi xonalar pardoziqlandi. Sharqona (Mavriton, xitoycha, yaponcha) uslublarga savdo zallari, hammomlar, masjidlar va shunga o'xshash ko'plab binolarning interyerlariga bejirimlik yoki xotirjamlik bag'ishlovchi taassurot berish kabi vaziyatlarda murojaat qilinardi. Rossiyada davlat, siyosatga oid bo'lgan qurilish uchun ruscha, vizantiya va gotik uslublar tanlanar edi.

XIX asrning oxirlarida Yevropa qit'asi mamlakatlarida yangi arxitekturaga o'tishda keskin burilish sodir bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan ratsionalistik an'analar yangi konstruktiv sistemalar, samarali qurilish materiallari va qurilishda ishlab chiqarish va uni tashkil etishning yangi uslublari ixtiro qilinishiga olib keldi.

Arxitekturaviy asarlarning shakl hosil qiluvchi asosi estetik talqinlarni olib tashlashga emas, balki funktsiya, material va shaklning organik bog'lanishi

haqidagi g'oyalarni oldinga surish bilan yuzaga chiqdi. Bunda insonning to'laqonli hayotiy faoliyat yuritishi uchun funktsiya tushunchasi optimal psixologik iqlim sharoitiga yanada kengroq kiritila boshlandi.




22-rasm. Puxta tuzilgan rejaviy strukturali bino namunasi. Rotterdamdagi birja rejasi.



Arxitektura rivojlanishining bu davri, ayniqsa, yangi yo'nalish — modern uslubining kiritilishi bilan alohida xarakterlanadi. Bu uslub yangi arxitekturaviy yo'nalish sifatida birinchi bo'lib avvalgi an'analar bilan bo'lgan aloqalarni uzdi va «zamonaviy» arxitekturaning vujudga kelishiga zamin tayyorladi. Bu yo'nalishdainingshootlarning yangi tiplari (ko'rgazmalar, savdo-sotiq binolari va boshqalar)ni yaratishda funksional-texnologik tashkil etish jarayonlari hal etuvchi ta'sir ko'rsatdi. Universal do'konlar, banklar, vokzallarning zallari keng va yorug' qilina boshlandi, vokzallardagi perronlar va yo'lovchilarning o'tish joylari, vagonlarga chiqish oldidan turadigan joylar oyna bilan qoplanadigan metallardan ishlangan svodlar bilan to'sildi. Elementlarning o'zaro bo'ysunishini talqin etadigan chiziqli-perarxik nuqtayi nazar o'rniga fazoviy arxitekturaviy tashkil etishning asosi sifatida kompozitsiyada elementlarning teng bo'lish mumkinligi haqidagi xonalarni mantiqiy-funksional guruhlanishi to'g'risidagi taassurotlar kirib keldi (22-rasm). Yangi materiallar: metall, oyna, keramika va interyerni pardozlash bo'yicha boshqa materiallardan foydalanish doirasi kengaydi.

Modern yo'nalishida pardozlash, bezashning ikki turi mavjud. Birinchisi — funksiyaviy-konstruktiv va utilitar elementlar bilan:

deraza va eshiklar oraliqlarini ramalashtirish, zinapoyalarni to'sish, shiftlarning fermalari va konstruksiyalarining tayanchlari bilan ifodalanadi (23-rasm). Ularning shakllari badiiy-plastik va rangli yechimlarning variatsiyasi uchun asos sifatida



23-rasm. Mebellar va eshiklarning birgalikdagi uyg'unlashuviga misol.




24-rasm. Jamoat binosining interyeri: A — vitraj rasmi; B — «Osobnyak» mehmonxonasi.

qo'llanildi. Pardoqlash, bezashning ikkinchi turi bu tasviriy, grafik va rangtasvirdan iborat bo'lib, ular yordamida devor, shiftlar, detal-larning tashqi sirt yuzalari bezatiladi. Ornament, odatda, tekislikda tasvirlanib, uning fakturasi rivojlantiriladi yoki tashqi pardozi sifatida namoyon bo'ladi. Hamma holatlarda modern dekori ustunlikka ega bo'lgan ravishda ornamentlidir va u arxitekturaviy muhitning yagona stilistik bus-butunligini tasvirlashga yo'naltirilgan (24-rasm).

To'suvchi konstruksiyalar tekisligining kompozitsiyasida bitta yoki har xil materiallar yog'och, tosh, metall, oyna va h.k.) fakturasining kontrastli taqqoslanishi faol qo'llanildi. Rangli uyg'unlashtirish ham boyitila bordi. Bunday uyg'unlashtirish quyidagi ranglar: moviy-kulrang, ko'k-moviy, moviy-och qizg'ish, yashil-kulrang, zaytun, pista gammasi qo'llanila boshlandi.

Qurilish materiali badiiy vosita sifatida ham keng qo'llandi. Muhitning badiiy bus-butunlik g'oyalarining keyingi rivojlanishi jihozlar, turmushda foydalanadigan predmetlarda qo'llanish talablarini bajarishda ko'rinadi. O'tgan asrning 20-yillari arxitekturasida aniq geometrik shakllarning uyg'unlashuviga asoslangan strukturalar namoyon bo'ldi.



25-rasm. Tugandxata villasi (reja, qirqim).

Umumiy tashqi shaklning ahamiyati yetakchilik qildi.


Shaklning ichki fazosi alohida xonalar bilan to'ldirila boshladi. Tayanchlarning konstruktiv to'ri to'g'ri burchakni qat'iy koordinatsiya qilish va qismlarga ajratishning puxta ritmini o'rnatuvchi modul rolini bajardi (25-rasm).

Rivojlanishning keyingi bosqichida (30-yillar) iqtisodiy tashkil etish masalalari yechilishi ichki kengliklarning yagona hajmga konsentratsiya qilinishiga olib keldi. Ustunlar bilan bog'lanmagan holda, ya'ni ancha erkin tarzda to'siqlarning qo'yilishi, ular joylashish tekisligining cho'zishidagi o'zgarishlar o'tgan asrning boshlarida qo'yilgan uslubning yangiligi sifatida e'tirof etildi.

«Erkin reja» xonalar shakllarida bo'lgan avvalgi bir xillilikni bartaraf etdi, ichki kengliklarni «oquvchan» biriktirish ularning plastik sifatlarini kengaytirish imkoniyatini ochib berdi.

Keyingi bosqichlarda shakliga ko'ra bitta hajmli bo'lgan strukturalarning rivojlanishi ro'y berdi. Bunday rivojlanish, ayniqsa, jamoat binolarida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu strukturalarning kompozitsion tashkil etilishida tarixiy tarzda yuzaga kelgan mo'ljallar qatorini ajratish mumkin:

1. Murakkab forma xarakteri bo'yicha har xil bo'lgan ikkita fazoviy shaklning birikishidan hosil qilinadi. Odatda, ulardan bittasi yirik bo'ladi va aksent sifatida bosh struktura deb tanlanadi. Boshqasi esa massasiga ko'ra katta bo'lishi mumkin, o'z blokining shakliga muvofiq ravishda xonalar guruhiga ajratiladi (26-rasm). Kompozitsiya yadrosini tashkil etuvchi aksentli shakl qoidaga ko'ra ancha murakkab konfiguratsiyaga ega. Bo'ysunuvchi shakl esa o'zining konturli chizig'i bo'yicha ancha sodda bo'ladi. Ichki strukturaning kompozitsion aniqligi, odatda, tashqi




26-rasm. Madaniyat markazi. A — reja; B — interyer.


hajmda o'ziga mos keluvchi tasvirni topadi. Ichki kenglikni rivojlantirish asosiy xonaga kirish joyida boshlangan yo'nalish bo'yicha olib boriladi. Keyingi vaqtda bu usulda katta tom yopilmasiga ega bo'lgan armaturalar strukturasi keng tarqalyapti (mehmonxonalar, ofislar va h.k.).

2. Murakkab struktura o'xshash shakllarga yoki xarakteri bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan shakllarga

ega bo'lgan elementlardan tuziladi. To'g'ri chiziqli (kvadrat, uchburchak, ko'pburchak) shaklli elementlar tekislik va fazodagi geometrik to'r qonuniyati asosida tashkil etiladi. Rejadagi shakli aylanasimon bo'lgan elementlar intuitiv komponovkalanishi mumkin va bir-birlari bilan ixtiyoriy shakllar orqali biriktiriladi. Fazoviy kenglikning alohida ko'rkamligi shakllarning xarakterli sifatlari: poligonal chiziqlarning dinamikligi va sirkulli chiziqlarning bir xil me'yorda o'zgarishi evaziga hosil qilinadi. Uzun perspektivalarni ochib beruvchi kengliklarning «oquvchan»ligidan foydalanish, interyerning strukturali qonuniyatini ko'z bilan ko'rish orqali his qilish imkonini beradi (27-rasm).





27-rasm. Djester uyining loyihasi (reja). F. Rayt.



28-rasm. P. Portogezi cherkovi (reja).

3. Geometrik vektorlar bazasida yaratilgan struktura-ni namoyon etuvchi usul. Bu usul o'zining katta murakkablikka ega ekanligi bilan avvalgilardan farq qiladi va shakllarning badiiy-intuitiv uslub orqali geometrik qonuniyat bilan qurilishini o'z ichiga oladi (28-rasm). P. Protogezi konstruktiv aylanalardan geometrik vektor sifatida foydalandi. Rejada egri chiziqlarning o'zaro biriktirilishi erkin



29-rasm. Sharun shahridagi filarmoniya binosi (zal, interyer, reja, qirqim).



emotsional bexavotirlik manbayi bo'lib qoladi. Umuman, arxitekturaviy inshootning erkin fazoviy kengligi har qanday murakkab badiiy asar singari o'z mohiyatiga ko'ra ko'p rejalidir va qabul qilishning ko'psonli aspektlariga ega, bu aspektlar har safar yangi va emotsional taasurotlarni yuzaga keltiradi. Erkin fazoviy tarkibni yaratish bu yuqori professional saviya va rivojlangan badiiy intutsiyadan darak beradi.

5. Zalning asosiy shakli yetakchilik qiladigan kattaligi yopiq stadion, ko'rgazma, cherkov, ishlab chiqarish sexi va h.k. kattaligi bo'yicha ancha kichik bo'lgan qo'shimcha xonalarni bo'ysundiradi. Bu kichik xonalar yoki joylar strukturani umumiy kompozitsion tashkil etishda qo'shimcha element sifatida ishtirok etadi.

Bunday bitta fazoli struktura o'zining ko'rkamligiga bosh fazoviy shaklning plastik yechimi va uning ichki qismlarga ajratilishining xarakteri orqali erishadi.


xarakterdagi ixtiyoriy shaklni hosil qiladi.

4. To'rtinchi usul geometrik qonuniyatga bo'ysunmaydigan «erkin holatdagi» strukturalarni qamrab oladi (29-rasm). Fazoviy shaklning rivojlanishi butunlay badiiy-intiutiv his qilishni taqozo etadi. Odatda, bunday his qilishda obrazli assotsiatsiya va ramzlar tayanch bo'lib xizmat qiladi. Odatiy yoki o'rganib qolingan funksional jarayonda xonaning noodatiy shakli va strukturasi bilan birikishining kolliziyasi qabul qilishning kuchlanishini tug'diradi va u



30-rasm. Berlindagi Kongress-xoll:
A — qirqim; B — reja.

Bir fazoli strukturaning kompozitsion rivojlanishi an'anaviy oddiy geometrik hajmlardan ancha murakkab shakllarga o'tish bilan belgilanadi. Bunda murakkab shakllar oddiy shakllarning uyg'unlashgan qatoridan tashkil topadi (30-rasm). Berlindagi Kongress-xoll sferik qobig'ining aniq shakli uning tomosha zalining chizilish xarakterini aniqlab berdi. Vantli konstruksiyalarning ishlash mantig'ini aks ettiruvchi geometrik qonuniyat yopiq stadionlar yopilmasining bejirim tasvirlangan silueti asosida yotadi.



31-rasm. Betonli konstruksiya plastikasi. Auditoriya.
Arx. A. Aalto.

Zamonaviy arxitektura haqqoniylikka va ratsionallikka asoslangan to'siq konstruksiyalar yechimi-ning kompozitsion usullarini yaratdi. Nafaqat aldamchi dekorativ vosita sifatidagi orderli sistemadan, balki ornamentdan voz kechish qurilishning bevosita elementlari — materiallar va konstruksiyalardan faol foydalanishga zamin yaratdi. Bu esa ularning bebaho fizikaviy xususiyatlari — qattqlik, yumshoqlik, yengillik, og'irlik, rang va

konstruktiv detallarning mantiqiy shakllarini yuzaga chiqardi. Agar avval devorga surkalgan yoki mahkamlab o'rnatilgan plastik elementlardagi estetik tasvirlarni ko'rgan bo'lsak, endi esa devor shaklining o'zi bosh estetik faktor bo'lib qoladi. Tekislikning kompozitsiyasida uning spetsifik sifatleri: xususiy shaklning plastikligi, teksturaning relyefligi va siluetligi (31-rasm) ustunlik qiladi.

Funksionalizm arxitekturasining birinchi bosqichida obrazning puritancha soddalik g'oyasi ilgari surildi (32-rasm). O'zining geometrik shakli bo'yicha tushunarli, toza tekislikning yangiligi to'siq konstruksiyasining yengilligida o'z ifodasini topdi. Tayanchlar va devorlarning yupqaligi, ular yuzalarining silliqligi, oynalarning shaffofligi, bo'yoqlarning och rangliligi fazoviy kenglikning kengroq his qilinishini yuzaga keltirdi. Noodatiy yengil mebel sun'iy muhitning yaratilishida alohida rol o'ynaydi.


Rayt arxitekturasining tabiat bilan organik birikishi, ya'ni oldindan rejalash tabiiy an'anaviy materiallar — g'isht, tosh, yog'ochdan foydalanishni e'tirof etdi.

Ularning yashash uyi ichiga kiritilishi xonadonda osoyishtalik va ma'lum darajadagi shinamlikni ta'minladi hamda atrofdagi tabiat bilan bo'lgan bog'liqlikni yanada mustahkamlashga sharoit yaratdi. O'tgan asrning 60-yillaridagi «Brutalizm» arxitekturaviy oqim sifatida to'siqlar, ya'ni to'suvchi konstruksiyalarning an'anaviy moddiy vazifadorligidan kelib chiqdi, materiallarning badiiy ahamiyatini uning sifat xarakteristikalari orqali namoyon etdi (*26-rasmga qarang*). Interyerda ko'pincha materialning ochiq fakturasi qo'llanadi, yuqori qatlam pardozida g'ishtdan, ayniqsa, keng gammali betondan foydalanadi (toshli ushoqlar, qolip izlari). Yuk ko'taruvchi beton va temir-beton konstruksiyalar hamda g'ishtli to'lduruvchi devorlar yaqqol ajralib turadi. Oynali to'siqlarning karkasini hosil qilishda, zinapoya konstruksiyalarida, yuk ko'taruvchi fermalar va strukturali yopilmalarda metallarning ochiq holatda bo'lishi keng tarqaldi. O'tgan asrning 70-yillarida sanoat qurilishida interyerda texnik kommunikatsiyalarning ochiq holatda saqlanishi fuqaro binolarida ham injenerlik kommunikatsiyalarining ochiq holatda saqlanishiga sabab bo'ldi. Texnik shakllarning interyerdagi kompozitsion roli ularning faol bo'lishi bilan ifodalanadi.

Zamonaviy arxitektura yangi qurilish va pardozlash materiallarining keng assortimentda jadal sur'atlar bilan ishlab chiqarilishi interyerlarning pardozlash usullari va metodlarining sezilarli

darajada kengayishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi vaqtda yashash uylarida interyerlarning pardozlanishi va bezatilishi ko'p jihatdan ularni barpo etuvchilarning didlari va g'oyalariga bog'liq bo'lib, bunda ularni shakllantirishning yetarlicha mantiqiy asoslanganligi va ularning xuddi shu tarzda asoslangan ko'plab variantlari kuzatildi.

Ko'p vaziyatlarda yuqori sifatli usullar qatorida didli va oqilona yondashuvdan butunlay xoli bo'lgan, mutlaqo oddiy bo'lgan interyer



32-rasm. Della Rokko mehmonxona villasi.
Arx. Le Korbyuze.

variantlarini ham uchratish mumkin. Bunday holat jamoat binolariga ham tegishlidir. Pardoqlash va bezatish variantlari dastavval loyihaga kiritiladi, bunda ularni shakllantirishning qonuniyatlari va yo'nalishini aniqlash mumkin bo'ladi. To'siqlar konstruksiyalarning tekisligi rangli bezatishda qo'llaniladigan koloristika xonalarning funksional mo'ljallanganligiga bog'liq ravishda tanlanadi. Masalan, kabinetlar va ofislarda, majlis zallarida, tomosha uchun mo'ljallangan binolarning vestibullarida va kularlarida beton, g'isht, yog'och kabi materiallarning tabiiy fakturalaridan foydalangan holda an'anaviy vazmin va yengil koloristika qo'llanadi. Sport, umumiy ovqatlanish, savdo-sotiq, restoranlar uchun mo'ljallangan binolar interyerlarida ancha intensiv ranglar va ularning kontrastli uyg'unlashgan variantlari qo'llanadi. Bunday tipdagi binolarning mebellari va jihozlari ularga muvofiq tarzda tanlab olinadi. Ko'pincha rejayiy strukturalarning egiluvchanligi-xonalar sonini ko'paytirish va kamaytirishni ta'minlash maqsadida transformatsiyalanadigan devorlar va to'siqlardan foydalaniladi. Interyerlarning ko'z orqali ko'rish bilan qabul qilinadigan qulayligi va go'zalligining hosil qilinishida yetarli darajada shart-sharoitlar yaratadigan usullari qatorining e'tibor qozonganligini alohida ta'kidlash joiz. Ularga hozirgi vaqtda atriumli fazoviy-kengliklar rejayiy strukturasining rivojlanishi evaziga hosil qilinadigan turli shakli va konfiguratsiyali usullariga ega bo'lgan, shakl qilingan to'siqlar, «oqib o'tuvchi» kengliklar, keng obrazli tashqi landshaftni misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, monumental san'at devorlariga ishlangan naqshinkor tasvirlar, haykaltaroshlik, keramik buyumlar va h.k. asarlarni ham interyer strukturasiga kiritish mumkin. Inson tomonidan barpo etilgan binolar interyerlarining yuqorida zikr etilgan o'tmishdagi va zamonaviy rivojlanish tahlilari ko'p asrlar mobaynida to'plangan bebaho tajribani o'zida namoyon etadi. Bu tajriba asosida zamonaviy bino va inshootlarning interyerlarini bezatish uchun juda zarur bo'lgan maqbul metodlar o'rnatildi.


Interyerning qimmatli tajribasi asosiy kompozitsion vositalari va estetik shakllanish usullarini qayd etishga imkon yaratadi. Keyinchalik interyerni tashkillashtirish xususiyatlarini o'rganishi unda ishtirok etayotgan tarkibini ilmiy tasniflash orqali kelib chiqishi qonuniyatlarining mehnati bilan bog'liq. Bu esa o'z navbatida loyihalash jarayonida va qurilishda amalda foydalaniladi. Tarixiy davrlardan farqli ravishda inshootlar tipologiyasining rivojlanishi barcha qamrov davomiyatiga oiddir. Interyerni tashkil etishda nafaqat inshootlar tipologiyasi va qurilishning texnik imkoniyatlari, qolaversa, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar muhit va jihozlarga nisbatan aniq bir talablar asosida hisobga olinadi.

INTERYERNI TASHKIL ETISHNING ASOSLARI

1-qism. Interierli muhitga qo'yiladigan talablar


Funksional jihatdan maqsadga muvofiqlik. Har qanday xona yoki joyning u yoki bu jarayonlarining o'tkazilishini ta'minlashga qodirligi va ularda ma'lum bir komfortni yaratish ushbu xona yoki joylarning ichki kengligi va interieriga qo'yiladigan estetik va ma'naviy talablar bilan uzluksiz aloqadorlikda ekanligi bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, arxitekturada qulaylik va go'zallik bir-biridan ajratib bo'lmaydigan tushunchalardir. Shuning uchun ichki fazoviy kenglikni yaratish u yoki bu jarayonning o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lgan hamma alohida talablarning jiddiy o'rganilishi, harakatlanish grafiklari va alohida xonalarning o'zaro bog'liqliklarini, maqbul tartib mezonlarini o'rganishni taqozo etadi. Faqat savolning kompleksli yechimi natijasidagina maqbul fazoviy struktura topilishi mumkin. Funksiyaning jarayonni ta'minlovchi tushuncha ekanligini tasdiqlovchi holatga auditoriyani misol tariqasida keltirish mumkin (*33-rasm*), shuning uchun funksiyaga interier yechimining asosi deyiladi. Auditoriyalar lokal masalalarni yechish ashyolarni doskada yoki ekranda namoyon etish orqali ma'ruzalar o'qishga va bu ma'ruzalarni tinglashga mo'ljallangan. Auditoriyaning sig'imi turlicha, ya'ni 50 kishidan 80 kishigacha bo'lgan va 400 kishi va undan ko'proq qatnashchidan iborat bo'lgan guruhlarini sig'dira oladi. Ma'ruzachi va doskani yaxshi ko'rish uchun qulay yorug'lik va ovoznining jarangdor tarqalishini, mashg'ulot va darsdan chalg'itmaslikni ta'minlaydigan sharoitlarni yaratish qator usullardan foydalanish yo'li orqali amalga oshiriladi.

Amfiteatr orqadagi eshituvchining balandroq sathda o'tirishini ta'minlovchi auditoriyaning rejadagi va qirqimdagi shaklidir. Yorug'lik tushadigan oraliqlarning shakli va o'lchamlari hamda auditoriyalarni quyoshdan himoyalash, yuqoridan tushadigan yorug'likdan foydalanish, qaytaradigan osma tekisliklar ko'rinishidagi akustik moslamalar, shaklning lokalligi, rang — bular-



*33-rasm. Kichik auditoriya interieri
(arx. A. Aalto).*

ning hammasi qo'yilgan funksional masalalarni yuqori badiiy darajada yechishning usullari va uslublaridir. Auditoriya interyeri induvidual xarakteristikaga ega bo'ladi. Lekin shu bilan bir qatorda interyer ishtirokchilarining ma'ruza-mashg'ulot paytida diqqat-e'tiborlarini bir nuqtaga jamlashlariga xalaqit bermasligi va ularni eshituvchilarni chalg'itmasligi




34-rasm. Elektronika instituti kutubxonasining interyeri (arxitektorlar — F. Novikov, G. Sayevich).

lozim. Interyer o'ta tinch, lokallik, osoyishtalikni ta'minlamog'i zarur va unda hech qanday ortiqchalikka ega bo'lmaslik talab etiladi. Undagi hamma elementlar funksionaldir. Qat'iy funksional yechimli interyerning boshqa misoli sifatida kutubxona interyerini keltirish mumkin (34-rasm). Zelenograd elektronika instituti kutubxonasining o'quv zali juda ratsional yechimdagi interyerga ega. Derazalarning bo'lmaganligi tufayli gorizontalliy yo'nalgan quyosh nurlari xonalarning ichiga tushmaydi. Bu bilan diskomfortli ko'zni qamashtiruvchi quyosh yorug'ligi va kitoblarning yonish ehtimoli bartaraf etilgan. Devorlar perimetri bo'ylab va o'quv zalining o'rtasida ochiq stellajlarning joylashganligi kitobxonlarning bemalol kitob olishlari uchun qulay. Bu yerda tabiiy yoritish sistemasi markaziy fonar shaklida yechilgan bo'lib, u interyerning eng yorqin

xarakteristikasi deb hisoblanadi. Shuningdek, zalning o'rtasida kitob o'qish, dars qilish uchun stollar joylashtirilgan.

Quyosh nurlaridan himoyalovchi panjaralar, akustik shiftlar, yuqori yorug'lik fonarlari, amfi-teatrli zallar tashqi konturning chiziqlari kabi interyerdagi zamonaviy arxitekturaviy shakllarning ko'pchiligi tugallangan plastik va fazoviy xarakteristikaga ega



35-rasm. Ellinistik teatr.

va ular zamonaviy estetik taassurotlarning ifodasi sifatida to'satdan paydo bo'ladi, balki u yoki bu jarayonning o'tkazilishiga qo'yiladigan funksional talablarga javob tariqasida hosil qilinadi. Shunday qilib, zamonaviy tasavvurlar mavqeyi bilan aniqlanadigan funksional maqsadga muvofiqlik — unga qo'yiladigan bajarilishi lozim bo'lgan eng muhim talablardan birinchisidir.

Kompozitsion usullarning ijtimoiy jihatdan sharoitga moslashganligi.


Turar-joy va jamoat binolarining ichki kengligiga qo'yiladigan talablar binoning bajaradigan vazifasiga, ya'ni uning nimaga mo'ljallanganligi bilan aniqlanadi va bu talablar qatori doimiy yoki o'zgarmas deb hisoblanilmaydi. Bu talablar butun tarix davomida binolar ijtimoiy mohiyatining o'zgarishiga bog'liq ravishda o'zgardi va yangi talablar bilan to'ldirila bordi. O'zining kelib chiqishiga ko'ra qadimiy bo'lgan jamoat binolari qatoriga kiruvchi teatr misolida jamoat binolariga qo'yilgan va qo'yilayotgan talablarni tahlil qilish natijasida shuni kuzatish mumkinki, texnologik sahna talablari singari ijtimoiy talablar ham ichki kenglikning qurilishi o'zgarishi bilan uning o'lchamlari va qiyofasi ham o'zgarib bordi (*35-rasm*). Ma'lumki, bu o'zgarishlarning asosida, birinchidan, spektaklning mazmun-mohiyatiga bog'liq bo'lgan, teatr harakatining shakli va xarakterini aniqlaydigan talablar yotadi va xuddi shu yerdan zalning ko'rinishi kelib chiqadi. Ikkinchidan, teatrning shahardagi ijtimoiy ahamiyatiga bog'liq bo'lgan talablardan uning sig'imi, o'lchamlari va tuzilishi kelib chiqadi. Ijtimoiy shart-sharoitlangan bu ikki g'oyadan zalning fazofiy qurilish talablari, uning interyeri hosil qilinadi.

Qahramonona tragediyani namoyish qiladigan qadimiy Gomer teatri ko'p sonli tomoshabinga mo'ljallangan.

Teatrda butun shahar va uning atrofidagi aholi tashrif buyurishar edi. Teatr binosi bajarilishi lozim bo'lgan (majburiy) ikkita talabdan kelib chiqqan holda qurildi — ko'p sonli tomoshabinlarni sig'dirish va harakatlarni mumkin qadar maksimal darajada ularga yaqinlashtirish. Klassik grek teatri xuddi shunday yaratildi. Unda tomoshabinlar uchun mo'ljallangan o'rindiqlar orkestrlar atrofiga joylashtirildi. Ulkan amfiteatr tog' yon bag'riga ochiq osmon ostiga qurildi, uning ajoyib peyzajga qaratilganligi, o'zida buyuk bir tomosha tasvirini namoyon etadi.

Gretsiyadagi ellinistik davrda jamiyatning sinfli toifalarga qatlamlanishi tanlanganlar uchun teatrni san'atga aylantirdi. Teatrda harakatlar

amfiteatrdan sahnaga ko'chirildi. Supachalarga senatorlar uchun maxsus kursilar qo'yildi. Shu tariqa ijtimoiy buyurtma bilan teatrning arxitekturasidan tubdan qayta hosil qilina boshlandi. Amfiteatr o'lchamlari bo'yicha sezilarli darajada kichraytirildi. Italiyadagi Venetsiya shahrida uncha katta bo'lmagan yopiq teatr qurilgan. Teatr tor aristokratlar doirasi uchun mo'ljallangan (36-rasm).



36-rasm. Venetsiya shahridagi «Olimpiko» teatri (arx. Palladio).

Bu yerda arxitektura viy vositalar yordamida ajoyib arxitektura asari yaratilgan. Tomoshabinlar va sahnani ajratuvchi portal, katta order, sahnaga yo'naltirilgan perspektivali ko'cha shaklidagi doimiy dekoratsiya antik an'analarni rivojlantiradigan monumental namoyon etiladigan arxitekturaning yaratgan. XIX asrda portalli sahnaga ega bo'lgan yarusli klassik teatr qiyofasi tarkib topdi (37-rasm).



37-rasm. Milan shahridagi ko'p qavatli La Skala teatri (Italiya).

Zalning yarusli qurilishi, parter podsho balkoni, himoyalangan foye, har bir ijtimoiy guruh uchun alohida chiqish joylari — bularning hammasi teatrning sinfli tarkibini xarakterlaydi. XIX asr oxirlari XX asr boshlarida ijtimoiy munosabat rivojlanishi, fan, texnika va jamiyat hayotidagi umumiy taraqqiyot va uzviy xalqaro hamda ichki ijtimoiy


aloqalarning yanada ortishi binolarning yangi tiplarini yaratishni talab etadi. Shuningdek, yangi har xil va murakkab hayotiy talab va ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy muhitni yaratish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mayda rastali savdo qatorlari o'rninga turli

bo'limlarni birlashtirgan, keng fazoviy kenglikka ega do'konlar, yirik savdo firmalari vujudga keldi. Xalqaro ko'rgazmalarning yirik zallari, temiryo'l vokzallari, yopiq bozorlar kabi yirik iqtisodiy talablarga javob beradigan inshootlar barpo etildi.

Yagona fazoviy kenglik va erkin reja asoslar XX asrning ilg'or arxitektorlari tomonidan ishlab chiqildi va ular bu prinsiplarni o'zlarining loyihalarida amalga oshirishga urinishdi. Qat'iy chegaralangan alohida xonalar va joylar o'rniga yagona uzluksiz fazoviy kenglikni yaratish arxitekturaning yetakchi prinsiplaridan biri hisoblanadi. Bu prinsipga ko'ra kenglikning himoya qilinishi faqat zarur bo'lgan hollardagina amalga oshiriladi. Faqat shu prinsipga asoslangan yagona fazoviy kenglik orqaligina gorizontaal yo'nalishda bo'lgani kabi vertikal yo'nalishda ham xonalardan xonalarga erkin o'tishni ta'minlash mumkin. Tabiatga, maydonga, shaharga keng ochiq hollarda fazoviy kenglik, tashqi muhitdan ajratilgan, yorug' xonalardan farqli o'laroq jamoat binolari arxitekturasining eng umumiy tasnifi hisoblanadi. Turar-joy va jamoat binolari interyerining ijtimoiy asoslari o'zining savollar doirasiga iqtisodiy masalalar muammolarini ham kiritadi.

Keng ma'noda iqtisodiy muammo jamiyatning imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan xarakterlanadi. Bunda asosiy maqsad inson hayotining farovon bo'lishi uchun barcha qulayliklarni yaratish, bosh maqsad esa inson haqida qayg'urishdir. Unifikatsiyalashgan mebelni yaratish, ayniqsa, turar-joylar uchun juda muhim va maqsadga muvofiq keladi. Har xil vazifalarni bajaradigan buyumlarni bitta blokka yig'ish yashash joylar zamonaviy interyerining eng muhim estetik sifatlaridan biridir. Mebel vaqt o'tishi bilan o'z xususiyatini yo'qotadi. Alohida narsalarning ahamiyati kamayib boradi. Blokka birlashtirilgan va qo'shma tarzda qurilgan mebel interyerining organik qismiga aylanib boradi.

Rejaviy yechimlar va interyerli muhitning iqlimiy sharoitga moslashganligi (38-rasm). Iqlimiy va tabiiy sharoitlar, landshaft, shuningdek, shaharsozlik konsepsiyasi ham ichki kenglik alohida tomonlarining shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, ba'zan esa ular hamma talablar ichida hal qiluvchi talabga aylanadi. Qurilish joyining mavjud sharoitlari interyer shakllanishining aniqlovchi asoslaridan biri sifatida ko'rib chiqilishi lozim. Iqlim qator vaziyatlarda interyerining shakllanishida hal qiluvchi faktor bo'ladi. Ayniqsa, chekka shimol va janubda u katta ahamiyat kasb etadi, chunki bu hududlardagi optimal sharoitlarni ta'minlaydigan sun'iy mikroiqlim yaratiladigan




38-rasm. Qurilish – iqlim hududlarining xaritasi.

qulay sharoitlardan keskin farq qiladi. Chekka shimoliy rayonlarda doimiy muzlik bo'lib, Norilsk, Yakutsk va boshqa joylarda harorat -60°C gacha yetadi, shamol tezligi (kuchi) 5 m/sek va undan yuqori bo'ladi. Shuning uchun yashash komplekslarning maksimal kompaktli bo'lishi, jamoat binolarining yashash joylariga yaqinlashtirilishi, yaqin ko'rinishi ularni bir hajmga birlashtirish orqali bitta yopilma ostida tashkil etish yoki hech bo'lmaganda galereyalar bo'yicha jamoat binolariga yetib borishini ta'minlash talab etiladi. Bu galereyalar odamlarning -50 va -60°C sovuqda ko'chaga chiqmasliklarining oldini oladi. Arxitektorlar oldida qutb orti sharoitlarida interyerni yaratishdek yangi qiziqarli masala turibdi va bu masala o'z yechimini kutmoqda. 39-rasmda o'zbek arxitektorlari tomonidan ishlab chiqilgan Leprindo posyolkasidan jamoat markazining loyihasi misolida chekka shimolning qator iqlimiy talablarini bajarishga qaratilgan birinchi urinishlar ko'rsatilgan. Do'konlar, oshxonalar, kinoteatrlar, klublar, bolalar bog'chalari va hatto maktablar kabi turli jamoat binolari bitta hajmga birlashtirilishining maqsadga muvofiqligi integratsiyalashgan jamoat fazosining hosil bo'lishini oldindan aniqlab beradi. Shu tariqa o'ziga xos interyer hosil qilinadi, interyer vertikal va gorizantal bo'yicha birlashtirilgan katta kenglikni yaratishga doir bo'lgan jiddiy kompozitsion masalani o'zida namoyon etadi. Bu yerda ichki fazoviy kenglikning tashqi muhit bilan aloqasi ham unchalik kam bo'lmagan muhimlikka ega, chunki sutkaning yarmini ayozli shimol oqshomi tashkil etadi. Yopiq kenglikdan qo'rqish (klaustrofobiya) shimol aholisida uchraydigan og'ir kasalliklardan biridir. Zamonaviy interyerda

majburiy «yopiqlikni» bartaraf etish zarur. Inson uchun birinchi bo'lgan kunning sutkali tartibining buzilishi va oqshomning tabiiy biologik tartiblarni sindirishi tonus va ishlash qobiliyatini sezilarli darajada pasaytiradi, inson ruhiyatiga yomon ta'sir ko'rsatadi.



Bu shimolning insonga ko'rsatadigan boshqa bir salbiy ta'siridir. Uni inson hayotidan olib tashlashni faqat qandaydir darajasida interyerida sun'iy ravishda sutkali tartibning yorug'lik dinamikasi yo'li orqali amalga oshirish mumkin. Buning uchun qutbiy oqshom paytida rostlanadigan yoritish qurilmalari ham va qutbiy kun



39-rasm. Baykal—Amur magistrali rayoni, Leprindo aholi yashash punktidagi jamoat markazi binosi (binoning umumiy ko'rinishi va 1, 2, 3-qavatlar rejasi). Rejada do'konlar, bolalar bog'chasi, boshlang'ich maktab, madaniyat markazi, sport markazi, restoran, kafeteriy, sartaroshlik zalining rejaları ko'rsatilgan.

Yopiq kompozitsiya.

paytida rostlanadigan yorug'lik o'tkazuvchanlikni yaratish talab etiladi. Bu masala o'zining nafaqat texnik, balki badiiy yechimini ham topmog'i lozim. Uzoq qish oylari mobaynida qor ostida yashirilib yotgan bir zumlik shimol o'simliklari insonga o'rta kenglikdagi va janubdagi tabiatdek ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Shu bilan bog'liq bo'lgan yana bir jiddiy masala yuzaga keladi. Bu masala interyerda sun'iy landshaftni yaratish tabiat burchaklarini hosil qilish bilan o'z yechimiga ega bo'ladi. Janub sharoitlaridagi qurilish ham o'z talablaridan xoli emas. Bu talablar ichida to'g'ridan to'g'ri tushadigan quyosh nurlaridan va radiatsiyadan himoyalaniş eng muhimlaridir. Shuningdek, haroratni pasaytirish maqsadida shamollatishning zarurligi ham juda dolzarbdir (40-rasm). Bu talablarning hammasini qondirish va masalalarni yechish bo'yicha



40-rasm. To'g'ridan to'g'ri
shamollatishga misol.

shimol qurilishiga nisbatan ahamiyatga molik tarzda janubda amaliy ishlar olib borilyapti. Interier qiyofasini shakllantiradigan, uning yetarli darajada yorug' va yorqin bo'lishini hamda ko'rkamligini ta'minlaydigan, yaxshi ishlab chiqilgan jalyuzalar va maxsus quyoshdan himoyalaydigan panjaralar mavjud (41-rasm). Janubda ichki kenglikni tashkil etishning an'anaviy usullaridan biri o'z atrofida alohida xonalarni tashkil etuvchi hovli bo'lib, u shamollatish va quyoshdan yaxshi himoyalanihga yaxshi sharoit yaratadi (42-rasm).


Hozirgi zamon arxitektorlari bu muammolarning o'ziga xos yechimlarini topayaptilar. Masalan, ichki bo'shliqni to'g'ri tushadigan quyosh nurlaridan va

yuqori haroratdan to'liq himoyalash mumkin va shamollatish uchun maxsus qurilmalar, yoritish uchun esa quyosh nurlarini maxsus qaytargichlar qo'llanilmoqda (43-rasm).



41-rasm. Quyoshdan himoyalovchi qurilmalarga misollar: A – Kagaydagi profektura. Tokio (Yaponiya); B – Oliy sud binosi. Chandigarx (Hindiston).

Insonning tabiatga yaqinlashishi, uning atrofidagi yirik olam bilan ko'p qirrali aloqalari eng yoqimli hayotiy sharoitlarni va holatlarni yaratyapti. Binolar interyerida tabiiy elementlardan foydalanish




42-rasm. O'zbekiston xalq turar-joyi hovlisining yopiq fazoviy kengligiga misol (prof. D. A. Nazilov chizgan rasm. TaSI).

inter'yerni ko'rkamlashtirish, go'zallashtirishning eng kuchli vositalaridan biridir. Uzoq moviy osmon, toshqin daryo sohillari, jo'sh urib turgan anhorlar va ularning qirg'oqlari, yashil o'tloqlar, adirlar, salobatli tog'lar va o'simliklar, gullarga burkangan tog' yon bag'irlari, deraza oldida


gullab turgan daraxt va shu kabi jonli vositalarning ichkariga kirib borishi — tabiatning bunday yaqinlashuvi insonga ma'lum ijobiy hissiyotni tuhfa etadi, kayfiyatini va ruhiyatini ko'taradi (44-rasm). U yoki bu xonaning ajoyib ko'rkamlilik va go'zallikka ega bo'lgan landshaftga orientatsiya qilinishi arxitekturaning takrorlanmas sifatini yaratadi. Bunday sifatga boshqa vositalar bilan erishishning aslo iloji yo'q. Balki xoll, vestibul, oshxona, kafe, choyxona kabi umumiy xonalarni maksimal holatda tabiatga qaratib ochish maqsadga muvofiqdir. Binolarning uxlash xonalarida xolislikni ta'minlamoq lozim. Ular yopiq holatda bo'ladi, lekin xohishga ko'ra ularni tabiatga, tashqi muhitga qaratib ochish mumkin. Kinozal kabi jamoat joylarida tabiiy muhit bilan bog'lanish, ya'ni ularning tabiatga qarata ochiq holatda bo'lishi talab etilmaydi, chunki bu funksional jihatdan ziddiyatli holatdir.

Ichki bo'shliqning tabiat bilan aloqasida ikkita kompozitsion usul mavjud: birinchisi — gullar va daraxtlar, suv, hovlilardek tashqi kenglik




43-rasm. Bino ichidagi yopiq fazoviy kenglik (Mali Respublikasi, Bomako internati).

kompozitsiyasiga to'liq kirib bormaydigan to'liq ishlov berilmagan materiallar, ya'ni tabiat interyerga kirib boradi (45-rasm); ikkinchi usul — ichki bo'shliqning o'zining perimetri murakkabligi, hajmi kabi qismlarining keng ochilishi bilan tashqi olamga chiqib boradi va u tabiat bilan yagona bir butunlikni hosil qiladi (46-rasm).



44-rasm. Xonani shahar landshaftiga qaratib ochishga misol.

Ichki bushlikdagi tabiiy elementlar turli-tuman bo'lib, ularga binoning yer ustida maxsus ajratilgan qismlardagi gorizontall gullar, tuvaklarga ekilgan o'simliklarning guruhlari, devorga osilgan holda o'ralib, tarmoqlanadigan o'tlar va nihoyat, bino qurilguncha mavjud bo'lgan




45-rasm. Ichki fazoviy kenglikning tabiatni qamrab olishiga misol. Ashxaboddagi kutubxona (Turkmaniston Respublikasi).

butun daraxtlar arxitektorlar tomonidan qoldirilib, xonadan tom-dagi maxsus qoldirilgan teshiklar orqali tashqariga chiqariladi. Suv interyerdagi ikkinchi o'rinda turadigan muhim tabiiy komponentdir. Ayniqsa, u janubda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu hududda suv insonga me'yor darajasida yetishmaydigan salqinlikni tuhfa etadi, ya'ni issiq

iqlim sharoitlarida insonlarning salqin muhitga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlaydi. Yassi chuqur bo'lmagan suv havzalari, tabiiy toshlardan terilgan tubga ega bo'lgan katta bo'lmagan favvoralar va hatto kaskadlarning sochilishi — bularning hammasi mumkin bo'lgan va samarador shakllarda tabiatning interyerga kiritilishini tashkil etadi.

Tabiiy materiallar o'zining ishlov berilmagan holatida murakkab boy qiyofani yaratadi — devor o'rniqa qirrali toshlar cho'kkan, polga oyoq




46-rasm. O. Nemeyning Kanoadagi uyi. Rio-da-Janeyra. Umumiy ko'rinish. Ichki fazoviy kenglikning tashqi olamga u bilan yagona butunlikni hosil qilgan holda chiqishi.

ostiga shag'al yoki qumning yotqizilishi; somonli va qamishli to'shalmalar va to'siqlar — bularning barchasi yupqa alyumin ramali shaffof oynali vitrajlar kontrastligida insonni tabiatning iliq nafasini yanada yaqinroq his etishga undaydi va uni deraza orqali kuzata turib, tabiatni o'zining oldida turganday his qiladi va go'yoki o'zini tabiat qo'yniga kirganday sezadi.

Tabiatni bino ichiga olib kirishning kompozitsion vositasi bo'lgan ichki hovli va tashqi kenglikni birlashtiradi. Bunda hovli proporsiyasi va uning yaxshi o'simliklar bilan to'ldirilganligi muhim ahamiyatga ega. Moskvadagi «Юность» («Yoshlik») mehmonxonasini bunga yorqin misol tariqasida keltirish mumkin. Bu yerda hovli katta shaharni qurshab olgan peyzaj bilan kontrastlashib, binoning ichki kengligini tabiat bilan to'ldiradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, boshqa kompozitsion usulda interyer go'yoki tashqariga chiqadi va organik tarzda tabiatga qaratib qo'shilgan holda uning tashqi muhitga ulanib ketishi talab qilinadi. Katta vitrajlar, yer ustki qismigacha bo'lgan lentali derazalar tabiatning keng tahlilini ta'minlaydi, bunday yo'l tutish yetarlicha tasvir ochilishini amalga oshirish imkonini beradi. Bino oldidagi derazalarni interyerdan tashqi tabiiy muhitga chiqish joyi



47-rasm. Bino oldidagi ayvonlar interyerning tabiiy rivojlanishi hisoblanib, tashqi va ichki birligini ifoda etadi.

deb hisoblash mumkin. Deraza osti taxtasining bo'lmashligi, yer ustining umumiy sathi, uning rasmlari va materiallari va nihoyat, ichki kenglikning konfiguratsiyasi va derazalar tashqi va ichki kenglikning yakdilligini yuzaga chiqaradi. Ayvonlar va soyabonlar ichki kenglik yopilmasining tabiiy davomi sifatida tashqariga chiqish joyi bo'lib, ichki va tashqi tabiiy muhitni bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi (*47-rasm*). Umumiy shift va yoritishning sun'iy usuli zaruriy yagona kenglikni yaratadi. Interyerga tashqi kenglikning ichki kenglikka bevosita tutashadigan qandaydir bir qismini birliktirish, uning yashil o'simliklar, turli-tuman shakldagi butalar, past balandlikdagi tosh devorlar, haykal buyumlari qatori kabi tabiiy to'siqlar bilan bilan bog'lashning yuqorida ko'rib o'tilgan kompozitsion usullaridan hech biri yirik jamoat binosining butun interyerini to'liq ifoda eta olmaydi. Interyerning barcha jihatlarini birlashtiradigan yagona ijodiy g'oyaning zarurligi sezilmoqda. Agar arxitektor o'zining oldiga interyerga tabiiylikni singdirish masalasini yechishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, u holda u bu masalani vaqt o'tishi bilan asta-sekin rivojlanadigan badiiy mavzu sifatida ochib berishi lozim bo'ladi.

2-qism. Interyerning rangli alohida jihatlar

Bino interyerida rang katta rol o'ynaydi. Tegishli rang koloristikasi yordamida insonning kayfiyatini va ruhiy holatini o'zgartirish va ma'lum bir me'yorga rostdash mumkin: uning emotsional tonusini ko'tarish, organizmning fizik ortiqcha singdiruvchanligini pasaytirish, quvonch va xushkayfiyatni hosil qilish, bayramona ruhiyat, ishbilarmonlik, xotirjamlik va hushyorlik, hozirjavoblik, ish qobiliyatini ko'tarish va h.k. Bundan tashqari rangli effektlar bilan ma'lum darajada tashqi muhitning miqroiqlimga ko'rsatadigan noxush ta'sirini qisman bartaraf qilish mumkin, kenglikda ma'lumotlik orientatsiyani, xonalarning sanitar-gigiyenik holatini yaxshilashga shart-sharoit yaratishi mumkin. Rang yordamida xonaning harorat — namlik rejimini rostdash va shovqinni bartaraf etish ham mumkin. Issiqlikning ortiqchaligini va yetishmasligini bartaraf qilish to'g'ridan to'g'ri sovuq yoki iliq ranglarga bog'liq. Xuddi shu yerdan yorug'likning tushish tomonlari bo'yicha yo'naltirishiga bog'liq ravishda xonalar devorlarining bo'yalishiga tavsiyalar berish mumkin. Janubga qaratilgan xonalarda sovuq tonlar issiqlik nurlarini yaxshi yutadi, yorug'likning yorqinligini pasaytiradi, quyosh yorug'ligining «jazirama» psixologik ta'sirini bartaraf etadi.

Funksional jarayonlar va insonning emotsional-ruhiy holati uchun qulay tartibni shakllantirishda rang ancha katta rol o'ynaydi. Insonning emotsional-ruhiy holati binoning vazifasini va unda o'tkaziladigan maishiy yoki mehnat jarayonlarini hamda qurilishning aniq regionlari tabiiy iqlim sharoitlarining jihatlarini hisobga olgan holda rangli gammaning garmonik uyg'unlashuvini tanlashga e'tibor bilan yondashishni talab etadi. Rangli tavsiflarni fazoviy kenglik nuqtayi nazaridan his qilishning spetsifikasi fazoviy shaklni qabul qilish jarayonining alohida jihatlarini bilan aniqlanadi. Qabul qilishning o'zi ilgariylanma harakatda — bitta kenglikdan boshqasiga o'tishda va ponoramali ko'rinishda — faqat bitta kenglikni ko'rsatish bilan havola etish orqali ro'y beradi. Ilgariylanma harakatda rangli taassurotlarning navbatma-navbat almashinuvi fazoviy vaqtli munosabatda sodir bo'ladi. Shunday tarzda hosil qilinadigan «rangli uyg'unlashish» qandaydir vaqt davomida oldingi fazoviy kenglik rangining obrazini xotirada saqlash imkoniyati bilan ifodalanadi. Oddiy ranglar aralashgan yoki ularning nyuansli nisbatlariga qaraganda ancha yengil saqlab qolinadi. Ma'lumki, ramziy ranglarning oddiyligida ularning yaxshi yodda qolish omillari namoyon bo'ladi.

Real muhitda yoritish manbalaridan tarqalayotgan yorug'lik nurlari, tabiat va sun'iy yorug'likning almashinuvida, interyer rejaları orasidagi faktli distansiyaning ta'sirida rangli tonlarning o'zgarishi ro'y beradi. Biroq olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar va hayotiy tajribalardan kelib chiqqan holda shuni aytish kerakki, ko'z orqali ko'rishning asosiy xususiyati yorug'likda korrektirovkali tuzatishlarni bajarish, soyalarga va reflekslarga tushadigan yorug'lik manbalarining spektrial xarakteristikalariga bog'liq bo'lmagan holda mustaqil ravishda umuman rang to'g'ri qabul qilinadi. Bundan kelib chiqadiki, fazoviy shaklning notekis yoritilishida ko'rish orqali qabul qilinadigan tekisliklar va jihozlarning rangi umuman olganda doimiy, ya'ni o'z rangida qoladi.

Inson o'zining go'zallikka intilishida ishlab chiqarish va estetik ehtiyojlardan kelib chiqqan holda interyerli rangli gammani ongli ravishda tanlay oladi. Rangga nisbatan qabul qilishdagi emotsionallik insonda rangning assotsiativ ta'siri orqali namoyon bo'ladi. O'zining xarakteri ranglari bilan ma'lum voqelik va predmetlarning aloqadorligi rang — ramzni qabul qilishida hosil bo'ladigan inson ongidagi ma'lum bir sezgi orqali his qilishida transformirovkalanadi. Quyosh, olov — sariq va qizil ranglarda bo'lganligi tufayli ular iliqlikni his qilishni hosil qiladi, shuning uchun ham «issiqlik» sifatida qabul qilinadi. Shu asosda quyidagi

assotsiatsiyalar hosil qilindi: quvonchli — g'amgin, yengil — og'ir, jarangdor — jimlik, dinamiklik — statiklik va shu kabilar. Bularning barchasiga shuni qo'shimcha qilish kerakki, shartli ravishda belgilangan ranglarning xossaligidan «sovuqlik» va «issiqlik» eng ustuvor deb sanaladi.

Rangning maqsadli yo'nalishda qo'llanilishi uchun yoki rangdan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish uchun rang va insonning psixologik reaksiyasi orasidagi ustuvor bog'liqlikni bilish zarur. Bu aspektda rangli tonning mos tushishi, ranglarning obrazli assotsiativligi bo'yicha, rang uyg'unlashishning garmonikligi bo'yicha qator qonuniyatlar o'rnatilgan. Ma'lum ranglarga bo'lgan moyillik munosabati turli yoshli guruhlarda sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Umumiy ko'rinishda bolalarga yorqin ko'rinadigan issiq ranglar (toza rang); kattalar uchun — sovuq ranglar, o'rtacha yorqinlikda va ancha aralashgan; keksa yoshdagilar uchun esa pastelli tonlardagi axromatik ranglar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Insonda tug'ma ravishda paydo bo'ladigan hissiy qabul qiluvchanlik unda rangli uyg'unlashuvning his qilinishini yuzaga keltiradi. Bu aspekt interyerning estetik tashkil etilishida bir qancha qandaydir tushuntirishlarni talab etadi. Bunga oddiy misol:

Qizil va ko'k ranglar bir-biriga uyg'unlashgan deb sanaladi, ayniqsa, ular oq ranglar bilan bir-biridan ajratilgan bo'lsa, bu yanada yaqqolroq his qilinadi. Lekin biz xuddi shunday retseptda xona shiftini qizil rang, devorlarini oq rang va polini ko'k rangda bo'yasak, u holda rangli gamma bo'yicha ushbu xona yuqori darajadagi nogormoniklikka ega bo'lgan bo'lar edi. Bu misol ko'z bilan qabul qilishda shundan guvohlik beradiki, ma'lum ranglar qandaydir boshqa ranglar bilan faqat mutlaqo konkret sharoitlardagina uyg'unlashadi va bu holat shuni yaqqol aniqlab beradiki, rangli uyg'unlashuvlar garmoniyasi hech bir qoidalar bilan rejalashtirilishi mumkin emas va sirt yuzasidagi har qanday rangli konstruksiya mexanik tarzda, tegishli o'zgarishsiz fazoviy kenglikka ko'chirilishi mumkin emas. Shunday qilib, yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqadiki, odamlar qanday garmonik uyg'unlashuvlarga o'zlarining moyilliklarini bildirmasin, ranglarning bunday uyg'unlashuvi ularda qoniqarsiz holatni yuzaga chiqarishi mumkin. Konkret holatlarda qo'llanishga bog'liq ravishda rangli bezatishga noto'g'ri yondashilganda bu uyg'unlashish yengil buzilishi mumkin. Biroq insonning hissiy va ruhiy holatiga ta'sir qilishi nuqtayi nazardan bu yerda faqatgina ranglarning juftli uyg'unlashish xossalaring obyektiv qonuniyatlarga e'tiborni aksentlash mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

sariq — qizil: nur bag'ishlaydi, quvonchli ilqlikni yuzaga keltiradi; oltin rang — qizil: hashamatlilik, ilqlik baxshida etadi; qovoqrang — qizil: tez his qiluvchanlik; sariq — to'q qizil: qandaydir dissonans, yoqimsiz eshituvchanlik, harakatchanlik; oltin rang — to'q qizil: quvvat, munosiblik, bayramonalik; qizil — to'q qizil: dissonans bayramonalik; sariq — yashil barg rangi: quvnoqlik, shodlik; sariq — olivkovoy: xotirjam harakatlanuvchanlik; sariq — qovoqrang — yashil barg rangi: elituvchi ilqlik; qovoqrang — qizil — yashil: impulsivlik; qovoqrang — siyoh rang: mast bo'lish, rom bo'lish qizil — ultramarinovoy: keskin kuch-quvvat; qovoqrang ultramarinovoy: e'tirozlilik, keskinlik; ko'k — pushti: uyaluvchanlik, tortinuvchanlik; pastelno — yashil — qizil: ishonchsizlik; yashil — ko'k: bir jinslilik, bir xillik, passivlik, noaniqlik; yashil — zaiflik, noziklik, mayinlik; sariq — yashil — qizg'ish — kulrang: yengil, bog'liqlik; qaymoq rang — qizil: ikkilanish; qaymoq rang — yashil barg rangi: tabiatga moyillik; qo'ng'ir — yashil: yerga bog'lanuvchanlik; to'q qo'ng'ir — ko'k: qat'iylik; to'q qo'ng'ir — sarg'ish: bikrlilik, qat'iylik; yashil — kulrang: tushkin holat, xursandchilik; ko'k — kulrang: yakkalik, sovuqqonlik; qizil — qora: hayotiylikning pasayishi, xavf — xatarlik; sariq — qora: uzilish, nur taratuvchanlikning pasayishi, e'tiborning jamlanishi; ko'k — qora: ko'zning uzoqlashganligini belgilaydi, oqshom; sariq — oq: ravshanlik, yorug'lashuvchanlik; qizil — oq: qizil yorqinlashishining zaiflashishi; ko'k — oq: tozalik, sovuqlik, soflik; yashil — oq: yashil rangning kuchayishi, tozalik, soflik; pushti rang — oq: zaiflik, oqaruvchanlik.

Xonalarning interyerini bezashda ranglar jilosidan to'g'ri foydalanish uchun ranglar, ularning uyg'unlashuvi va xossalarni sistematzatsiyalashda egallaydigan o'rinlarning bir qancha qonunlarini o'zlashtirish lozim bo'ladi. Amaliyotda narsaning ranglarga bo'linishi quyidagicha baholanadi:

Asosiy ranglar — sariq, ko'k, qizil — bu ranglardan boshqa barcha ranglarni hosil qilish mumkin. Bu uchta asosiy ranglarni ma'lum nisbatlarda aralashtirish orqali juda ko'plab boshqa ranglarni hosil qilish mumkin (och ranglilik, kulrang va h.k.)

Birinchi darajali tarkibiy ranglar — ikki asosiy rangning aralashtirilishi orqali olinadigan ranglar. Masalan, qovoq rang — bu rang sariq va qizil ranglarning aralashtirilishidan hosil qilinadi; siyoh rang — qizil va ko'k ranglarni aralashtirib olinadi.

Ikkinchi darajali tarkibiy ranglar — birinchi darajali tarkibiy ranglarni aralashtirishdan hosil qilinadigan ranglar. Masalan, qizil —

o'ta to'q rang — qovoq rang va siyoh ranglarni aralashtirish yo'li bilan olinadi; kulrang — ko'k rangli fon rangni yashil rangga aralashtirish orqali hosil qilinadi; sarg'ish rang esa yashil rangni qovoqi sariq rangga aralashtirish yo'li orqali olinadi va h.k. Ranglarning qo'shilish qonuniyatlarini yanada mukammalroq qilib Gyotening ranglar doirasida ko'rish mumkin (*48-rasm*).

«Tabiiy ranglar doirasi» teng tomonli uchburchaklarning uchlaridan o'tgan aylana yoki doira asosida quriladi. Uchburchakning uchlarida asosiy ranglar — sariq, qizil, ko'k ranglar yotadi. Bu uchburchak uchlari yotadigan aylanaga xuddi shunday yana bitta teng tomonli uchburchak ichkariga chiziladi. Ikkinchi uchburchak uchlarida birinchi darajali tarkibiy ranglar joylashadi. Bu ikkala uchburchak birgalikda aylanaga ichki chizilgan olti burchakni hosil qiladi. Doiradagi qarama-qarshi nuqtalarda yotgan ikkita rangdan bittasi — asosiy, ikkinchisi birinchi darajali tarkibiy rangni ifodalaydi. Bu ikkinchi ranglarni biz ***qarama-qarshi ranglar*** yoki ***qo'shimcha ranglar*** deb ataymiz. Qarama-qarshi rangli juftliklarning ham rangli doirasi mavjud.



Ranglarning transformatsiyalanishida ularga bir muddat ko'z uzmay ma'lum vaqt oralig'ida tikilib turish orqali qarama-qarshi ranglar hosil bo'lishining qonuniyatini aniqlash va bunga amalda ishonch hosil qilish mumkin. Agar yarim minut davomida oq qog'ozda qovoq rang — qizil rangga ko'z uzmasdan tikilsa, uning atrofida och ko'k — yashil orol hosil bo'lishiga ishonch hosil qilish mumkin (*49-rasm*). Agar sof qizil doiraga xuddi shunday tarzda nazar tashlansa, uning atrofidagi orol deyarli yashil rangda bo'ladi. Aksincha, yashil uchburchakka xuddi hozirgidek nazar tashlansa, oq yuzada qizil shaftoli rangi hosil bo'ladi. Shunday qilib, qarama-qarshi ranglar hosil bo'lish tartibi bizning ko'zimizda ham paydo bo'ladi, ya'ni ular ko'rib chiqilayotgan ranglar tonlari aralashishidan yuzaga keladi. Agar ko'zga faqat ko'k rang ta'sir ko'rsatsa, u holda bu rangni ko'rish orqali qabul qilish qobiliyati qandaydir kamaya boradi, faqat qizil va sariq ranglar qabul qilina boshlaydi. Shuning uchun ko'k rangning qizil — sariq nusxasi hosil bo'ladi. Shunga o'xshash tarzda qora rangning ko'zga ta'sir ko'rsatishida ko'zlarda oq qoldiq tasvir — nusxa his qilinadi. Shu tariqa bu yerda har qanday rangga davomli ravishda qandaydir vaqt oralig'ida tinimsiz qaralganda, ko'zimizga ularning qarama-qarshi nusxalari paydo bo'lib ko'rinadi.

Qizil fonda joylashgan neytral kulrang neytral bo'lib emas, balki yashilroq bo'lib hosil qilinadi (*50-rasm*). Ko'k fondagi kulrang qovoqrang

tuslsli kulrang sifatida qabul qilinadi, yashil fondagi kul rang esa — qizg'ish ottenkali kulrang bo'lib qabul qilinadi. Shunday qilib, ranglar bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikka egadir.

Bu yerda bir vaqtdagi kontrastlik haqida so'z yuritilyapti. Birinchi holatda ketma-ketlikdagi kontrastlik haqida fikr yuritilgan edi. Ma'lumki, har bir rangga inson o'zining ichki hissiyotidan kelib chiqqan holda yondashadi. Shu asosda yoqimli ranglar shkalasini tuzish mumkin, lekin bu shkalada bitta yoki ikkita rang yetakchilik qilishi mumkin. Xuddi shu ranglar **moyillik uyg'otuvchi ranglar** deb hisoblanadi. Tovush va predmetlarni emotsional va ko'rish orqali qabul qilishda ranglarning illyuziyali ta'siri effektlari mutlaqo ko'p obrazlidir. Shovqinda ko'rish retseptorlarining funksiyasi kuchayadi, bunda yashil rangning qabul qilinishi ham kuchayadi.

Yashil rangni kuchaytirilgan qabul qilish esa ma'lum darajada shovqinni berkitadi. Yengil tovushli joylarni eshitayotgan paytda qaralayotgan qovoq rang jimlikdagiga qaraganda ancha ochroq rangda va sariqroq rangda ko'rinadi. Bunga eshitalayotgan tovush to'xtatilgandan keyin rang takroran ko'rilganda ishon hosil qilish mumkin. Qo'pol tovushlarda qizil rang to'qroq bo'lib ko'ringandek bo'ladi, yashil rang esa ko'k — yashil rangga aylangandek tuyuladi va h.k. Sariq rangga bo'yalgan yashiklar, to'q-ko'k rang yoki qora rangga bo'yalgan yashiklarga qaraganda yengilroqdek tuyuladi (51-rasm). Yorug' va to'q to'nlarning ko'rish orqali



51-rasm. Faktura tonining vaznli sifati.

qabul qilishga ko'rsatadigan ta'siri ularning yuqori yoki pastki holatlariga bog'liq ravishda turlicha bo'ladi. Tabiatning o'zi bizga shuni o'rgatadiki, uni kuzatganda to'q ranglar doimo pastda, yorug' ranglar esa yuqorida joylashishiga ishonch hosil qilinadi.

Agar bu tabiiy tartibni o'zgartirsak, u holda yer rangidagi qo'ng'ir shift og'ir tom kabi qabul qilinadi (52-rasm). To'q rangda intensiv bo'yalgan shift och rangdagiga nisbatan pastroqdek qabul qilinadi, aksincha, shiftning yorug'roq rangga yoki ochroq rangga bo'yalishiga to'q rangli devorlar qurshovida uni shifti balandroq va yengilroq ko'rsatadi. To'q rangli shiftni, masalan, ayniqsa, ko'k rangli shiftni kuchli yoritishga to'g'ri keladi.

Xuddi shunga o'xshash shift och sariqqa bo'yalganda kam (kuchsiz) yoritish uni balandga «ko'taradi». Amaliyot shuni isbotladiki, interyer rangli yechimining o'zaro uyg'unligi ko'p tomonlama moslashgan va u faqat ranglarning uyg'unlashishi bo'yicha o'rnatilgan qonuniyatlar asosida topilishi mumkin emas. Bundan bu qonuniyatlarga asoslangan tavsiyalar amaliy jihatdan foydasiz, degan tushuncha kelib chiqmaydi. Bu qonuniyatlarni bilish izlanishlarni yengillashtiradi, ularning yo'nalishini aniqlab beradi hamda aksariyat hollarda ular bajaruvchilarning o'ta shaxsiy ijodiy sifatlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi. Quyida keltirilgan misollarda turli vazifalarni bajarishga mo'ljallangan xonalarning rangli uyg'unlashishi va shu bilan birgalikda monumental san'at turlarining fonlar bilan rangli uyg'unlashishiga misollar keltiriladi (*53, 54-rasmlar*).

Shunday qilib, yuqorida ta'kidlanganlar ranglar imkoniyatining beqiyosligi haqida guvohlik beradi, lekin raqamlarning qo'llanilishi qadimiy an'analarga ega bo'lishiga qaramasdan hanuz arxitekturada ham yetarli darajada to'liq tatbiq etilmagan. Shunday fikrlar mavjudki, ularga ko'ra rang shaklning ajralmas qismi hisoblanadi va arxitekturaviy asarlar orqali yaratiladigan taassurotlarni belgilaydigan shart-sharoitlarning bosh nyuanslaridan biridir. Bu fikrlarning to'g'riligi ranglarning ahamiyatini, ayniqsa, arxitektura asarlarini shakllantirishda doimo hisobga olish zarurligini yana bir bor uqtiradi.

Bizning davrimizda ranglar yashash muhitini yaxshilashni, tashqi kengliklarni estetik tashkil etishning va ayniqsa, interyerni bezatishning faol vositasiga aylanib boryapti. Ammo ranglarning qo'llanilishi bizga ma'lum bo'lgan va tan olingan chegaralarga ega.

Turar-joy va jamoat binolarining hamma xonalari va alohida joylari ularning funksional mo'ljallanishiga bog'liq bo'lmagan holda tabiiy va sun'iy ravishda yoritiladi. Sun'iy ravishda hosil qilinadigan yorug'lik tabiiy yorug'likning yetarli darajada bo'lmagan yoki umuman bo'lmagan holatlarda inson hayoti va faoliyati uchun qulay sharoitlarni yaratishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ba'zi vaziyatlarda manbalarni qo'llash yorug'lik sun'iy faqat tabiiy yorug'likdan foydalanish yo'li bilan amalda yechib bo'lmaydigan masalalarni yechish imkonini beradi.

Yorug'likning sun'iy manbalari — chiroqlar, lampalar ta'sir ko'rsatish nuqtayi nazaridan (galogen, gaz razryadli, lyuminessentli, simobli, toblantirilgan va h.k.), o'lchamlari, shakli, yorug'ligi, taralish spektri, yorug'likni qaytarish va rangli o'zgaruvchanligi bo'yicha har xillikka ega bo'ladi (*55-rasm*). Ishlab chiqarish va jamoat binolarining xona va joylarida lyuminessentli lampalar yorug'likning asosiy manbalari bo'lib xizmat qiladi.




55-rasm. Yorug'lik manbalarining turlari: 1 - qizdiriladigan chiroqlar, 2 - metallogenli chiroqlar, 3 - lyuminissentli chiroqlar.

Ular yorug'lik asboblari yoki «qandil»larga o'rnatiladi. Bu o'rnatishlar yorug'lik manbasini va yoritish armaturasi abajur, tarqatuvchini uyg'unlashtiradi, yoritish armaturasi lampadan taralayotgan yorug'likni qayta taqsimlab, fazoviy kenglikka uzatadi, uning xossalarini qayta hosil qiladi (56-rasm). Yoritgichlar bitta sistema yoritish o'rnatmasiga to'planadi. Yoritish o'rnatmalarini loyihalashtirishda ko'rish katta ahamiyatga ega ishlarining

shart-sharoitga moslashgan va kenglikni ko'rish orqali qabul qilishning alohida jihatlari bilan aniqlanadi.

Yoritish masalalarining yoritish elementlari uchta tipga bo'linadi — **nuqtali, chiziqli va yuzali**. Birinchi turga shunday turlari kiradiki, ulardagi chiroqlar (lampalar, yoritgichlar) mustaqil element sifatida ishlaydi. Masalan, osma chiroqlar, plafonlar, qandillar shunday elementlarga tegishlidir. Ikkinchi tur yorug'lik yo'laklariga ega bo'lgan chiroqlar guruhidan tashkil topadi. Uchinchi turdagi chiroqlarni alohida ajratib bo'lmaydi. Masalan, yorug'lik karnizlari, yoritiluvchi shiftlar va h.k., ya'ni bunda chiroqlar kuza-tuvchining ko'zidan berkitilgan holatda joylashtiriladi.



56-rasm. Chiroqlarning turlari.


Nuqtali chiroqlarga ega bo'lgan yoritish masalalari mustaqil ravishda yoki boshqa turdagi chiroqlar bilan uyg'unlikda qo'llanishi mumkin. Sun'iy yorug'lik manbalari xonalarning ichiga o'rnatiladi va muhitning moddiy elementlari deb hisoblanadi. Sun'iy yorug'lik uchun to'g'ri yorug'likdan foydalanish va uning tekis yuzalar bo'yicha tarqalishining erkin yo'naltirilganligi ustun darajada xarakterlidir (57-rasm).

Sun'iy yoritish o'zining kompozitsion usullariga ega. Bu usullar yorug'lik effektlarining dekorativlik darajasi bilan farqlanadi. Masalan, «bug'lanayotgan» shift effekti yoritilgan va soyaga ega bo'lgan yuzalarning kontrastli taqqoslanishidan hosil bo'ladi. Yoritish manbalari, odatda, tomoshabin ko'zidan yashiriladi, ya'ni yashirin joyga o'rnatiladi. Boshqa usul jihozlash, pardozlash unsurlarni aksentirlash uchun devorda, yer ustki qismida yorug'lik «dog'»-larni hosil qiladi. Uchinchi usul tabiiy yorug'likning mumkin qadar hosil qilish bilan bog'langan.

Interyerdagi yorug'lik fazoviy kenglikning yoritilganligi orqali insonga hissiy ta'sir o'tkazadi.

Tabiiy muhitda yoritilganlik va rangning tabiiy almashinishi qator ustuvor his qiluvchanlikni yaratadi, masalan, quyoshli kundan sergaklik va hushyorlik his qilinadi, qorong'ilikning siriligidan va qo'rqinchiligidan xavotirlanish hissi uyg'onadi. Xonalarda yoritilganlik qulayligini ta'minlashda va ruhiy kuchlanganlikni bartaraf etishda kunduzgi tabiiy yoritish katta rol o'ynaydi. Yorug'lik bilan bog'liq ishlarning kompozitsiyalari kontsentrlashtirilgan yoki tarqatiluvchan yorug'likning yoki ularni kombinatsiyalashning tashkil etilishiga asoslanadi. Bunday vaziyatlarda yorug'lik manbasining fazoviy shaklda joylashishi muhim ahamiyatga ega.

Quyoshdan taralayotgan nurlar yoki osmondan tushadigan yorug'lik, odatda, yorug'lik usulidan tushadi. Ular katta yoki kichik, ko'p yoki



57-rasm. Interyerning yoritilishi: Yorug'lik manbayining holatiga bog'liq ravishda yoritishning xarakteri.

Tabiiy yoritish — (a) markazga yig'ilgan, (b) yo'naltirilgan, (d) og'imli, (e) yon tomondan yoritish, (f) ikki tomonlama yoritish. Sun'iy yoritish — (g) to'g'ridan to'g'ri yoritish, (h) qaytgan nurlar orqali yoritish, (i) «bug'lanayotgan shift», (j) yonib-o'chadigan yoritish.

kam bo'lishi mumkin lekin umuman olganda unsurlarning yaqqol ko'zga tashlanishini ta'minlamog'i zarur. Bunda ulardagi yuzalardan qaytgan yorug'likning ravshanligi yoki xiraligi va ko'rinmasligi bundan mustasno. Tabiiy sharoitlarda fazoviy shakllar tarqalgan yorug'lik bilan ustun darajada yoritiladi, ayniqsa, yopiq bozorlar, do'konlar, ko'rgazma pavilonlar va shunga o'xshash inshootlarda bunday yoritilish katta samara beradi (58-rasm).



58-rasm. Savdo korxonalarini va ko'rgazma pavilonlarini tarqalgan tabiiy yorug'lik orqali yoritish.

Yorug'lik harakati fizik qonunlarga bo'ysunadi: yoritilganlik yorug'likning kuchiga, manbaning joylashish masofasiga va yorug'lik nurlarining tushish burchagiga bog'liq. Ko'z orqali bu yoritilganlik yorug'lik tufayli hosil bo'ladigan soyalarning quyuqligi va ularning namoyon bo'lish xarakteri ko'rinishida qabul qilinadi. Kichik oraliqqa ega bo'lgan xonalarda tarqatilgan aks yorug'likning ulushi o'sadi, yorug' joylardan boshlab qorong'iroq joylarda ham yoritilganlikning katta chegarasi hosil bo'ladi. Ko'p reflekslarga ega bo'lgan qaytgan yorug'lik muhitning odatga xos emasligining his qilinishini yuzaga keltiradi. Savdo muassasalarining oynali ravoqlar orqali yoritilganlik darajasi shahar ko'chasi bilan bog'liq muammoni chiqaradi. Yuqoridan to'g'ri yo'naltirilgan yorug'lik yoki yon tomondan qaytgan yorug'lik yuza bo'ylab tarqaladi va uning plastikasini shakllantiradi. Katta usullarda «oquvchan» yorug'lik yuzaga keladi va bu yorug'lik to'siqlarning konturi va silueti bo'ylab geometrik sifatlarning yuzaga chiqishini sharoitga moslaydi. Agar birinchi vaziyatda shakl — gumbaz uchun massa haykalining namoyon bo'lishi xarakterli bo'lsa, ikkinchi vaziyat uchun grafikligi xarakterlidir.


Zamonaviy loyihalash — qurilish amaliyotida tabiiy va sun'iy yorug'lik bilan **qo'shma tarzda** yoritish tizimi rivojlanishi yanada ko'proq bo'lyapti.

Yoritishning bunday tizimining bosh ijobiy sifati shundaki, u xonaning balandligini oshirishi, ko'rish orqali boshqariladigan sharoitning nisbiy doimiyliги interyer arxitekturasining qabul qilinishini ta'minlashi mumkin. Interyerlarning yoritilishini loyihalashda ikkita asosiy masala yechiladi: **funksional masala** — ko'rish bilan bajariladigan, shuningdek, aniq

sharoitlari uchun zarur bo'lgan yorug'likning darajasi va sifatini ta'minlash; **estetik masala** — arxitekturaviy yorug'likning obrazini yoritish, fasadga va interyerga arxitekturaviy go'zallik berish.

Loyihalash paytida, loyiha ustida ishlash jarayonida belgilangan yoritish vositalarining fazoviy kenglik, shakl, plastika va rang bilan o'zaro ta'sirlashuvini oldindan ko'ra bilish masalasi oldinga qo'yiladi. Bino yoritilishining estetikasi quyidagi masalalarning yechilishi bilan hal etiladi: fasad va shift, devorlar, interyer yuzasi va jihozlari o'ylangan obrazga muvofiq elementlar yorqinligini tanlash, taqsimlash va interyerdagi yorug'lik yorqinligining his qilinishini yaratish; diskomfortli yaltiroqlikni bartaraf etish; yorug'likning spektrial tarkibini tanlash. Jamoat binolari ko'plab interyerlarining obrazi arxitektorning katta, yorug'lik bilan yorqinlashgan fazoviy kenglik taassurotini yaratishga, monotonlikning hamda konstruksiya og'irligining his qilinishini bartaraf etishga harakat qilishi bilan tug'iladi (59-rasm).

Bu masala, ayniqsa, yerosti inshootlari (metropolitan bekatlarida, yerosti o'tish yo'llarida va h.k.)da muhim ahamiyat kasb etadi. Toshkent metropolitenidagi bir nechta bekatlar (masalan, «Paxtakor», «Mustaqillik», «Chilonzor» bekatlari)da konstruksiyalar og'irligi va katta yuk ko'tarib turilganligini his qilinishining bartaraf etilishiga ushbu bekatlarda yorug'lik oqimining to'g'ri taqsim-



59-rasm. Ko'p funksiyali foye va zallarning shiftiga ochiq holatda o'rnatilgan shiftni yorituvchi sifatidagi shovqin yutgichlarning chizmasi: 1 — akustik yutuvchi, 2 — oynaband chiroq, 3 — lyumenissent chiroqlar.



60-rasm. Toshkent metrosining «Paxtakor» bekatlari (arx. F. Tursunov, A. Sadikov).



61-rasm. Toshkent metrosining «Chilonzor» bekati
(arx. A. Strelkov, I. Petuxov, V. Kachurines).



62-rasm. Toshkent metrosining «Mustaqillik» bekati
(arx. L. Adamov, A. Adilova, L. Popov, S. Adilov).

lanishini yo'lga qo'yish orqali erishildi (60, 61, 62-rasmlar). Namoyish etish zallari va kartinali galereyalar hamda operatorlik xonalarining yoritilishini loyihalashda ko'rish diskomfortini yaratadigan, ko'riyatgan unsurlarining normal ko'rinishiga xalaqit beradigan har qanday yaltiroqliklar, oynali aks ettirishlar salbiy ahamiyat kasb etishiga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bunday vaziyatlarda xonalarda bir me'yordan yorug'likni yaratish imkonini beradigan keng tarqalgan tizimlarni qo'llash taqozo etiladi.

Zamonaviy bino va inshootlarda ichkariga kiritilgan yorituvchi shiftlar, karnizlar, taxmonlar, panellar keng qo'llanilmoqda va ular interyer arxitekturasining elementlari qatoriga kiritilgan. Keyingi yillarda jamoat binolari interyerlarida yoritiluvchi shiftlar va panellar keng tarqalib bormoqda. Yoritiluvchi shiftlar va panellar, odatda, arxitekturaviy osma konstruksiyalardan tashkil topadi. Ular ustidagi oraliq fazoviy kenglikdan lampalarni montaj qilish uchun foydalanilmoqda. Yoritiluvchi tomonlar shu bilan bir qatorda akustik — shovqin so'ndirish hamda sanitariya — texnik funksiyalarni ham bajarishi mumkin (63-rasm). Ko'p funksiyali shift qurilmasining chizmasi 59-rasmda keltirilgan. Yoritiluvchi shift yaratish uchun kiritilgan holda o'rnatiladigan quvvati 150 Vt bo'lgan lampali nuqtaviy yoritgichlarni qo'llash mumkin. Ularda diffuzor rolini himoya burchagi 30 — 45°C bo'lgan halqali panjara bajaradi. Bunda yorqin yonadigan lampalar nuqtalariga ega bo'lgan to'q rangdagi shiftga erishiladi va u «yulduzli osmon» deb nomlangan.

3-qism. Interyerning anjomli muhiti

Insonning sun'iy muhitidagi hayotiy faoliyat jarayonlari funksional va ruhiy iste'mol uchun zarur bo'lgan ko'p sondagi unsurlar qurshovida o'tadi. Xona fazoviy kengligida taqsimlanadigan va joylashadigan bu unsurlar unsurli muhitni hosil qiladi. Unsurli muhit o'ziga ishlab chiqarish, texnik va informatsion jihozlar hamda mebel va turmushdagi predmetlarni o'z ichiga oladi. Binoda texnik jihozning zaruriy gigiyenik parametrlari — harorat, havo almashinuvi, yorug'likning mavjud bo'lishi muhitning zaruriy gigiyenik parametrlari — harorat, havo almashinuvi, yorug'likning mavjud bo'lishi va zarur bo'lgan me'yorda ushlab turilishi bilan bog'liq. Tegishli o'rnatmalar asosiy xonalarga joylashtirilishi va ular interyerga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mebellarning keng nomenklaturasi unsurli muhitning kompozitsiyasi uchun elementlarning asosiy to'plamini tashkil etadi.


To'suvchi konstruksiyalar tekisligi dekorining qo'shimcha elementlari bo'lib turmushdagi va amaliy san'at unsurlari — idishlar, kartinalar, matolar, skulptura, fotosuratlar va shu kabilar xizmat qilishi mumkin.

Keyingi yillarda jamoat va sanoat xonalarida statsionar va dinamik, tasvirlovchi va ovoqli, tekis yuzali va hajmli turlicha informativ o'rnatmalarining qo'llanilishi keng tarqalib borayapti. Unsurli muhim buyumlariga bo'lgan ehtiyoj mehnat unumdorligining o'sishi va turmushdagi qulaylikning oshishiga bog'liq holda muttasil ravishda kengayib boryapti. Chegaralangan hunarmandchilik mahsulotlari, asosan, sanoatda ishlab chiqariladigan jihozlar, mebellar va madaniy-maishiy unsurlar bilan almashindi. Bu ko'p sonli va ko'p miqdordagi ehtiyojni qondirish imkonini beradi. Sanoatda tayyorlanadigan buyumlarning badiiy sifatini ta'minlash loyihalash jarayoniga dizaynerlarni kiritish orqali ham qilinadi.

Bir tomondan turli buyumlarning ko'p nusxada chiqarilishi, ikkinchi tomondan ularning yakunlangan individual tarzda iste'mol qilinishi orasidagi ziddiyat moda rivojlanishining qonuniyatlari darvozasiga kelib qolgan namunalarning batamom almashinuvini yuzaga keltiradi. Ancha serxarajat, qimmatroq bo'lgan buyumlar, narsalar, masalan, mebellarning foydalanish muddatini uzaytirish vositasi bo'lib, ularning ancha universal shakllarini izlab topishi xizmat qiladi: badiiy belgilar (bezaklar) bilan bog'langan alohida buyumlardan unsurlar to'plamiga o'tish, undan keyin esa alohida elementlar tayyorlashga o'tiladi (*64-rasm*).

Badiiy ijodni o'zida mujassam etgan mustaqil ijodiy faoliyat sifatida jihozning alohida buyum sifatida insonga hissiy ta'sir ko'rsatadigan ma'lum

estetik bahoga ega bo'ladi. Bir qancha buyumlar avtonom holatda, boshqalari atrofidagi moddiy obyektlar bilan har doim o'zaro uyg'unlashgan muhitda namoyon bo'ladi. Jihoz va mebel arxitektura-viy muhit va uning shakl, to'suvchi konstruksiyalari bilan bog'langan. Bu bog'langanlik passiv bo'lishi mumkin. Bunda buyumlarning mavjudligi kompozitsion aspektlarga daxlsiz yoki faol bo'lishi mumkin. Bunda buyum yoki ularning guruhi shakl hosil qiluvchi komponentlar bilan o'zaro ta'sirlashuvga kirishadi.



64-rasm. Seksiyali mebel.

Bu yerda buyum xususiy shaklining (hajmiy yoki tekis) umumiy sifat-lari: o'lchamlari, material, rang, faktura, joylashish o'rni va shu kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Jihozning buyumi interyerni kompozitsion tashkil etish vositalaridan biriga aylanadi.

Buyumli muhit kompozitsion tashkil etilishining interyerda arxitektura-viy elementlar va jihozlarni o'rnatishning o'ziga xos «sintezi» sifatida ko'rib chiqishilishi fazoviy va materialli «munosabat»larning qator usullarning belgilash mumkin. Bosh usullardan biri to'siq bilan fizik bog'langanlik usulidir. Uning mohiyati shundaki, jihoz unsurining ikkita holati mavjud: mobil ko'chuvchan va statsionar — doimiy holatlar. Birinchi vaziyatda buyumlar mustaqil konstruksiyaga ega bo'ladi. Buyumning gabaritlari va massasi alohida bo'lgan fizik kuchlarsiz uning xonadagi holatini o'zgartirish va kompozitsion guruhlashtirish, jihozlar konkret interyerga mo'ljallanadi.

Jihoz garnituri buyumlarini guruhlash kombinatsiya asoslariga asoslanadi va kompozitsiyani o'z ichida yechadi (65-rasm). Statsionar holat jihoz shakli va materiallarining to'suvchi funksiyalar bilan uzluksiz bog'langanligini va jihoz o'rning doimiylikini ifodalaydi. Bu kaminlar, qo'shma tarzda qurilgan shkaflar, dam olish va kutish joylari guruhi va shu kabilar kiradi (66-rasm). Ular uchun jihozning bir vaqtning o'zida to'suvchi konstruksiya va interyerning badiiy g'oyasi bilan organik bog'langanligi xarakterlidir.

A. Jihoz buyumi yoki jihozlar guruhi shakl yoki harakatlanish yo'nalishining geometrik o'qini belgilovchi fazoviy kenglikda aksentli



67-rasm. Baxt uyining
ro'yxatdan o'tkazish stoli.
Skulpturali guruhning
kompozitsion rol bajarishi.



68-rasm. Toshkentdagi «Olmazor» metro bekati.



69-rasm. Savdo zalining fragmenti. Fazoviy yechim
va amaliy bezak san'atining uyg'unlashuviga misol.

obyekt rolini bajarishi mumkin. Nikohdan o'tkazish saroyida ro'yxatga olish stoli tantanavor jarayonning kulminatsiyasiga aylanadi (67-rasm).

B. To'suvchi konstruksiya yoki fazoviy kenglikning ritmik kompozitsiyasiga kiritiladigan oddiy element sifatida rol bajaradi. Toshkent metropolitenining Hamid Olimjon bekatida zal o'qi bo'yicha torsherlar qo'yilgan. Torsherlarning asoslangan ritmi butun uzunlik bo'yicha bekat kengligi rivojlanishining aniq dinamikasini tashkil qiladi.

D. Jihoz buyumlari to'siqlarning ritmik kompozitsiyasiga qo'shilgan holda oddiy element vazifasini bajaradi. Misol uchun, toshkent metrosining «Olmazor» bekatidagi zalning o'qi boylab ikki tomonga joylashgan ustunlar aniq ritmining rivojlanishi perspektivasini hosil qiladi.

E. Jihozlarning devorlar tashkil etilishning asosiy vosita sifatida kiritilishi savdo-sotiq joylari va yashash xonalarida keng tarqalgan. Bu yerda fazoviy mayda plastika va tekis yuzali yechimlar uyg'unlashadi. Dekorativ-amaliy san'at unsurlarining tekis yuzaga taqsimlanishi tekis yuzali yechimga tegishlidir (69-rasm).

XONADONLARNING INTERYERI VA JIHOZLARI

1-qism. Interyerni tashkil etishning funksional-fazoviy asoslari

Yashash uy-joylari shunday joyki, unda qandaydir mehnat bilan shug'ullanish, butun oila istiqomat qiladigan, do'stlar yig'iladigan, qisqa qilib aytganda, shaxsiy gigiyenani tartibga soladigan, ya'ni insonning jismoniy va ruhiy kuchini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarga ega bo'lgan maskandir. Bundan tashqari xonadondan farzandlarni tarbiyalash, taomlar tayyorlash, xonalarning orasta qilinishi bilan bog'liq bo'lgan kundalik turmush jarayonlari bajariladi.

Xonadon shaxsning individual hayot kechirishi va umum oilaviy munosabatlar joyidir. Agar xonadon joyi ushbu asosiy talablarga javob bermasa, u to'laqonli yashash joyi deb hisoblanmaydi. Turmushdagi jarayonlar o'zining xarakteriga ko'ra juda ko'p sonli va turli-tumandir.

Har bir kishining va butun oila manfaatlarining garmonik birligiga erishish uchun individual hamda umum oilaviy ehtiyojlarga mos keladigan fazoviy kenglikning yaratilishi ko'zda tutilishi taqozo etiladi. Individual va umumoilaviy fazoviy kengliklar bir-biridan ajratilgan bo'lishi zarur. Har bir funksional bo'limda mustaqil fazoviy kenglikning berilishi ancha ratsionalikka erishishga olib keladi. Yashash joyining hamma ko'p obrazlilikini har xil tarkibli oilalar uchun ularning umumiy belgilari bo'yicha quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- Sof biologik ehtiyojlar birligi bilan bog'liq bo'lgan funksiyalar.
- Bir kishi bo'lgani kabi oilaning bir nechta a'zolari uchun ham ma'qul bo'ladigan qovushtirilgan jarayonlarni tashkil etuvchi funksiyalar.
- To'liq qovushtirib bo'lmaydigan jarayonlarning funksiyasi.

Funksiyalarning bunday ajratilishi ham xonadon fazoviy kengligini qismlarga ajratish, uning alohida xonalarini tashkil etish asosida yotadi. Har bir xona bunda yuqorida ko'rsatilgan funksiyalar guruhining bitta qatoriga muvofiq keladi. Xonadonning tarkibi oila tarkibidagi kishilar soniga qarab ham aniqlanadi.

Xonadondagi funksional bog'lanishlar sistemasi va uning fazoviy tashkil etilishi unda istiqomat qiluvchilarning soniga bevosita (to'g'ridan to'g'ri) bog'liq bo'ladi. Har bir kishiga uning ehtiyojlarini qoniqtirish uchun mo'ljallangan fazoviy kenglikning ta'minlanishi talab etiladi.

Umumiy xona differentsiatsiya qilinishining zarurligi, ayniqsa, katta oilalar uchun mo'ljallangan xonadonlar uchun asosiy funksiyalar qatoriga kiradi. Ovqat tayyorlash, oziq-ovqat mahsulotlarini va turli narsa-

buyumlarni saqlash bilan bog'liq funksiyalarni bajarish oshxona zimmasiga tushadi. Lozim bo'lgan o'lchamlari va ratsional rejalanihini talab qiladi. Har bir xonadon o'z dahliziga ega bo'lishi taqozo etiladi. Dahliz alohida joylashgan xonalarni bir-biri bilan bog'lash vazifasini bajaradi. Uni xonadon ichidagi kommunikatsion hudud hamda xonadonni ko'cha bilan bog'laydigan hudud deb ham bo'lmaydi.

Shunday qilib, xonadondagi eng ustuvor narsa bo'lishi shart bo'lgan xonalar:

— yashash xonalari: uxlash xonalari, umumiy xona;

— yordamchi xonalar: ishxona, cho'milish-yuvinish xonasi, hojatxona va dahliz.

Yaxshi tashkil etilgan yashash turar-joy bo'shlig'i, demak, xonadon interyerining ham yaxshi tashkil etilganligi, uning funksional talablarga to'liq javob berishi bilan aniqlanadi. Turmushdagi hamma jarayonlarning me'yorida o'tkazilishini ta'minlaydigan bo'shliq, xususan, yashash turar joyini loyihalashning maqsadini tashkil etadi. Insonning turar-joyga bo'lgan hayotiy ehtiyoji ikkita yo'nalishda namoyon bo'ladi. Bir tomondan, turar-joyda fiziologik ehtiyojlar majmuasi, ikkinchi tomondan ruhiy va estetik xarakterdagi elementlar majmuasi kiradi.

Inson hayotiy faoliyatining bu ikki tomoni bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi. Funksiyaning yaxshi yechilganligi, qoniqish hosil bilan belgilanadi, ya'ni agar qachonki funkisiya yaxshi yechilgan bo'lsa, shundagina yashash joyi insonda qoniqish hissini uyg'otadi. Agar yashash joyidan foydalanish jarayonida noqulayliklar yuzaga kelsa, u holda bunday vaziyat inson holatiga salbiy va fazoviy bo'shliqlarning hosil qilinishiga faol ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu yerdan ular turar-joyga mansub bo'lgan ifodani topadi. Yashash yacheykasining eng oddiy tarkibli birligi bu xonadir. Xona eni va bo'yining o'lchamlari bo'yicha gabariti umuman olganda inson tomonidan bajaradigan funksional operatsiyalar va hech qarshiliksiz harakatlana olishi, xonalardan jihozlarning erkin ko'chirilishi va oilaviy muloqot uchun yetarli bo'ladigan fazoviy bo'shliq ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Turmushdagi jarayonlarning ko'p sonliligi va turli-tumanligi, ularning yanada ortib borishi turli talab hamda ehtiyojlarning yuzaga chiqishini, ularning yanada yaxshiroq hisobga olinishiga zamin yaratadi, bu esa yashash joyining shinam bo'lishiga olib keladi.


Bo'lishi albatta lozim bo'lgan xonalardan tashqari xonadonda ochiq bo'shliqlar — lodjiya, balkon, terassalarning bo'lishi ham maqsadga

muvofoiq keladi. Xonadonning har bir xonasida bir nechta funksional jarayonlar amalga oshiriladi. Shu sababli ulardan har biri uchun ma'lum fazoviy sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim. Bu sharoitlar, birinchidan, zarur bo'lgan jihozlar to'plamini joylashtirish imkonini beradi. Ikkinchidan, bu jihozlardan foydalanishda inson qulay harakatlanishini ta'minlamog'i zarur. Uchinchidan, jihozlarning hamma predmetlariga insonning erkin tarzda yetib borilishini ta'minlash uchun xizmat qilmog'i kerak. Bunday fazoviy bo'shliqlar **funksional hududlar** deb ataladi. Shuningdek, xonadonning har bir xonasi o'zining hajmida tegishli funksional hududlarni jamlaydi.


2-qism. Xonadon jihozlari

Xonalarning rejalaniishida hududlarni bevosita egallagan yuzalarda xona bo'yicha harakatlanish va boshqa xonalarga o'tish uchun zarur bo'lgan maydon ham ko'zda tutilishi taqozo etiladi. Bu yashash joyi xonalari uchun juda muhimdir, chunki funksional jarayonlarning murakkabligi va turli-tumanligi predmetlarning ko'p sonliligi bilan bog'langan. Ular fazoviy kenglikni «yutib» yuborishi mumkin. Buning oqibatida ichki muhitning torligi his qilinadi. Shuning uchun jihozlarni shunday joylashtirish talab etiladiki, bunday joylashtirish funksional jihatdan maqsadga muvofoiq bo'lsin va ko'rish orqali yaxshi qabul qilinsin.

Jihozlarni joylashtirishning har bir varianti fazoviy erkinligi nuqtayi nazaridan baholanadi. Hozirgi vaqtda xonadon jihozlarining ikkita turi mavjud: **ko'chiriladigan jihozlar** va **qo'shma tarzda quriladigan mebellar**. Ko'chiriladigan jihozlar ichida turli sistemalarga va konstruksiyalarga ega bo'lgan seksiyali jihoz keng tarqalgan (*70-rasm*). Qo'shma tarzda quriladigan jihoz taxmonning ichiga o'rnatilishi yoki shkaf to'siq ko'rinishida o'rnatilishi mumkin. Yashash xonalari yuzasining 30 — 40% qismini jihozlar band qiladi. Ishchi joylar bir nechta guruhlariga ajratiladi: uxlash, dam olish, individual ish joylari, madaniy-maishiy



70-rasm. Seksiyali jihoz. Transformatsiyalashadigan shkaflar.



71-rasm. Yashash yacheykasining fazoviy tashkil etilishi. Yuqorida joylashgan jihozlar elementlarining gabaritlari.


ishlar joyi, ovqatlanish joyi, ovqat tayyorlash, shaxsiy gigiyena joyi.

Ishchi joylar bir yoki bir nechta kishilar harakatlanishining xarakterini hisobga olgan holda qulay harakat qilishlariga mo'ljallanadi, moslashtiriladi hamda jihozlarning joylashish o'rni qanday holatda bo'lishi hisobga olinadi. Vertikal guruhlashtirish alohida hajmli predmetlardan foydalanishni hisobga olgan holda odamning fizik o'lchamlariga bo'ysunadi. Bunda jihozlarga yetib borish imkoniyati ham hisobga olinadi (71-, 72-rasmlar).

Shakl, o'lchamlar va o'zaro joylashtirishga beriladigan me'yoriy tavsiyalardan foydalanish loyihachiga jihozlarni guruhlash variantlarini tahlil qilishda yordam beradi va xonalardan ratsional foydalanishni kafolatlaydi. Jihoz tayyor seksiyali holatda yoki keyinchalik yig'iladigan alohida detallardan iborat bo'lishi mumkin. Seksiyali jihozlar yashash xonalari zamonaviy interyerini tashkil etishning talablariga to'liq javob beradi; yengil guruhlanadi va oilaning sonli tarkibiga muvofiq keluvchi istalgan jihozlar to'plamini berish mumkin. Interyerdagi turli hududlarni jihozlashda aynan bir xildagi seksiyalardan foydalanish ancha yaxshiroq va qulayroqdir.

Seksiyali jihozning bunday xususiyatga ega bo'lishi ularning alohida universalligi bilan ta'minlanadi. Oddiy qurilmali elementlar bilan bir

qatorda ikkita vazifaga ega bo'lgan transformali seksiyalar ham keng qo'llaniladi. Ajratish qurilmasiga ega bo'lgan jihozlar stollar va sekreteriyalar, ajratiladigan va surib ochiladigan karavotlar, ichkariga yig'iladigan chizish taxtalariga ega bo'lish imkonini beradi. Shkafli to'siqlar — devorlar jihozlarining eng zamonaviy turi hisoblanadi. Ular odatiy tushunchada xizmat qilishi va shu bilan bir qatorda xonadondagi jihozlarning katta qismini o'rnini bosishi mumkin. Qo'shib qurilgan jihozlar xonadonlarning shınamligini oshiradi, yuza va hajmlardan maqsadga muvofiq foydalanishga imkoniyat yaratadi.



72-rasm. Balandlikning asosiy qismlarga ajratilishi.

Shkafli to'siqlar hududidagi yer ustki qismidan shiftgacha bo'lgan fazoviy bo'shliq foydali sig'im deb hisoblanadi, aynan uning evaziga xonalar ko'chiriladigan mebellardan ozod etiladi. Agar yashash xonalarida pol yuzasining 40 foizini tig'iz joylashgan jihozlar egallasa, shkafli to'siqlardan foydalanilganda bu ko'rsatkich taxminan 30 foizni tashkil qiladi. Foydali sig'imi hajmi bitta odam uchun 2 m^2 ni tashkil etsa, odatdagi jihozlardan foydalanilganda esa bu ko'rsatkich bitta odam uchun $1,1 \text{ m}^2$ ni tashkil etadi (3—4 kishilik o'rtacha oilalar).

Shkafli to'siqlarning seksiyalari va bo'limlarining bajaradigan vazifalari juda xilma-xil bo'lishi mumkin va ular shkafli to'siq o'rnatilgan xonaning nımaga mo'ljallanganligiga bog'liq bo'ladi. Bu idish-tovoqlar, kiyim-kechaklar, choyshablar bo'lishi mumkin. Bundan tashqari shkafli to'siqqa ajratuvchi stollar karavotlarni va xo'jalik ishlariga mo'ljallangan shkafli to'siqlarga yig'iladigan dazmollash taxtalari, tikuv mashinalari va shunga o'xshashlarni kiritish mumkin. Qo'shib yig'ilgan jihozlardan foydalanish xonalarni orasta qilish vaqtlaridagina «qo'l» keladi va xonadondagi bo'sh fazoviy bo'shliqni kengaytirishga shart-sharoit yaratadi.

Shkafli to'siqlarning qo'llanilishi interyer arxitekturasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xonadonning fazoviy bo'shlig'idan unumli foydalanish

imkonini yaratadi, ularning qo'llanilishi tufayli xonadonda zarur bo'lgan qulayliklar va shinamlikni yaratish yengil kechadi. Shkafli to'siqlar alohida seksiyalar zanjiri ko'rinishida bir qatorli hamda ikki qatorli qilinishi mumkin. Xizmat ko'rsatish xarakteri bo'yicha esa bitta xonaga qaratilgan holda bir tomonlama va ikki xonaga xizmat ko'rsatish maqsadida ikki tomonlama bo'ladi. Xonalar guruhlariga xizmat ko'rsatish uchun uch va to'rt tomonli shkafli to'siqlar qo'llanilishi ham mumkin. Bitta shkafli to'siq tarkibida bir tomonlama va ikki tomonlama xizmat ko'rsatuvchi elementlar qo'shma tarzda bo'lishi ham mumkin. Bunday aralash turlari juda ko'p va tez-tez uchraydi (*73-rasm*).

Loyihalashning amaldagi me'yorlariga muvofiq qo'shma tarzda qurilgan jihozlar elementlaridagi bo'limlar enining quyidagi o'lchamlari qabul qilingan: kitoblar va idish-tovoqlarni saqlash bo'limining eni 30 sm, xo'jalik predmetlarini saqlash uchun 45 sm, ustki kiyimlar va choyshablar uchun 60 sm. Frontal yo'nalish bo'yicha qismlarga ajratish qabul qilingan modulga muvofiq tarzda bajariladi. Shkafli to'siqlar suriluvchi yoki osma yaxlit tabaqalardan, ichki hajm maksimal ochiladigan oynali bo'lishi mumkin.

Qo'shma tarzda quriladigan shkafli to'siqlar nafaqat xonalarning funksional vazifalariga, balki binoning konstruktiv tizimiga ham bog'liqdir.

Katta bo'lmagan hajmga ega bo'lgan ko'ndalang devorlarda shkafli to'siqlar devorlar orasidagi bo'shliqqa joylashtiriladi va xonadonning markaziy qismidan o'rin egallaydi. Bo'ylama yuk ko'taruvchi devorlar konstruktiv tizimida shkafli to'siqlar yuk ko'taruvchi devorlarda to'siqlar holatida joylashtiriladi (*73-rasm*). Shkafli to'siqlarning ikkita qo'shilgan uxlash xonalar orasiga joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir, chunki saqlanishi lozim bo'lgan narsalarning katta qismi aynan uxlash xonalarga to'g'ri keladi. Bundan tashqari shkafli to'siqlarni umumiy xona va oshxona orasiga joylashtirish ham keng tarqalgan. Bu yerda to'siq elementlari tarkibiga xonalar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydigan eshiklarning oraliqlar ham kiradi. Zamonaviy xonadon jihozlanishida harakatlanuvchan to'siqlardan keng foydalanilmoqda, ular yordamida xonalarni qayta rejalash mumkin.

Istalgan paytda to'siqlarning o'lchamlarini o'zgartirish yoki ularni to'liq olib tashlash, shu tariqa interyerning fazoviy kompozitsiyasiga ta'sir ko'rsatish mumkin.

Harakatlanuvchi barcha qurilmalarning asosi bu yo'naltiruvchi «yuklar»dir, ular shiftga mahkamlanadi.



48-rasm. Gete ranglar doirasi.




49-rasm. Davomiyligi.



50-rasm. Bir vaqtli kontrastlik.



52-rasm. Ochiq ranglar ko'tarinkilik bag'ishlaydi, iliq ranglar — «og'irlashtiradi».



53-rasm. Xonalarda ularning funksional vazifasiga bog'liq ravishda rangli koloristikaning qo'llanishiga misol. Zallar: A — tantali marosimlar uchun jilo, B — memorial jilo.


Shartli belgilar: 1 — devorlar; 2 — pollar; 3 — mebellarning yog'ochli qismi; 4 — qalin to'qilgan mato; 5 — qoplangan yuza.



54-rasm. Haykaltaroshlik uchun ko'rgazma zal. Haykaltaroshlik detali va uning foni orasidagi katta yorug' va xromatik kontrastlik umumiy dekorativ effekt yaratadi, lekin haykalning qabul qilinishini qiyinlashtiradi.



63-rasm. Shiftlarni sun'iy yorug'lik bilan bezatishga misollar. A – «porlovchi» shift, B – «yulduzli osmon» shifti.



65-rasm. Qo'shma tarzdaagi mabäl.



66-rasm. Kamin.



80-rasm. Ikki sathli xonadon ichiga zinapoya o'rnatilishiga doir misol.

A



B



D

82-rasm. Umumiy xonada qo'llanadigan yoritish jihozlarga misollar: A — markazga osilgan qandil; B — to'ldirilgan torsher; D — devorga o'rnatiladigan bra.





86-rasm. Yotoqxonani gamiturli jihoz bilan jihozlashga doir keltirilgan misol.



99-rasm. Dahlizni gamutirli mebel bilan jihozlash varianti.



112-rasm. Interyerda murakkab
kontrastli ranglar jilosiga misol.
Oitedagi bank interyeri.
Yaponiya arxitektor Isozaki.



113-rasm. Sirk foyesiga ishlangan beton va
yog'ochning tabiiy rangi bilan uyg'unlashgan
ranglar jilosiga misol.



147-rasm. Xonadon umumiy
xonasi interyeridagi skulptura.



148-rasm. Estamp.



149-rasm. Keramik guldun (Yaponiya).



150-rasm. Devorga osiladigan gobelen.



151-rasm. Polga qo'yiladigan guldonli osgich.



152-rasm. Gulli kompozitsiya.



153- rasm. Oshxonani zamonaviy jihozlar va mebellar bilan jihozlash.



154-rasm. Zamonaviy xonadondagi mebellar.



155-rasm. Zamonaviy xonadon interyeridagi kichik arxitekturaviy shakllar.


a)



b)




156-rasm. Toshkentdagi Bilimlar uyidagi mozaikali panno (rassomlar: L.Polihuk, S. Herbinina): a — foyedagi panno; b — vestibyuldagi panno.



73-rasm. Shkafli pardevorlarning turlari. A — umumiy ko'rinishi. 1 — bir tomonli; 2, 3 — ikki tomonli; 5 — to'rt tomonli; 4, 7 — uch tomonli. B — uyning konstruksiyasiga bog'liq ravishda xonadon tarxi bo'yicha qo'shma tarzda qurilgan shkaflarning joylashuvi: a — ko'ndalang devorlar; b — karkas atrofidagi qo'shma tarzda qurilgan shkaflari; d — bo'ylama devorlar.

Bunday pardevorlar nafaqat to'g'ri chiziqli bo'yicha, balki egri chiziqli yo'nalish bo'yicha ham harakatlanishi mumkin; buning uchun «yo'nalishlar»ning tegishli turi ko'zda tutiladi (74-rasm). O'rama harakatlanuvchi pardevorlar mayda yog'och taxtachalardan yoki polimer materiallardan tayyorlanadi; ular ham gorizontal, ham vertikal harakatlanish yo'nalishiga ega bo'ladi. Xonadondagi fazoviy kenglikni qismlarga ajratish vositasi sifatida va to'suvchi qurilmalarning boshqa turlari bilan uyg'unlikda harakatlanuvchi pardevorlardan xonalarni butun bo'yi va eni bo'yicha to'sishda foydalanish mumkin. Masalan, bir vaqtning o'zida guruhlashtiriladigan umumiy tekislikni tashkil etgan holda odatdagi harakatlanuvchi pardevorlar birgalikda qo'llanilishi mumkin. Balandlik bo'yicha ham harakatlanuvchi pardevorlar xonaning butun balandligini yoki ma'lum bir qismini egallashi mumkin. U yoki bu usulni tanlash interyerning umumiy arxitekturaviy yechimiga bog'liq bo'ladi.



74-rasm. To'siqlarning turlari. 1 — yumshoq turdagi parda; 2 — yumshoq karkas-kataklik; 3 — qattiq buklanuvchi — karkasli; 4 — tabaqali karkassiz; 5 — eshik-teleskoplik konstruksiyali; 6 — harakatlanuvchi to'siqli.

Konstruksiyasi bo'yicha yengil va oddiy bo'lgan zamonaviy jihoz harakatlanuvchi pardevorlar bilan uyg'unlikda yashash joyining yetuk funksional-rejaviy va ancha yuqori biddiy sifatli interyerlarni tashkil etish imkonini beradi.

3-qism. Xonadon xonalarining interyerlarini shakllantirish

Xonadon, yuqorida ta'kidlanganidek, tabiiy iqlim sharoitlari, aholining madaniy-maishiy jihatlari, oila a'zolarining kasbiy faoliyatlarining turi, iqtisodiy sharoitlar ta'siri ostida shakllanadigan elementlar yashash yacheykasini o'zida ifoda etadi (75-rasm).

Xonadonlarning o'lchamlari va uning xonalarining tarkibi keng chegarada harakatlanadi. Odatda, bu bir, ikki, uch va ko'p xonali xonadonlar bo'lib, ular oddiy va murakkab rejaviy yechimlarga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtda qurilish me'yorlari orqali bir kishiga 12 m² maydon va yashash xonalari soni 1 dan 5 tagacha bo'lgan xonadonlarning 10 ta turi ko'rsatilgan. O'zbekistonda ko'p bolali oilalarning ko'pligi bilan xarakterlanadigan ko'p xonali xonadonlar qurilishda keng tarqalgan.


Ko'p xonali xonadonlarga ega bo'lgan yashash uylarining turlari loyihalash qurilish amaliyotida eng muammoli deb hisoblanadi: bu

xonadolarning qoʻllanilishi kengaytirilishini yoki yashash uylari xonalarining uzaytirilishini talab qiladi. Loyihalovchilarning bu boradagi izlanishlari xonalarining ikki sathda joylashishini koʻzda tutadigan, yetuk original rejaviy yechimlarni berdi.

Koʻp xonali xonadonlarda hamma xonalar beshta asosiy funksional hududlarga ajratiladi: **tantanovor, xoʻjalik-kommunikatsion, xilvat, rekreatsion va sanitar-gigiyenik** hududlar.


Tantanovor hudud umumiy xona (ovqatlanish xonasi) va kabinetni oʻz ichiga oladi.

Umumiy xona (ovqatlanish xonasi) oʻzida koʻp funktsionalli xonalarni namoyon etadi (76-rasm). Unda ovqatlaniladi, oilaviy




75-rasm. Kvartiraning (odatdagi uch xonali) sxematik tasviri: 1 - oshxona, 2 - mehmonxona, 3 - yotoqxona, 4 - bolalar xonasi, 5 - sanitar tugunli dahliz.

tantanalar oʻtkaziladi, mehmonlar qabul qilinadi. Shu sababli xonadonning rejaviy tarkibida unga markaziy joy ajratiladi, oila aʼzolarining soniga bogʻliq ravishda uning maydoni 20 m² va undan ortiq boʻlishi mumkin. Loyihaviy yechimlarda u bevosita ovqat tayyorlash xonasi va dahliz yaqiniga joylashtiriladi. Alohida vaziyatlarda maydonni kengaytirish va umumiy xona yemakxona, ovqat tayyorlash xonasi orasida yagona boʻshliqni yaratish maqsadida harakatlanadigan pardevorlardan foydalaniladi. Bunda ovqat tayyorlash xonasidan umumiy



76-rasm. Umumiy xonaning misol tariqasida keltirilgan tarxiy yechimi.

xonaga hidlarning o'tishini bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar oldindan belgilanadi. Umumiy xona yemak xonasi o'tish joyi ham bo'lishi mumkin va kabinet hamda uxlash xonasi bilan bog'langan bo'ladi. Bunday holda shinamlikni pasaytiradigan ekspluatatsion sifatlardan xoli bo'lishda loyihalash me'yorlari bo'yicha unga faqat bitta xonadan kiritishni tashkil etishga yo'l qo'yiladi. Issiq iqlimli rayonlarda, xususan, O'zbekistonda yilning katta qismi mobaynida madaniy-maishiy jarayonlar ochiq havoda o'tkaziladigan hududlarda ovqat tayyorlash xonasi va umumiy xona qo'shilgan tarzda joylashtiriladi va bir-biri bilan lodjiya va balkon vositasida birlashtiriladi.



77-rasm. Har xil gabaritli mebellarni umumiy xona va oshxonaga joylashtirish.

Umumiy xonaning gabaritlari ko'pincha yoritish tizimiga bog'liq bo'ladi va 1:1, 1:2, 2:3 gacha bo'lgan nisbatlarni tashkil etishi mumkin. Bunday gabaritlarda jihozlar va jihozlarni ratsional joylashtirish imkoniyatlari namoyon etiladi: ovqatlanish uchun tushlik, nonushta stoli va stullari, kitoblar uchun shkak, jurnallar stolchasi, televizor va radio qabul qilgich stoli, yumshoq kursilar, divan, servant va h.k. (77-rasm). Biroq shuni aytish joizki, xonalarning jihozlar bilan tıg'iz

to'ldirilishi qulaylik va shinamlikni ta'minlamaydi. Jihozlar tarkibi funksional vazifalarga va xonada o'tkaziladigan madaniy-maishiy jarayonlarga javob bermog'i lozim. Bu borada qo'shib qurilgan kabı elastik jihozlardan foydalanish eng ratsional yondashuv deb hisoblanadi. Bu

jihozning ustunlik tomoni shundaki, birinchidan, undan qo'shilgan xonalarning orasida pardevorlar sifatida foydalanish mumkin (76-rasm), ikkinchidan, uning konstruksiyasini xonalarning har qanday konfiguratsiyasiga elastik ravishda moslashtirish mumkin.

Umumiy xonaga oila a'zolari to'planib, hamjihatlikda o'zaro munosabatda bo'lishadilar: yoqtirgan yumush bilan mashg'ul bo'lishlari, tinch, osuda dam olishlari va televizion ko'rsatuvlarni ko'rishlari, raqsga tushishlari, nonushta qilishlari va oilaning individual moyilligiga bog'liq holda ko'plab mashg'ulotlarni o'tkazishlari mumkin. Shu sababli boshqa xonalarnikidan farqli o'laroq, umumiy xonaning bajaradigan funksiyalari turli-tumandir.

Umumiy xonaning funksiyalari guruhlariga bo'linadi va har bir guruh o'ziga xos fazoviy muhitga ega bo'ladi. Dam olish hududi, ovqatlanish hududi, ishchi hudud, uxlash hududi, bolalar hududi. Bu hamma hududlar birgalikda umumiy xonani tashkil etishning asosini yaratadi.

Umumiy xonaning har bir hududi o'ziga tegishli bo'lgan maydonni va funksional vazifalarning bimalol bajarilishi uchun zarur bo'lgan ma'lum sharoitlarni talab etadi. Hududlarning yuzasi va fazoviy maqbulligi umumiy xonaning o'lchamlariga va eshik oraliqlarining joylashish o'rniga bog'liq bo'ladi. Xonalarning mutanosibligi katta ahamiyatga ega.

Dam olish hududi. Ish vaqtidan keyin dam olishga sharoitlar yaratish uchun mo'ljallanadi. Bu hududdan, asosan, kechki soatlarda foydalaniladi, shuning uchun bu xona kunduzgi yorug'lik manbayiga nisbatan ixtiyoriy ravishda joylashtirilishi mumkin. Agar bu hudud deraza atrofida joylashtirilsa, u holda, ayniqsa, yoz faslida dam olish uchun yaxshi sharoit yaratilgan bo'ladi. Dam olish hududidagi asosiy jihozlar: divanlar, kursilar (kreslolar), jurnallar uchun past o'rindiqlar, kitoblar va turli narsalarni taxlash uchun taxtalar, qimmatbaho idishlar uchun va ichimliklar uchun servantlar, musiqa asboblari (fortepiano), radiotelevizion apparatlar. Bu hududni turlicha tashkil etish mumkin, lekin har doim kursilar, divan va stollar uning markaziy qismi bo'lib qolaveradi. Hududning o'lchamlari jihozlar va maxsus jihozni joylashtirishning turli kombinatsiyalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Umumiy xonada dam olishning eng ko'p turi musiqa tinglashdir. Shuning uchun kursilar, divan va o'rindiqlar televizor yoki radioning egallangan joyiga bog'liq holda guruhlashtiriladi, ya'ni televizor ko'rish va radio eshitishga qulay holatda guruhlab joylashtiriladi.

Dam olish hududini tashkil etishda erkin fazoviy bo'shliqning hosil qilinishi juda muhim, chunki uning mavjudligi toza texnologik ehtiyojlar bilan belgilanadi. Dam olish hududidan uxlash joyi sifatida foydalanilganda; divan yoniga choyshablar uchun mo'ljallangan maxsus kursichaning qo'yilishini ko'zda tutish taqozo etiladi. Bu tumba bir vaqtning o'zida kechasi foydalaniladigan stol vazifasini ham bajaradi.

Ovqatlanish hududi. Umumiy xonada bu hudud joylashtirilishi ovqat tayyorlash xonasining joylashish o'rni bilan moslashtiriladi.


Ovqatlanish stolining bevosita oshxona ichiga joylashtirilishi ma'qulroq bo'ladi, bunda stol atrofida bemaolol harakatlanishni hisobga olish talab etiladi. Stolning xona o'rtasida an'anaviy joylashtirilishi ovqatlanish uchun maxsus xona ajratilgan holdagina o'zini oqlashi mumkin, chunki bu yer faqat ovqatlanish uchungina mo'ljallangan bo'ladi.

Umumiy xonada nonushta qilish hududini tashkil etish qulaylik, yuzadan yutish nuqtayi nazaridan va estetik talqin etishdan kelib chiqiladi. Bir nechta funksional hududlarga ega bo'lgan umumiy xonaning zamonaviy yechimlarida ovqatlanish hududi kompozitsiyada yetakchi bo'lsa-da, xonaning markaziy qismini kam hollardagina egallaydi, asosan, u devor yaqiniga joylashtiriladi. Ovqatlanish hududida ovqat qabul qilishga mo'ljallangan stol va stullardan tashqari idish-tovoqlar uchun shkaf yoki taxmon, servant ham o'z o'rnini topmog'i lozim. Yaxshi jihozlangan oshxonaga ega bo'lingan hollarda idish-tovoqlar va boshqa shunga o'xshash anjomlar oshxonada saqlanadi.

Umumiy xonada faqat dekorativ ko'rinishga ega bo'lgan idishlar saqlanadi. Umumiy xonaning proporsiyasi juda xilma-xil bo'lishi mumkin: ensiz tomoniga deraza joylashgan uzun xona, kvadrat va kvadratga yaqin bo'lgan xonalar, uzun tomoniga derazalar joylashtirilgan va bo'yi eniga nisbatan uzun bo'lgan xonalar.


Turli proporsiya va eshiklar oraliqlarining joylashish holatiga bog'liq ravishda umumiy xonani rejalashning mumkin bo'lgan variantlari, uning fazoviy kengligini funksional hududlarga ajratish (78-rasm). Uzun xonalar ko'rish bilan belgilanadigan fazoviy bo'shliqlarga bo'linishi mumkin. Xonaning derazalardan uzoqda joylashgan qorong'iroq qismini yorug'roq qilish maqsadida qismlarga ajratish elementlari panjaralar ko'rinishida bo'lishi kerak (79-rasm). Xonani hududlarga ajratishda ji-hozlar past buyumlardan iborat: divanlar, komodlar, tuvalarga o'tqazilgan gullar va h.k. bo'lishi mumkin.

Uzunligi bo'yicha cho'zilgan xonalarni hududlarga ajratishda ajratuvchi elementlar sifatida to'liq yassi to'siqlardan ham foydalanish mumkin. Shiftga yetib bormaydigan harakatlanuvchi pardevorlar, bunda har bir hudud yaxshi himoyaga va tabiiy yorug'likka ega bo'ladi. Xonalarning funksional hududlarga past balandlikka ega bo'lgan jihozlar, buyumlar yordamida hududlarga ajratilishi uzun



78-rasm. Umumiy xonani funksional hududlarga pardevorlar orqali ajratish (ushbu holda suriladigan pardevor bilan ajratish ko'rsatilgan).

xonalarga nisbatan ancha qulay bo'lgan tasvirni ifoda etadi. Tabiiy yorug'lik bilan bir tekis yoritiladigan xonalar ancha to'liqroq qabul qilinadi. Yashaydigan soniga va maydoniga bog'liq bo'lmagan holda umumiy xonalarning eni 3 metrdan kam bo'lmisligi zarur bo'lgan jihozlarni joylashtirishning qoidasi bilan aniqlanadi. Kvadrat shaklidagi xonalar va unga yaqin bo'lgan xonalar jihozlarni guruhlash orqali ularga asoslangan xonalarni tashkil etish uchun bir xil qulayliklarga ega yoki qismlarga ajratishning qo'shimcha elementlaridan foydalanib, ularni qandaydir



79-rasm. Umumiy xonani yaltiroq material yordamida funksional hududlarga ajratishga keltirilgan misol.


muhofaza qilish mumkin. Bunda har bir hudud yaxshi tabiiy yorug'likka ega bo'ladi. Shu sababli kvadrat shaklidagi xonalar va o'lchamlarining nisbati 1:1,5 bo'lgan xonalar ancha ma'qulroq bo'ladi.

Joylashishi ikkita qavat sathda yechilgan xonadonlarda xonalarni bog'lovchi ichki zinapoyalar umumiy xonada joylashadi. Zinapoya-

larning mavjudligi umumiy xona interyerini boyitadi (*80-rasm*). Zinapoyalarga ega bo'lgan xona boshqa xonalardan ko'rkamligi bilan ajralib turadi. Zinapoyalar yopiq va unga boshqa xonadan kiriladigan hollarda uni umumiy xonaga chiqarish mumkin va bu yerda qulay taxmonni yuzaga keltirib, hududlardan birini tashkil etishi mumkin. Umumiy xona interyerida sun'iy yorug'lik tashkil etish katta ahamiyatga ega.


Bir tomondan funksional zaruriyatdan kelib chiqqan holda yorug'lik manbalarining o'rni va sonini aniqlash muhim, ikkinchidan chiroqlarning dekorativ xususiyatlari va ularning umumiy xonadagi joylashish holati interyer kompozitsiyasida katta rol o'ynaydi. Butun xonaning yaxshi va bir tekisda yoritilishi xonaning yanada kengroq his qilinishini ta'minlaydi, aksincha, xonaning kontrastli yoritilishi tufayli uning bir qismi yorqin yoritilsa, boshqa qismi soyada qoladi, bu esa xonaning tor his qilinib, qabul qilinishiga sababchi bo'ladi. Shu sababli har doim umumiy yoritilish talab etiladi. U har xil yechilishi mumkin. Bu umumiy xonaning butun fazoviy bo'shliqni neytral ifodalangan yorug'lik manbasi bilan birlashtiradigan, mayin (yengil) tarqoq holda tarqaladigan yorug'lik bo'lishi mumkin (*81-rasm*). Bunday hollarda, odatda, plafon turidagi shift markaziga o'rnatilgan nur tarqatuvchi yoki yorug'lik yo'naltiruvchi chiroqlardan, lyuminissent tayoqchalaridan qisman shift bo'ylab joylashtirilganlarda foydalaniladi.

Chiroqlarning bunday o'rnatilishi natijasida shift bir tekis tarqaladigan yorug'likka ega bo'ladi. Xona shiftining markaziga osilgan chiroyli qandil interyer kompozitsiyasining muhim bir elementiga aylanadi. Alohida hududlarni yanada intensiv yoritish uchun zarur yorug'likning ma'lum joyga o'rnatilgan manbalari ko'zda tutiladi. Dam olish hududiga torsher ko'rinishidagi chiroqlar yoki jurnallar stolchasi ustiga past qilib tushirilgan chiroqlar shinamlik bag'ishlaydi. Ovqatlanish hududidagi nonushta stolini yaxshi yoritish uchun uning ustidagi shiftga



81-rasm. Yashash xonalariga mo'ljallangan turli modifikatsiyaga ega bo'lgan chiroqlar.

osma chiroq o'rnatiladi (82-rasm). Chiroqlar tizimi umumiy xona interyeri kompozitsiyasida faol rol o'ynashi mumkin. Ayniqsa, xonalarining katta yuzaga ega bo'lgan shiftida chiroqlar qatorining tashkil etilishi interyer kompozitsiyasida muhim vazifani bajaradi. Umumiy xonada bitta markaziy qandilni o'rnatish bilan masala to'liq o'z yechimini topmaydi. Umumiy xona uchun ham, boshqa xonalar uchun ham ko'zni qamashtirmaydigan effektlar bosh yoritish vositasi deb hisoblanadi. Bosh yoritish osma yoki qo'shib quriladigan chiroqlardan yoki yorug'likni qaytaradigan yorug'lik karnizlaridan tashkil topishi mumkin.



83-rasm. Yotoqxona va sanitar tugunning yonma-yon joylashtirilishiga misol.

lokali manbasidan foydalanib yoritish zarur bo'ladi. Bu maqsadga erishish uchun to'ldirilgan yoki devoriy chiroqlar asqotadi.

Intim hudud. Bu hududga uxlash xonolari va bolalar uchun mo'ljallangan xonalar kiradi. Qoidaga ko'ra bu xonalar bir yoki ikki kishi uchun mo'ljallanadi.


Uxlash xonasi tinch va osoyishtalikni talab etadigan xonani namoyon etadi. Bu yerda inson to'laqonli dam olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu xonada inson o'zini atrofdagi shovqindan izolyatsiya qila olishi mumkin va faqat shunday sharoitlardagina dam olish, uyqu va ish bir maromda (xotirjam) o'tkazilishi mumkin. Shu sababli uxlash xonasini shovqin hududdan (umumiy xona, oshxona va zinapoya yacheykasi) uzoqroqda joylashtirish ma'qulroq bo'ladi. Bunda, albatta, sanitar tuguni bilan qulay bog'lanishni ta'minlamog'i yoki saqlanmog'i zarur bo'ladi (83-rasm). Me'yoriy talablar uxlash xonasida o'tish joylarining bo'lishiga

Foydalanilayotgan yorug'lik manbalarining turiga bog'liq ravishda yorug'likka yorug'likni rostlash moslamasi yordamida tartibga keltiriladi. Yordamchi yorug'lik devorga o'rnatilgan chiroqlar yoki torsherlarni ta'minlab beradi, ular osoyishta atmosferani ta'minlab beradi. Masalan, televizor orqali ko'rsatuvlar tomosha qilinayotgan paytda ulardan foydalanish mumkin.

Kursida kitob o'qish uchun ishchi burchakni yorug'likning

yo'l qo'ymaydi. Uxlash xonalariga qo'yiladigan asosiy talablar ularda qulay sharoitlarning, ayniqsa, birinchi navbatda me'yoriy harorat — namlik rejimi holati, tashqi shovqindan himoya qilish, tabiiy yorug'lik bilan yoritilish va shu kabilar bilan ta'minlanmoq talab etiladi. Bunday sharoitlar ko'pincha derazalarning yorug'lik tushadigan tomonga orientatsiya qilinishi va ushbu xonalardagi havoning intensiv sirkulyatsiya qilinishi bilan aniqlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan sharoitlardan oxirigisi, ayniqsa, O'zbekiston uchun xos bo'lgan quruq va issiq iqlim sharoitlarida juda muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda bunday sharoitlar shamollatishning tegishli sistemasi qo'llanishi bilan ta'minlanadi: to'g'ri yo'nalishda va burchakli shamollatish (*84-rasm*). To'g'ri yo'nalishli shamollatish, asosan, xonalarning qatorli joylashtirilishida, ya'ni uxlash xonasi o'zining bir tomoni bilan tashqi devorga tutashgan hollarda. Bunday holda bu xona bevosita bitta deraza oraliq'i bilan tabiiy yoritiladi, ya'ni yon tomondan yoritiladi, uning shamollatilishi xonalarning qarama-qarshi tomonga qaratilgan derazalari orqali amalga oshiriladi. Burchakli shamollatish binoning chetki tomonida joylashgan uxlash xonalarida qo'llaniladi. Shamollatishning bunday turi shamollatishning birinchi tizimiga nisbatan kam samara beradi. Lekin ikkita deraza oraliqlari mavjud bo'lganda ularda tabiiy yorug'lik bilan yoritilish darajasini oshirishga sharoit yaratadi. Ayniqsa, uxlash xonalarini loyihaviy yechishda ularning bakteritsidli — bakteriyaga qarshilik ko'rsatish xossalarini oshirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda sanitar-gigiyenik me'yorlarda ularning derazalarini janub va janubiy sharqqa qaratish tavsiya etiladi. Uxlash xonalarining bunday orientatsiyalanishida ularga kunduzi uch soat davomida quyosh nurlari




84-rasm. Shamollatish sistemasiga doir bo'lgan misollar: A — to'g'ridan to'g'ri (yorib o'tuvchi) shamollatish; B — burchakli shamollatish.

tushadi, bu esa havoni kasallik tarqatuvchi bakteriyalardan tozalash uchun yetarlidir.

Uxlash xonalarining soni va maydoni oila a'zolarining sonidan kelib chiqqan holda o'rnatiladi hamda qabul qilinadi: bir kishi uchun 8 m^2 dan kam bo'lmagan, ikki kishi uchun esa $12 - 14 \text{ m}^2$ dan kam bo'lmagan maydon qabul qilinadi. Bunday maydon katta yoshdagi oila a'zosi uchun ham, kichik yoshli bolalar uchun ham zarur bo'lgan qulaylikni hosil qiladi. Jihozning joylashish o'rnini o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'lish har qanday xona rejalashining asosiy sifatlaridan biri hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, bir kishi uchun mo'ljallangan uxlash xonasining eni $2,2 \text{ metr}$ dan kam bo'lmashligi taqozo etiladi. Erkak va ayol juftligi uchun mo'ljallangan uxlash xonalariga ikki kishilik karavot joylashtirilishi ko'zda tutiladi. Bu karavotning eni 110 sm dan 130 sm gacha bo'ladi, alohida turuvchi ikkita bir kishilik karavotning enidan kichik bo'ladi.

Er-xotin juftligi uchun mo'ljallangan uxlash xonasining maqbul eni 3 metr ni tashkil etadi, bunday o'lchash jihozning hamma elementlarini qulay joylashtirish va karavotlarning joylashish o'rnini o'zgartirish imkonini beradi. Bu me'yorlarda ota-ona uchun mo'ljallangan uxlash xonalarida emizikli bola uchun karavotchaning joylashtirilishi ham inobatga olinadi. Kishilarning sonini hisobga olgan holda uxlash xonalarining parametrlari qabul qilinadi (*85-rasm*). Shunday qilib, ikki kishi uchun uxlash xonasining eni $2,4 \text{ m}$ dan, bo'yi esa 5 m dan kam bo'lmashligi lozim. Uxlash xonalari ularda bajariladigan funksiyalarga javob beradigan jihozlar bilan jihozlanadi.


Qoidaga ko'ra uxlash xonalari karavotlardan tashqari karavotlar oldida turadigan tumbochkalar, shifoner, tryumo, pufik hamda boshqa stolchalar bilan ham jihozlanadi. Zarur bo'lgan hollarda bu yerda katta bo'lmagan yozuv stolini ham joylashtirish mumkin. Uxlash xonalarida karavotlar o'rinda divan yoki divan-karavotlar ham o'rnatilishi mumkin. U holda xonani jihozlashda ko'rpa-to'shak o'rnida ishlatiladigan buyumlarni saqlash uchun kursichalar yoki jihoz tizimida ular uchun maxsus bo'limning ajratilishi ko'zda tutilishi talab etiladi. Uxlash xonalarini divanlar va to'shaklar bilan jihozlash yoshlar uchun xarakterlidir. Bunda divan o'tirish uchun xizmat qiladi va uxlash xonasidan esa mehmonlarni kutish uchun foydalanish mumkin. Uxlash xonasiga ikkita karavot joylashtirilganda, har bir yashovchi uchun teng sharoit yaratilishi zarur. Har bir karavotga erkin holda yetib borish



85-rasm. Xonalarning o'lchamlari va proporsiyalariga bog'liq ravishda yotoqxonalarni tashkil etish variantlari: A— bir kishi uchun; B — ota-ona uchun; D — o'rta yoshdagi ikkita bola uchun.

ta'minlangan bo'lishi lozim. Uxlash xonasi karavotlardan tashqari sanitariya stoli (hojatxona), choyshablar, kiyimlar va poyabzallar uchun shkaf, ikkita kursi bilan ish stoliga ega bo'ladi. Minimal jihozga kitoblar shkafi qo'shilishi mumkin. Uxlash xonasining funktsiya bajarishi, interyerning tashkil etilishi xonaning proporsiyasi va jihozning xarakteriga ko'p jihatdan bog'liq. Jihozlarni qulay joylashtirish va interyerni tashkil etish uchun uxlash xonasi tomonlarining nisbati (proporsiyasi) 1:1 yoki 2:3 qilib qabul qilinadi. Uxlash xonasi, odatda, garniturli mebel bilan jihozlanadi (*86-rasm*). Bunday mebel bilan ko'proq juftlik uxlash xonalari jihozlanadi. Uxlash xonalarining boshqa turlari uchun garniturlar kam ahamiyat kasb etadi. Garniturga kiruvchi maxsus shkaflar, odatda, oila ehtiyojlarini to'liq ta'minlamaydi, buning ustiga ancha katta bo'ladi va foydalanish uchun noqulay. Uxlash xonasi jihozining eng yaxshi turi bu qo'shib qurilgan shkaflardir. Ularning sistemasida ish stolining o'rnini bosuvchi sekreterlar, kitoblar uchun taxtalar va turli qutilarning bo'lishi hisobga olingan bo'ladi. Ikki kishi uchun mo'ljallangan uxlash xonasining interyerini tashkil etish uchun har bir kishiga uxlash va ishlash joyi, shaxsiy buyumlar, ko'ylak, choyshablarni saqlash shkafi uchun joy bo'lishi kerak. Ota-onalar uchun uxlash xonasini loyihalashda unda bolalar karavotini joylashtirishni ham nazarda tutish talab etiladi. Bunda bu joy yaxshi yoritilgan va yetib borishga qulay bo'lmog'i taqozo etiladi (*87-rasm*).

Tashqaridan uxlash xonasiga tushadigan tabiiy yorug'likdan tashqari sof funksional ahamiyatga ega bo'lgan sun'iy yorug'lik (yoritish) ko'zda tutiladi. Sun'iy yoritish ikki turdan tashkil topadi: *umumiy* va *lokalli*. **Umumiy yoritish** yorug'lik manbayining uxlash xonasining o'rtasiga o'rnatilishi bilan ta'minlanadi (odatda, bu qandil bo'ladi) va bunda butun xonaga yengil bir tekis yorug'lik beriladi. **Yoritishning lokalli turi** ish stoli atrofi, sanitariya stoli yaqini va torsher turidagi qo'shimcha chiroqlardan tarqaladigan yorug'likni namoyon etadi.




87-rasm. Ota-ona yotoqxonasiga bolalar karavotchasini joylashtirishning variantlari.


Bolalar xonalari. Ko'p bolali oilalar yashaydigan xonadonlarda imkon qadar bolalar uchun maxsus alohida bolalar xonalari ko'zda tutiladi. Bu xonalarni loyihalash ma'lum darajada murakkab masala sifatida namoyon bo'ladi, chunki bu xonalar egalarining bog'cha, maktab yoshidan to'ulg'ayguniga qadar jismoniy rivojlanish dinamikasini hisobga olishga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu xonalar interyer muhitini tez-tez almashtirish muammosini yuzaga keltiradi. Ularning yuzasi xuddi boshqa uxlash xonalari yuzasi kabi aniqlanadi. Bolalar xonalari yengil va quvonch bag'ishlovchi mazmunda bezatilishi va jihozlanishi lozim. Mebel va boshqa buyumlar bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq emas. Jihozlarni tanlashda nafaqat ularning ko'rinishiga, balki sifatiga ham e'tibor bilan yondashmoq kerak va bunda rangli, mustahkam va oddiy konstruksiyali jihozlarni tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolalar xonasining jihozlarini jamlashtirishda, bu jihozlar bog'cha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, u holda ularning o'yinlari va yugurishlari uchun kengroq yuza hosil qilinishini hisobga olish taqozo etiladi. Shu sababli bu xonalar yig'iladigan va transformalashadigan jihozlar, ikki yarusli konstruksiyaga ega bo'lgan karavotlar bilan jihozlanishi maqsadga muvofiq deb topiladi (*88-rasm*). Bunday karavotlarning gabaritlari ularni xonaning istalgan joyiga o'rnatish imkonini beradi. Ba'zida yuqori karavot pastki karavot yarmisining ustiga joylashtiriladi va bunda bitta karavotga nisbatan bir yarim barobar ko'proq joy egallanadi.

Yuqorida joylashgan karavot tagidagi bo'sh joyga shkaфchalar o'rnatilishi, bunday yechim ancha tejamkor hisoblanishi mumkin. Uchta karavotdan iborat kombinatsiya ham mavjud. Ikki yarusli karavotlar tizimi bolalar yotoqxonasida uch va to'rt bola uchun nisbatan chegaralangan yuzani joylashtirish imkonini beradi.


Bolalar yotoqxonalari jihozga qo'shib qurilgan buralib ajratiladigan karavotlar, devorlariga kiritiladigan maxsus taxmon ko'rinishidagi karavotlar yoki shkaфli pardevorlarga surilib kiritiladigan va ulardan chiqariladigan krovatlar bilan jihozlash ham mumkin. Bundan tashqari ancha tejamkor variantlar — uchta karavotdan tashkil topgan kombinatsiya, bu kombinatsiyada g'ildirakli pastki karavot (uchinchi) yuqoridagi birinchi karavot tagiga surilib kiritiladi va zarur paytlarda tortib chiqariladi. Bolalar ko'zida odatdagi stul paravoz va samolyot, avtomobil va paraxod ham bo'lish mumkin, stol esa ertakdagi kabi uy, oddiy cho'p — sevimli toychoq ham bo'lishi mumkin.



A



B



D

88-rasm. Bolalar xonasiga ikki qavatli karavotni joylashtirishga oid misollar:

A — ikki qavatli konstruksiya;

B — birinchi karavot ostidan surib chiqariladigan konstruksiyaga ega bo'lgan karavot; D — uchta karavotga ega bo'lgan konstruksiya.

Shuning uchun bolalarning xonalarida ko'p hollarda oddiy shakldagi jihozlar ko'proq qo'llaniladi, ulardan bolalar taassurotidagi boy fantaziya asosida har xil kombinatsiyalar tuzish mumkin. Jihozdan jarohat olmaslikning oldini olish uchun ularda o'tkir burchaklar va chiqib turgan qismlar bo'lmashligi kerak. Maktab yoshiga yetgach, bolalar xonasini qayta jihozlash bilan bog'liq bo'lgan tashvishlar yuzaga keladi. Ularni deraza yaqiniga joylashgan, kunduzi yaxshi yoritiladigan va kechqurun ishlash uchun mos keladigan chiroq bilan ta'minlash zarur. Bu burchak eni yetarli kattalikda bo'lgan taxtani ikkita tumbochka ustiga qo'yish bilan qurish, tumbochkalar ichiga esa darsliklar va daftarlarni taxlash mumkin.

Atrofdagi tashqi olamning bolalar tomonidan qabul qilinishida rang muhim rol o'ynaydi. Olib borilgan qator psixologik izlanishlar shundan guvohlik beradiki, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarda yorug'lik spektrining eng iliq tomonlariga, masalan, qizil, sariq, olov ranglarga moyillik bo'ladi. Keyinchalik esa yashil va ko'k ranglarga va ulardan hosil qilinadigan hosilaviy ranglarga moyillik seziladi. Rangli tasvirlarni haddan tashqari to'q ranglarda bajarmaslik kerak, ask holda salbiy effekt yuzaga kelishi mumkin. Bolalar yotoqxonalarini tabiiy yoritish uchun torsher va devorga o'rnatiladigan chiroqlarning o'rnatilishi juda ham maqsadga muvofiq kelmaydi. Odatda, chiroqlar shipgaosmaravishda o'rnatiladi. Chunki

bunda bolalar qo'llarini chiroqqa uzata olishmaydi. Agar bu chiroqni xona o'rtasidan xonaning istalgan joyiga, masalan, stol ustiga, deraza yoniga yoki karavot ustiga siljitish mumkin bo'lsa, u holda yanada yaxshiroq qulaylik yaratiladi.

Bolalar xonasining polini to'shakchalar bilan qoplash alohida e'tibor ajratishni taqozo etadi. Pol to'shalmasi gigiyenik talablarga qat'iy javob bermog'i, to'shalma yuqori sifatga va issiq saqlovchanlikka ega bo'lishi kerak. Kovrolaklarning har bir turlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir, chunki ular pishiq ishlangan bo'ladi. Unda chiqib turgan o'simtalar bo'lmaydi, changni o'ziga yutmaydi, bukilganda tirishgan joylar, siniq joylar hosil bo'lmaydi. Binolar xonasi uchun linoleumdan foydalanish ham maqsadga muvofiq, chunki u juda gigiyenik va yengil tozalanadi. Faqat karavot oldiga yorqin tondagi kichik gilam to'shalsa yanada yaxshiroq bo'ladi. Linoleumni ko'rpa-to'shakning yuzi bilan uyg'unlashtirib, xonaning ma'lum hayotiylikiga erishish mumkin.

Kichik yoshdagi o'g'il va qiz bolalar vaqt o'tishi bilan ulg'ayadilar va ularning o'spirinlik davrida mustaqil his qilishi va didi shakllana boshlaydi. Ular rivojlanishining bunday davrida o'zining xususiy «boshpana»siga ega bo'lishi haqiqiy reallikka aylanadi. Natijada xonadonni qaytadan moslashtirish, mebellarni almashtirish, qayta o'rnatish, yangisini xarid qilish va oilada sodir bo'layotgan o'zgarishlarning qoniqtiradigan yechimlarini izlab topish zaruriyati yuzaga keladi. Bu zaruriyat oilada bir qator muammolarni oldinga suradi, bular haqida, albatta, oldindan o'ylash kerak bo'ladi. Agar bolalar xonasi kelajakni hisobga olgan holda jihozlab borilsa, u holda bunday holat ko'p jihatdan o'smirlar va yoshlarning ehtiyojlariga mos kelishi mumkin. Agar oilada o'g'il va qiz ulg'ayotgan bo'lsa, muammo yanada murakkabroq tus oladi. Bunday vaziyatlarda agar xona yetarli darajada katta bo'lsa va qarama-qarshi joylashgan ikkita derazaga ega bo'lsa, u holda bu xonani pardevor bilan ikkiga bo'lish mumkin. Bunday pardevor sifatida yengil shkaf-devordan foydalanish ko'p qulayliklarga ega bo'lgan muhitni hosil qiladi. Shkafga vertikal va gorizontal yo'nalishda ikkita karavotni o'rnatish, uning har ikkala tomonidagi qolgan qismidan jovonlar va kutubxona sifatida foydalanish mumkin. O'smir va yoshlar xonasini jihozlash, odatda, quyidagilardan: karavot yoki divan, katta bo'lmagan shkaf, ish stoli, kitoblar uchun bir nechta javonli moslamadan tashkil topadi. Jihozlarni o'spirin yoshlar o'zlarining dididan kelib chiqqan holda tanlaydilar.

Agar xonada bo'sh joy bo'lsa, u holda u joyga yengil konstruksiyaga

ega bo'lgan kresloni qo'yish, xonani yoritishda torsher yoki osma chiroqlardan foydalanish mumkin, polga katta bo'magan oddiy naqshli gilam va original sinovka to'shaladi.

Xo'jalik-kommunikatsiya hududi oshxona, dahliz, xonadon ichki yo'laklar, shlyuz va omborxonadan tashkil topadi. Odatda, uning xizmat ko'rsatishda qulay bo'lishi uchun tantanavor hudud yaqiniga joylashtirish qabul qilingan. Bu hududni tantanavor va irsiy hudud orasiga joylashtirish *klassik tizim* deyiladi. Interyerni tashkil etishda ulardan oshxona va dahliz muhim rol o'ynaydi.

Oshxona. Zamonaviy xonadonlarda oshxona uning loyihalanishida muhim element hisoblanadi. Xonadon rejasida oshxonaning egallagan o'rnini xonadon interyerining butun fazoviy bog'lanish tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Yaqingacha odatdagi oshxonaning fazoviy kengligi yuzasi 8 — 11 m² tashkil etadi.

Bunday fazoviy bo'shliqqa oshxona jihozining odatiy to'plamini, televizorni ham, gullar, kitoblarni ham sig'dirishga to'g'ri kelgan. Texnik jihatdan ta'minlangan, shinam oshxona nafaqat uning egasi uy bekasiga, balki boshqa oila a'zolariga ham xush kayfiyat bag'ishlaydi. Uy bekasi esa o'z oilasi bilan doimiy muloqotda bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, oshxonaning ahamiyati umumiy xonaning mavqeyigacha ko'tarilayпти. Uning ahamiyati butun xonadon interyeri uchun ham estetik jihatdan o'sib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ishlaydigan ayol o'z vaqtini bir kunda 2 soatdan 4 soatgacha oshxonada o'tkazarkan, uydagi xo'jalik ishlarini olib borishga sarflanadigan vaqtni tejashga va oshxonadagi ishlarni yengillashtirishga qaratilgan turli tadbirlar juda yuqori baholanadi, ya'ni katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oshxonalarni loyihalashda asosiy maqsad uning fazoviy kengligi va jihozlanishi mehnatni yengillatishga va vaqt sarfini qisqartirishga xizmat qila olishini ta'minlashga qaratiladi.

Bu maqsadga erishish uchun oshxonani oqilona rejalash, uning tipini xonadongamos tarzdaratsional tanlash asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday holatdan kelib chiqqan holda oshxonada ro'y beradigan hamma funksional jarayonlarni birlashtiradigan yagona tizim o'rnatiladi. Bu tizim asosida jihozlarning hamma elementlari o'rnatiladi va oshxona ikkita hudud — ovqat tayyorlash va ovqatlanish hududlariga bo'linadi. Ovqatlanish hududidan oshxonada o'tkaziladigan boshqa jarayonlar uchun ham foydalanish mumkin. Oshxona jihozlari ishchi yuzasining balandligi 85 sm qilib qabul qilinadi, ularning maksimal eni 60 sm ni,

minimal eni esa 30 sm ni tashkil etadi. Turar-joylarni loyihalashtirishda oshxonalarni jihozlashning uchta asosiy usuli qo'llaniladi:


— jihozlarning alohida unsurlari (gaz plita, idish yuvgich, sovitgich, ish stoli, osma shkaflar) to'plami bilan jihozlash;

— pastki va yuqori qator bo'limlariga ega bo'lgan baland shkaflni ifoda etuvchi seksiyali jihozlar bilan jihozlash;

— uyni qurish jarayonida montaj qilib o'rnatiladigan jihozlar bilan to'ldirish.

Oshxona jihozlarini bir qator chiziqda joylashtirish texnologik talablar natijasi hisoblanadi va estetik talablarga javob beradi. Alohida elementlarning kompozitsion birlashtirilishi bilan interyerda yaxlitlik va ko'rkamlikka erishiladi. Oshxonadagi fazoviy bo'shliq jihozlarning alohida hajmda o'rnatiladigan oshxonadagiga qaraganda ancha keng his qilinadi. Jihozlar bir qator qilib, devorga taqab joylashtirilishi sun'iy yoritishning yangi yechimini talab etadi. Oshxonani sun'iy ravishda markaziy chiroqlar yordamida yoritishda ish stolining yuzasiga ishlayotgan odamning soyasi tushishi ovqat tayyorlash jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatadi, buni bartaraf etish maqsadida ish stoli yuzasini yoritish ko'zda tutilmog'i lozim. Ish stoli yuzasini yoritish past tekisliklarda osma elementlarni tashkil etish va devorga lyuminessentli chiroqlarni montaj qilish orqali amalga oshiriladi.

Oshxona o'lchamlarining nisbati, xona konfiguratsiyasi, deraza va eshik oraliqlarining joylashishi o'rniga bog'liq ravishda jihozlarni joylashtirishning 4 ta tizimidan biri qo'llanishi mumkin. Ensiz tomonida bitta derazaga ega bo'lgan cho'zinchoq shakldagi oshxonalarda jihozlarni devorning uzun tomonlaridan biri bo'ylab joylashtirish keng tarqalgan (89-rasm).




89-rasm. Oshxona jihozini bir qator qilib joylashtirishga doir misol.


Bu tizimning ustun tomonlari ishchi operatsiyalarning funksional ketma-ketlikda yengil bajarilishiga erishish, muhandislik uzaytmalarning tejaliishi va jihozlarning oddiy tayyorlanishi bilan izohlanadi.

Tizimning kamchiliklariga ish frontining uzunligi va xonaning ensizligi tufayli nonushta stolini joylashtirishda qiyinchilikning yuzaga kelishi kiradi. Bunda jihozlar qisqartirilgan tarkibda qo'llanishi mumkin. Deraza oralig'i yer yuzasidan 0,85 sm bo'lgan holatda jihozlarni «Г» shaklida joylashtirish mumkin. Bunday tizim foydalanish uchun juda qulay. Bu tizim ham bir qator chiziqli tizimdagi kabi qator ustunliklarga ega. Unda ham jihozlarning ketma-ketligi ta'minlanadi. Agar bir qator chiziqli tizimda ish frontining uzunligida kamchiligi bo'lsa, «Г» simon tizim bunday kamchilikdan xoli bo'lib, unda xizmat qilish yo'li qisqaradi, uy bekasi jihozlarning hamma tugunlarini ko'rgan holda o'tirib ishlashi mumkin. Deraza orqali tushayotgan yorug'lik ishchi yuzani yaxshi yoritadi. Hamma tizimning kompaktligi barcha hollarda nonushta stolini qulay joylashtirish imkonini beradi. Bunda oshxonaning fazoviy bo'shlig'i ishchi hududi va ovqatlanish hududiga puxta qilib bo'linadi. Jihozlarning burchakli joylashtirilishi deraza orqalari bo'lmagan devor yoniga ham o'rnatilishi mumkin.

Bunday jihozning bir tomoni tabiiy yoritilishga nisbatan noqulay holatda joylashadi. Jihozlarning burchakli joylashtirilishi katta va kichik yuzaga ega bo'lgan oshxonalarning shakli kvadrat yoki bo'yi uzunroq to'rtburchak, jihozlar tarkibining to'liq yoki qisqartirilishidan qat'i nazar har qaysisi uchun ham qulaydir. Oshxonalarni loyihalashda ish joylarini tabiiy yorug'lik bilan yoritishga katta e'tibor qaratiladi.




90-rasm. Oshxona jihozini burchakli joylashtirishga doir misol.



To'g'ri va yon tomonlardan yoritilganda oshxonada ishlash uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Ya'ni jihozlarning ish tekisligi deraza yoniga yoki derazaga tutashib ketgan devor oldiga joylashtirilganda ish yuzasi tabiiy yorug'lik yordamida yaxshi yoritiladi. Oshxonalarni loyihalashning yomon shakli bu jihozlarning deraza oralig'iga qarama-qarshi turgan devor yoniga joylashtirilishidir. Bunday yechim faqat oshxonalarning o'Ichamlaridan biri ancha uzun bo'lgan holda va tabiiy yoritish ushbu oshxona uchun asosiy deb hisoblanmagan hollarda o'zini oqlashi mumkin.

Jihozlarni deraza atrofiga joylashtirish, shubhasiz, yaxshi usul hisoblanadi, lekin bunda osma shkaflarni o'rnatishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Deraza oynalarining ishchi tekislik balandligida joylashishi oshxonani yaxshi yoritadi va osma shkaflar ustidagi tasmasimon oynali derazalar oshxonaning bir tekisda yoritilishini ta'minlaydi. Interьер hamda uy fasadining ko'rinishi nuqtayi nazaridan bunday usul ancha qiziqarlidir.



91-rasm. Oshxona taxmonining tarxii yechimiga doir misol.

Zamonaviy loyihalash qurilish amaliyotida oshxonalarning uchta asosiy turi qabul qilingan: oshxona-taxmon; oshxona-yemakxona, ishchi oshxona. Xonadonni loyihalashda oshxonalarning u yoki bu turining tanlanishi oila tarkibi, uydagi xo'jalik yuritish xarakteri, turar-joyning shinamlik darajasi ijtimoiy xizmat ko'rsatishining mavqeyi bilan aniqlanadi.

Oshxona-taxmon katta bo'lmagan xonadonlarda hamda mehmonxona tipidagi uylarda qo'llanadi. O'zining kichik gabaritlari tufayli u, odatda, yashash xonasining taxmoni (nishasi)ga joylashtiriladi va idishlarni yuvish uchun rakovina, katta bo'lmagan ish stoli va elektr yoki gaz plitasi bilan jihozlanadi (91-rasm). Oshxona-taxmon, odatda, umumiy xonaga yoki dahlizga joylashtiriladi va tabiiy yoritilishga ega bo'lmaydi. Oshxona-taxmonning umumiy xonaga joylashtirilishida, albatta, elektr plita qo'llanishi taqozo etiladi.

Bunday oshxonaning maydoni jihozlarni faqat ishchi hududga joylashtirish imkonini beradi. Taxmonning eni 70 sm dan kam bo'lmashligi, uzunligi esa elementlar to'plamiga bog'liq bo'lib, 1,4 m va undan katta bo'lishi mumkin. Taxmon suriluvchan pardevor


yoki tabaqalar bilan to'silishi mumkin. Bunday holda oshxona jihozlariga ega bo'lgan shkaf hosil qilinadi.

Oshxona-yemakxona. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki ko'p hollarda oddiy oshxonalar yemakxona sifatida ishlatiladi (92-rasm). Ayniqsa, bunday holat qishloq joylarida o'zining yaqqol xarakterini namoyon etadi.


Oshxonalarning bunday jihozlari juda qulay bo'lib, bu yerda hamma narsa «qo'l ostida» bo'ladi: idish-tovoq ham, plita ham, stol ham, suv ham va h.k. Bularning hammasi faqat uy bekasi uchun qulay, chunki kun davomida ko'p harakatlanishining oldi olinadi, oshxonadan oshxonaga va aksincha bo'lgan harakatlar ancha qisqaradi. Loyihaviy nuqtayi nazardan oshxona oshxona-yemakxona bilan qo'shma tarzda joylashtiriladi va ular ochiq fazoviy bo'shliq orqali o'zaro birikadi yoki suriladigan pardevorlar bilan ajratiladi. Bunday oshxona, odatda, ish stoli, rakovina va gaz plitasi yoki elektr plita bilan ko'chmas holatda jihozlanadi. Oshxona-yemakxonaning minimal yuzasi 8 m^2 ni tashkil etadi. Xonadonda xonalarning ko'payishiga bog'liq ravishda uning maydoni 10 m^2 gacha kengayishi mumkin. Bunday oshxonaning eni jihozlarning joylashishiga bog'liq bo'ladi: jihozlarning bir qator joylashishida oshxonaning eni $2,4 \text{ m}$ dan kam bo'lmasligi, burchakli yoki ikki tomonlama joylashishida esa uning eni $2,5 \text{ m}$ dan kam bo'lmasligi lozim.

Maydoni 6 m^2 dan yuqori bo'lgan oshxonada ovqatlanish uchun


doimiy hududni tashkil etish mumkin. Odatda, bu hudud-dan boshqa oila a'zolari ham turli yumushlarni bajarishda ham foydalanishadi. Oshxona-yemakxona uning funksional jihatdan yuklanganligiga muvofiq ravishda




92-rasm. Oshxona-yemakxonaning tarxiy yechimiga doir misol.



93-rasm. Oshxona jihozini ikki qator qilib joylashtirishga doir misol.



keng tarkibdagi jihozlarga ega bo'лади. Eni kattaroq 2,1 m dan kam bo'lmagan holda. Oshxonalar shakli kvadratga yaqin bo'lganlarning ikkita qarama-qarshi tomonlari bo'yicha har bir tomonga bir qatordan jihozlarni joylashtirish ancha qulay (93-rasm). Bunday jihozlar shunday taqsimlanadiki, unda bir devordan qarama-qarshi tomonga ish jarayonida ortiqcha yurishning oldi olingan bo'lishi kerak. Oshxonalarda mehnatni tashkil etishning umumiy tizimidan kelib chiqqan holda jihozlarni ikki qatorli tizim asosida joylashtirishda ular quyidagicha taqsimlanadi: birinchi qatorda: ish stoli, yuvish moslamasi, gaz plita; ikkinchi qatorda:



94-rasm. Oshxona jihozini uch qator qilib joylashtirishga doir misol.

mahsulotlar va idish-tovoqlarni saqlash uchun shkaf, sovitkich, ikkinchi yuvish moslamasi (moyka)ni joylashtirish mumkin. Bu ikki qatorli tizim ajablanarli darajada ustunliklarga ega. Bu yerda ishlash hududi qisqa bo'lganligi tufayli bir vaqtning o'zida jihozlarning ikkala tomonidan ham foydalanish mumkin. Bunday oshxonaning ish hududi derazaga bemaol yetib borish imkoniyati mavjud. Lekin nonushta stolining deraza yoniga joylashtirilishi oshxona hududiga ishchi hudud orqali o'tishga xalaqt qiladi. Jihozlar joylashtirilishining ikki qatorli tizimi qo'llanilgan hollarda elementlarni «П» shaklida joylashtirish orqali bir-biriga tutashtirish mumkin (94-rasm). Bu tizimlardan har biri ijobiy va salbiy sifatlarga ega. Bu usul ish joyining kompaktiligini kamaytiradi, oshxona-yemakxonadagi fazoviy kenglikni ish hududi va ovqatlanish hududi kabi funksional hududlarga puxta qilib ajratib beradi. Sharoitdan kelib chiqqan holda jihozlarning uch qatorli tizimi har xil holatlarni egallashi mumkin: uchala qator ham devorga «П» shaklida taqalishi yoki bir

qator alohida «Г» shaklida bo'lishi mumkin. Bunday yarim alohidalik bo'lib nonushta stoli, shkaflí seksiyalar yoki unisi ham, bunisi ham bir vaqtning o'zida qo'llanilishi mumkin. Ba'zida jihozlarning elementlari shiftga cha yetib bormaydigan shkaflí pardevorlarning o'rnatilishi ularning ikki tomonidan ham foydalanish imkonini beradi. Bunday pardevorga nonushta stolini ham o'rnatish mumkin (95-rasm).


Ishchi oshxona — bu joy faqat ovqat tayyorlash uchun mo'ljallanadi, shuning uchun boshqa xonalardan muhofaza qilingan holda joylashtiriladi (96-rasm). Oshxona bilan bevosita yagona aloqada bo'ladigan joy bu oshxonadir. Oshxonaning yuzasi 7 m² dan kam bo'lmasligi taqozo etiladi va o'lchamlarining nisbati 2,0 x 2,2 m bo'lishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida oshxona universal turdagi yozgi ayvon bilan bevosita bog'lanishga ega bo'lishi lozim yoki milliy taomlarni tayyorlashga mo'ljallangan maxsus ochiq joy bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. Shu sababli oshxona yashash xonalari orqali shamollantirilishga ega bo'lasligi kerak, chunki oshxona bilan bog'lanish lodjiya yoki balkonlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ishchi oshxona xonadonlardagi tabiiy yorug'lik bilan ta'minlangan mustaqil muhofaza qilingan xonalarga joylashtiriladi.

Bunday oshxona, asosan, ovqat tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalar va ovqat qabul qilindandan keyin yig'ishtirish-tozalash ishlarining bajarilishiga mo'ljallanadi. Unda turli buyum va narsalar




95-rasm. Oshxona jihozi tizimidagi shkaflí pardevor.



96-rasm. Ishchi oshxonaning tarxii yechimiga doir misol.

saqlanadigan xo'jalik shkafi, dazmollash uchun moslama, yig'iladigan yoki statsionar stol uchun ham joy topiladi. Bunday oshxona 4,5 dan 6 m² gacha bo'lgan maydonga ega bo'ladi, uning minimal eni 1,8 m ni tashkil etadi.


Dahliz. Rejaviy element taqsimlovchi kuluar funksiyasini bajaradi, undan yashovchilar xonadonning hamma xonalariga kiradilar (97-rasm). Shuning uchun uning yashash uyining tarkibida egallagan o'rni muhim ahamiyatga ega. Yashash uyida oshxona, kabinet bilan qulay bog'lanishni hisobga olgan holda dahliz joylashtiriladi. Uning 1,4 m bo'lgan minimal eni me'yorlar orqali o'rnatilgan. Dahlizga, odatda, ustki kiyimlar uchun mo'ljallangan poyabzallar taxlab qo'yiladigan taxtalar o'rnatilgan qo'shma tarzda qurilgan shkaf, toshoynali g'aladonli quticha, telefon stoli stuli bilan o'rin egallaydi. Dahliz xonadonning qorong'iroq qismiga joylashtirilganda, oynali eshiklar yoki qo'shimcha xonalarning tuynuklari orqali yoritiladi. Bu qo'shimcha yorug'lik oraliqlari ko'rish orqali qabul qilishda fazoviy bo'shliq kattalashgandek his qilinishi bilan interyerni yanada boyitadi. Dahliz xonadonni hududlarga ajratadigan joy sifatida xizmat qiladi, alohida xonalarning mustaqilligini ta'minlaydi va bir vaqtning o'zida bu xonalarni bir-biri bilan bog'laydi. Dahliz ustki kiyimlarni va poyabzallarni, xo'jalik va sport buyumlarini saqlash uchun ham xizmat qiladi. Bu yerda xonadondan chiqishdan oldin kiyiniladi, kirgandan keyin esa ustki kiyimlar yechiladi hamda mehmonlar kutib olinadi. Xonadonlarning interyerida u muhim rol o'ynaydi. Interiyerning kompozitsiyasi xuddi shu yerdan boshlanadi va uning yechimi estetik baholanadi. Bu asosiy funksiyalarga muvofiq ravishda dahlizning jihozlar bilan jihozlanishini ham taqozo etadi. Turar-joy binolari rejaviy elementlarining me'yoriy hujjatlarida dahliz uchun mo'ljallangan jihozlarning ro'yxati berilgan. Bu ro'yxatga kiyimlarni osish moslamasi, poyabzallar qutisi, banketka, jurnallar stolchasi, xo'jalik buyumlari va




97-rasm. Zamonaviy xonadonda dahlizning joylashtirilishi.

ustki kiyimlar uchun shkaf hamda turli kitobjavonlar kiradi (98, 99-rasmlar). Kundalik foydalaniladigan kiyim ilgich uchun devorning erkin yuzali tekisligi zarur bo'ladi. Kiyim ilgich uchun maxsus taxmonning ko'zda tutilishi ancha qulaydir.

Uning yuqori qismidagi taxta bosh kiyimlar uchun mo'ljallangan bo'ladi, pastki qismiga esa poyabzallar taxlanadigan taxtalar o'rnatiladi. Bunday taxmonni parda yoki yig'iluvchi moslama bilan to'sish mumkin. Toshoyna dahliz uchun zarur bo'lgan jihoz bo'lib, u harakatlanish chizig'idan chetiroqda joylashgan devor tekisligiga



98-rasm. Zamonaviy yashash xonadonida dahlizni tarxiiy tashkil etishga doir misol.



100-rasm. Garderob sifatida qo'llanadigan yopiladigan taxmonga ega bo'lgan dahliz.

poyabzallarni o'tirgan holatda kiyish, uchun xizmat qiladi.

o'rnatiladi, uning oldida eni 30 sm dan kam bo'lmagan bo'shliq qoldiriladi (bu tanani ko'rish uchun). Toshoytnani kiyim ilgichning yaqiniga osish yoki o'rnatish ma'qulroq bo'ladi. Agar toshoytna burchakka o'rnatilsa, u holda tegishli devor bilan toshoytna orasidagi masofa 30 sm dan kam bo'lmasligi kerak. Toshoytna bilan birgalikda gigiyenik narsalar uchun mo'ljallangan taxtali moslama o'rnatilishi yoki stolcha joylashtirilishining ko'zda tutilganligi muhimdir. Dahlizga telefon jurnallar uchun alohida stolcha joylashtiriladi; stul yoki banketka telefonda gaplashish va kutish

Xonadonning boshqa xonalari singari dahlizda ham asoslangan hududlarning bo'lishi hisobga olingan holda loyihalanadi. Bundan kelib chiqqan holda uning har bir hududida qulay sharoitni ta'minlovchi dahliz enining minimal o'lchamlari o'rnatilgan. Dahlizning eni hech bo'lmaganda 130 sm, mumkin qadar 150 sm dan kam bo'lmasligi talab etiladi.


Dahlizning rejaviy sifatlari eshik oraliqlarining joylashishiga va soniga bog'liq. Dahlizning 1,3 minimal enida xonadonning dahlizga tashqaridan kiriladigan eshigi bir tabaqali bo'ladi va xonadon ichiga qaratilib ochiladi. Dahlizning funksiya bajarishi va boshqa imkoniyatlari avvalombor uning yuzasi o'lchamlariga, undan keyin dahlizga qarata ochiladigan eshiklar soniga bog'liq bo'ladi. Agar dahliz yetarli bo'lmagan o'lchamlarga ega bo'lsa, u holda funksiyalarining ma'lum bir qismi boshqa xonalar zimmasiga o'tkaziladi, bu esa yashash xonalaridan to'g'ri foydalanish tartibiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Dahlizning funksional jihatdan ortiqcha yuklanganligi unda ko'plab har xil narsalarning to'planishiga olib keladi, oqibatda pala-partishlik, buyumlar uyumining hosil bo'lishi xonadon interyerini ham buzadi. Bunday holda dahlizga qo'shib qurilgan shkaf uning jihozlanishining eng yaxshi ko'rinishini namoyon qiladi (*100-rasm*). Kiyimlar va poyabzallar uchun o'rnatilgan shkaf qatorida turli xo'jalik-ro'zg'or buyumlari, anjomlari saqlashga mo'ljallangan shkaf, kitoblar uchun taxtalar ham bo'lishi mumkin.

Bunda dahliz jihozlarning ko'plab elementlaridan ozod etiladi, sig'imi esa kengayadi. Qo'shib qurilgan shkafli dahliz alohida turuvchi elementlarga ega bo'lgan dahlizga qaraganda ancha erkinroq, kengroq qabul qilinadi, uning interyeri esa tugallanganlik va yaxlitlikni namoyon qiladi. Bunday ko'rinishda u haqiqatdan ham xonadonning vestibyuliga aylanishi mumkin va uning xonadondagi kompozitsion-estetik ahamiyati yanada ortadi.




101-rasm. Umumiy xonaning dahliz bilan kompozitsion yakdilligi.



102-rasm. Sanitar-texnik jihozlarga ega bo'lgan sanitar tugunlarning tarxii yechimlariga doir misol: A—vanna, unitaz, qo'l yuvgich; B—unitaz, qo'l yuvgich, dush tagligi.

Xonadonning fazoviy bog'lanishlari tizimida dahliz ko'pincha umumiy xona bilan birgalikda yechiladi. Bunda u bilan yagona butunlikni tashkil etadi. Ikkita fazoviy bo'shliqning yagonaligiga dahlizni umumiy xonaga keng oynali eshiklar yoki yig'iladigan pardevorlar orqali maksimal ochish bilan erishiladi (101-rasm). Bunda, odatda, tabiiy yorug'likdan mahrum bo'lgan dahlizning katta bo'lmagan fazoviy kengligi, lekin uning umumiy xona fazoviy kengligiga qaratilganligi tufayli unga yorug'likning «quyulishi» xonadonga kirishda kenglik va erkinlik his qilinishini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari bundan kerak bo'lgan paytda umumiy xonaga dahlizni birlashtirish evaziga uning fazoviy bo'shlig'ini oshirish imkonini beradi. Ba'zida dahliz umumiy xonadan mutlaqo shartli ravishda shiftgacha yetib bormaydigan stellajlar yoki bir tomoni shkafl bo'lgan seksiyalar bilan ajratiladi. Bunday hollarda dahlizning badiiy yechimi umumiy xonaning yechimlari bilan uzviy bog'langan bo'ladi — ular birgalikda xonadonning bosh kompozitsion markazini tashkil etadi (109-rasm). Dahlizni yoritishda sun'iy va tabiiy yorug'likning



103-rasm. Hojatxona va vanna-xonaning alohida joylashishiga doir misol.

turli tizimlari qo'llanadi. Dahlizlar bitta yoki ikkita oq plafon bilan yoritiladi, bu plafonlar behisob yorug'lik tarqatadi. Dahliz ko'p jihozlar tiqib joylashtiriladigan joy emas, uning bezatilishi jihozlar bilan tig'iz to'ldirilmagan holda jiddiy va sokin bo'lmog'i lozim. Biroq bu degani yuqoridan yoritishga mo'ljallangan chiroyli plafon yoki qandildan interyerning kompozitsion aksenti sifatida foydalanish imkonini inkor etmaydi.


Poklanish — tozalik. Bu hudud vannaxona, yuvinish va hojatxonalardan tashkil topgan xonalar guruhini o'z tarkibiga kiritadi. xonadonning tipiga bog'liq ravishda sanitariya tugunlari qo'shma bo'lishi, ya'ni hamma jihozlar (vanna yoki dushli paddan, yuvinish moslamasi va unitaz) bitta xonada joylashishi (*102-rasm*) va ajratilgan holatda, ya'ni vanna yuvinish moslamasi bilan alohida xonada, unitaz esa boshqa xonada joylashgan bo'ladi (*103-rasm*). Sanitar tugunning birinchi turi, asosan, yolg'iz insonlar, kam tarkibli oilalar uchun mo'ljallangan bir xonali xonadonlarda, ikkinchi turi mehmonxona xonalari hamda katta oilalar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Qo'shma sanitar tugunlar ancha kam qulayliklarga ega bo'ladi, shu tufayli ularning qo'llanishiga iqtisodiy mulohaza yuritishdan kelib chiqqan holda va faqat kichik gabaritli xonadonlarda yo'l qo'yiladi. Kichik gabaritli xonadonlarda bunday noqulaylik aytarli darajada kuchli ta'sir o'tkazmaydi. Asosiy jihozlardan tashqari sanitar tugun xonalarga yordamchi jihozlar qatori: kir yuvish mashinasi, kir choyshablar qutisi, kursi, toshoyna hamda sochiqlar va kiyimlar uchun ilgichlar kiradi.

Vannaxonaning o'lchamlari bu hamma jihozlarning gabaritlari hamda unga bimalol kirish va harakatlanishni ta'minlaydigan erkin fazoviy bo'shliqdan aniqlanadi. Uning eni 1,4 m dan kam bo'lmasligi lozim. Sanitar-texnik me'yorlarda vannaxonaga bevosita dahlizdan yoki yo'lakdan kirish tavsiya etiladi, lekin kirish eshigini oshxona-yemakxona yoki yashash xonalariga o'rnatishga mutlaqo yo'l qo'ymaslik lozim. Vannaxonaga qo'yiladigan majburiy talab bu uning so'rib oluvchi qurilma yoki faol shamollatish uchun yorug'lik o'tadigan oraliq bilan ta'minlanganligi bilan bajariladi. Mumkin qadar uni tabiiy yorug'lik bilan yoritish tavsiya etiladi.

Mablag'ni tejash maqsadida sanitar tugunlarni oshxona yoniga joylashtirish tavsiya qilinadi. Bunday yo'l tutilganda suv uzatish quvurlari, tirsaklar va vertikal kanalizatsiya quvurlarining ancha kam sarflanishi evaziga iqtisod qilishga, tejamkorlikka erishiladi. Biroq bunday rejaviy tizimga faqat shunday vaziyatlarda yo'l qo'yiladiki, qachonki oshxona bevosita yemakxona bilan bog'lanmagan bo'lsa.

Hojatxonalar. Hojatxonalarni rejalashga va joylashtirishga o'ta qat'iy talablar qo'yiladi. Ularning gabaritlari, asosan, ularga qo'llanadigan jihozlarga bog'liq bo'ladi. Har qanday holatda ham hojatxonaning bo'yi 1,2 m bo'lganda eni 0,85 m dan kam bo'lmasligi lozim (agar eshik tashqariga ochilganda) va uning bo'yi 1,4 m dan kam bo'lmasligi taqozo etiladi, agar uning eshigi ichkariga ochilsa. Agar hojatxonaning asosiy

jihozlari tarkibiga qo'l yuvgich va bide kiritilsa, u holda uning gabaritlari kattalashtirilishi mumkin (104-rasm). Xuddi vannaxonadagi singari unga kirish dahliz yoki yo'lakcha orqali amalga oshiriladi, lekin unga kirish eshiklarini bevosita oshxonaga yoki yashash xonalariga o'rnatish mutlaqo man etiladi. Ko'p xonali xonadonlarda (besh va undan ortiq) sanitar-gigiyenik me'yorlarda ularga ikkita hojatxona joylashtirish tavsiya etiladi: bittasini dahliz yoniga, ikkinchisini yotoqxona yaqiniga joylashtirish ancha maqsadga muvofiq keladi. Xuddi sanitar tugunlar kabi hojatxonalar ham sun'iy ravishda va tabiiy yorug'lik tizimi yordamida yaxshi shamollatilishi talab etiladi. Bu me'yoriy talabning bajarilishi O'zbekiston sharoitlari uchun alohida muhim ahamiyatga ega.



104-rasm. Hojatxonalarning tarxii yechimlari va sanitar-texnik jihozlariga doir misollar: A — bir unitazli hojatxona; B — unitaz va qo'l yuvgichga ega bo'lgan hojatxona.

JAMOAT BINOLARI. ASOSIY XONALARNING INTERYERI VA JIHOZLARI

1-qism. Fazoviy tarkibni shakllantirish

Jamoat binolari turar-joy binolaridan farqli o'laroq interyerni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari va qonuniyatlariga ega. Bu jihatlari va qonuniyatlar jamoat binolarining bir vaqtda ko'p sonli odamlar jamoasiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallanganligi bilan belgilanadi. Jamoat binolarida turar-joy binolariga qaraganda (nisbatan) katta maydonga ega bo'lgan xonalar talab qilinadi va ular murakkab konfiguratsiyaga ega bo'ladi hamda murakkab jihozlar bilan to'ldiriladi.

Yosh avlodni shakllantiradigan maktab, dam olish va hordiq chiqarish maskani hamda madaniyat o'chog'i bo'lgan teatr va klub, mehnat qilish va ishlab chiqarishga mo'ljallangan sanoat binolari kabi jamoat binolarining har biri alohida fazoviy bo'shliqni talab etadi. Ichki fazoviy bo'shliqni tashkil etish va interyerni shakllantirish masalalari tugallangan arxitekturaviy kompozitsiya sifatida bu bo'shliqni tashkil etish uchun zarur bo'lgan jihatlari va talablarning uzviy bog'liqligi asosida yechiladi.

1. Ichki fazoviy bo'shliq tizimi sifatida loyihalash. Jamoat binolarining interyerini yaratish ichki fazoviy bo'shliqni shakllantirishdan, uning o'lchamlarini, shakllarini, qismlarining nisbatini, qismlarga ajratish xarakteri, ochilish asoslari va shu kabilarni aniqlashdan boshlanadi. Fazoviy bo'shliq insonda erkinlik yoki siqilish, xotirjamlik yoki tashvish, shodlik yoki g'amginlikning his qilinishi bilan qulaylik, shinamlikning yaratilishi bilan hal qilinadi. Bunda murakkablik yangidan hosil qilinadigan hayotiy muhitning moslanganligi va o'zaro bog'liqlik va aloqadorliklarning ko'p sonliligi bilan izohlanadi. Jamoat binosining u yoki bu turining interyerini shakllantirish masalasini faqat tizimli yondashish asosida yechish mumkin. Tizimli yondashish, birinchidan, obyektni har tomonlama baholash, ikkinchidan, interyerni binoning arxitekturaviy qismi deb qabul qilish, ko'rib chiqish va tashkil etilgan fazoviy bo'shliqning nafaqat ichki, balki tashqi qismi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.


2. Fazoviy bo'shliqni qurishning usullari va asoslari. Jamoat binolarining ichki fazoviy bo'shlig'ini tashkil etish tizimi o'zining rivojlanishida kenglikni shakllantiruvchi kompozitsion qonuniyatlarga asoslanadi. Kompozitsiya qurishning tartibi, tamoyili sifatida aynan fazoviy bo'shliqning rivojlanishini insonning biologik, psixofiziologik va estetik ehtiyojlariga muvofiq ravishda oldindan bashorat qiladi, belgilaydi va aniqlab beradi.

Jamoat binolari qurilishining ko'p asrlik amaliyoti qator kompozitsion usullarni to'pladi va ulardan quyidagilar zamonaviy amaliyotda ham keng qo'llaniladi: o'q bo'ylab joylashtiriladigan va eniga qarab rivojlanadigan fazoviy bo'shliq; frontal qurilgan fazoviy bo'shliq, bunda bu bo'shliq o'zining tashqi tomonga keng ochiladigan va front bo'ylab ancha uzunlikka ega bo'lishi bilan xarakterlanadi; markaziy yadro atrofida markaziy rivojlanadigan fazoviy bo'shliq; vertikal bo'yicha rivojlanadigan va nihoyat, geometriya bilan emas, balki bu jarayon atrofida tabiat (tabiiy muhit) mohiyati bilan shart-sharoitlanadigan murakkablashgan fazoviy bo'shliq. Ichki fazoviy kenglikni qurish tabiatini o'rnatadigan bu tamoyillar *interyerni tashkil etishning fazoviy asosi* deb hisoblanadi.

Ichkariga tomon (xonalarining eni bo'yicha) rivojlanadigan fazoviy bo'shliq. Zamonaviy sharoitlarda yuqorida ta'kidlangan tasniflardan biri bilan ifodalanadigan interyerni bunday qurish o'zining asosiga va rivojiga ega bo'ldi (105-rasm). Teatr va kinoda fazoviy bo'shliqni yaratish g'oyasi shundan iboratki, unda tomoshabinlar sahna yoki ekranda nima ro'y berayotgan bo'lsa, faqat o'shani aniq ko'rishlari lozim bo'ladi. Ko'rish talablari zalning bo'yi va eni hamda balkonning ko'rinishi bilan aniqlanadi.


Eng ko'p qo'llaniladigan tizimda teatrning hamma elementlari va barcha asosiy xonalari — vestibul, foye, zal, sahna o'q bo'yicha quriladi. Fazoviy bo'shliq ekran yoki sahna bilan yakunlanadigan o'lchamlar bo'yicha izchil rivojlanadi. Bunday vaziyatda fazoviy bo'shliqni o'q asosida qurish usuli jarayonni o'tkazishning funksional talablari va alohida xonalar orasida bog'lanishlar bilan ifodalangan.

Frontal rivojlanadigan fazoviy bo'shliq. Frontal qurilgan fazoviy bo'shliqni, ya'ni ko'ndalang o'q bo'ylab bevosita davom etadigan fazoviy



105-rasm. Ichki ko'ndalang kenglik bo'yicha rivojlanadigan fazoviy bo'shliqqa doir kenglik.

bo'shliqni tashqi muhitga qaratilgan va ochiq ko'rinib turadigan tabiiy muhit bilan xarakterlash mumkin. Bunday turdagi fazoviy bo'shliq eng katta darajada ko'plab jamoat binolarining talablariga javob beradi (106-rasm). Bunga ko'cha yoki maydonga qaratib ochiladigan zamonaviy do'konlar misol bo'la oladi. Bu borada vokzallar va aerovokzallarning bir qanchasi xarakterli bo'lib, ularda operatsion zal va kutish zallari shaharga kutib olish maqsadida qaratilgan bo'ladi.





106-rasm. Frontal bo'yicha rivojlanadigan fazoviy kenlikka doir misol (Gruziyadagi «cho'qqili» yoshlar lageri).

Frontal kompozitsiya turli funksiyalarni yetarli darajada fazoviy bo'shliqqa birlashtirish va ahamiyati bo'yicha har xil xonalarni bitta fazoviy bo'shliqqa kiritishi mumkin.

Kontsentrik rivojlanadigan fazoviy bo'shliq. Bosh yadro atrofida fazoviy bo'shliqni markazlashtirish yetakchi tamoyil sifatida zamonaviy arxitekturada eng rivojlangan kompozitsiya deb hisoblanadi.

Bu yerda ikkita yo'nalishni kuzatish mumkin — bu yopiq, tashqi muhitdan himoya qilingan fazoviy bo'shliq va aksincha, perimetri bo'yicha periferiyadan boshlab markazgacha yoki markazdan boshlab chekkagacha rivojlanib, keng ochiladigan fazoviy kenglik (107-rasm).


Markaz tomon rivojlanib boradigan yopiq fazoviy bo'shliqqa misol tariqasida Bakkardi firmasining yuqoridan yoritiladigan oynali markaziy fazoviy bo'shliqqa ega bo'lgan binosini keltirish mumkin. Bu fazoviy bo'shliq garderob va kutish zali funksiyasini o'zida mujassamlaydi, shuningdek, o'rindiqlari maydonga va arenaga qaratilgan stadion va sirk kabi keng tarqalgan inshootlarni ham misol sifatida keltirish mumkin. Bunday yechimlar lokalli jarayonni o'tkazishning funksional talablariga javob sifatida yuzaga keladi va shuning uchun mantiqiy jihatdan tushunarli elementar qurishlar deb hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda xollning, tomosha zalining yoki ichki hovlining markaziy fazoviy bo'shlig'i o'zining atrofida boshqa xonalarni jamlaydigan bosh element sifatida butun fazoviy bo'shliqni tashkil etishning kuchli kompozitsion boshlanishi bo'lishi mumkin. Quyosh nurlari tushadigan daraxtlar va basseynga ega bo'lgan hovli, galereyalar qurshovidagi ikki rangli xoll,




107-rasm. Markazlashgan tarzda rivojlanadigan fazoviy bo'shliqqa doir misol (Bakkardi firmasining binosi. Arx. Mis Vann Der Roe).

tomosha zali ahamiyati va o'Ichamlariga ko'ra yirik bo'lgan bu xonalarning va joylarning hammasi o'z atrofiga qolganlarini to'plovchi interyerning asosiy fazoviy kengligi bo'lishi mumkin.

Fazoviy bo'shliqning erkin qurilishi. «Erkin reja» tushunchasi o'zida hech bir tartibsizlik va o'zboshimchalikni namoyon etmaydi. Erkin fazoviy bo'shliqning qurilishida va rivojlanishi zamirida yashirin, yuzaga chiqmagan, lekin ba'zida ma'lum bo'ladigan va nozik, mavjud bo'lgan ancha muhim bog'lanishlar yotadi (108-rasm). Bunday fazoviy kenglikni qurishda erkin fazoning ma'lum ulushi shundaki, avvalombor, bu erkin fazoviy bo'shliq o'zining qurilishidan qat'i nazar geometrik berilgan parametrlarga bog'lamaydi. Fazoviy bo'shliqning qurilish boshqaruvchisi va erkin usullari orasida aniq ajratish chegaralari mavjud emas. Shu bilan bir qatorda fazoviy bo'shliq qurilishining erkinligiga yo'naltirilgan tushuncha butun obyekt kompozitsion qurilishining yetakchi motivlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Berlindagi konsert zalida (arx.



108-rasm. Fazoviy kenglikni erkin tarzda qurishga doir misol (Berlindagi filarmoniya zali. Arx. Sharun).



109-rasm. Murakkab fazoviy bo'shliqni qurishga doir misol (Sentrosoyuz binosi. Arx. Le Korbyuze).

Sharun) hajmiy-loyihaviy kompozitsiyaning erkinligi hech qanday bog'liqlikka ega bo'lmagan holda asosiy hajmlar rangli tasvirda ifoda etilgan. Bu yerda kompozitsiya markazi bo'lib zal xizmat qiladi, uning atrofida odamlarning erkin tarzda o'rnatilgan keng zinapoya bo'yicha harakatlanishi ko'zda tutilgan. Tomoshabinlarning oqimini yo'naltirib bosh fazoviy bo'shliqning yetakchi ahamiyatini saqlagan holda arxitektor bunday jonli tasvir va erkinlikning ko'rinmas tartibini yaratadi.

Murakkab fazoviy bo'shliq. Ko'plab obyektlar, masalan, teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar va shunga o'xshash bo'lgan jamoat binolari ham ancha murakkab hajmiy-fazoviy kompozitsiyalarda yaratilishi mumkin. Bu yerda u yoki bu fazoviy bo'shliq tamoyillarining yechimlari bir-biri bilan uyg'unlashadi va bunday hollarda usulning murakkabligi ulardan birining yetakchilik holati bilan ifodalanadi. Bunda bir vaqtning o'zida qolganlari yetakchilik qilayotgan tamoyilning rejaviy tarkibiga bo'ysunadi.

Fazoviy kenglikning bunday murakkab qurilishiga arxitektor Le Korbyuzening «Sentrosoyuz» binosi misol bo'la oladi (*109-rasm*). Bu yerda fazoviy bo'shliqning o'q asosida va frontal asosda qurilganligini payqash qiyin emas. Bu yerda rejaning tuzilishidagi erkinlik, ayniqsa, karakterlidir. «Erkin» fazo bir joydan boshqasiga «oqib» o'tadi.

3. Ichki fazoviy bo'shliqni qismlarga ajratish. Yagona va himoyalangan fazoviy bo'shliqlarni uyg'unlashtirish usullari.

Loyihalash amaliyotida ba'zan yagona umumiy masala — yagona fazoviy bo'shliq va qator izolyatsiyalangan yopiq fazoviy bo'shliqlarni joylashtirish masalasi yuzaga keladi.

Fazoviy bo'shliqning bu ikki turini bino hajmida joylashtirish, asosan, quyida ko'rsatilgan tashkil etish tizimi bo'yicha hal qilinadi:

a) ularni har xil hajmlarda joylashtirish. Bu usul himoyalangan fazoviy bo'shliqlarning ko'p sonliligi, ularning ma'lum mustaqilligi, asosiy hajmiy bo'shliqqa bog'liq bo'lmaganligi bilan xarakterlanadigan hollardagina ratsional deb hisoblanadi;

b) bir, ikki, uch va to'rt tomonlama yorug'lik frontidan foydalangan holda bosh hajmiy fazoviy bo'shliqning perimetri bo'ylab kichik himoyalangan xonalarni joylashtirish. Asosiy fazoviy bo'shliq katta balandlikka ega bo'lganda himoya qilingan xonalarni ikki, uch va undan yuqori bo'lgan qavatlariga ham joylashtirish mumkin;

d) qavatlar bo'yicha joylashtirish. Bunday yechim tantanavor asosiy qavatni uning katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'rkamligini ta'minlash talablariga bog'liq ravishda ajratib ko'rsatish zarur bo'lgan vaziyatlarda

va qurilish maydonining kichik yuzaga ega bo'lishi tufayli kompaktilikni ta'minlash talablariga bog'liq bo'lgan vaziyatlarda yuzaga keladi;

e) himoyalangan hajmni yoki bunday hajmlarning guruhini bitta inshootning birlashtiruvchi yagona katta fazoviy bo'shliqqa erkin tarzda joylashtirish. Yagona ochiq fazoviy bo'shliqni himoya qilingan alohida xonalar bilan uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan tanlangan usul oxirigacha tugallangan mantiqiy usul bo'lib, u interyer qurilishining puxtaligi va qonuniyatini ta'minlaydi.

2-qism. Jamoat binolarining interyerida qo'llaniladigan tabiiy va sun'iy materiallar

Shakl o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, u hamisha moddiylikka ega. Ichki fazoviy bo'shliqlardagi to'suvchi konstruksiyalar yuzasidan insonga bevosita yaqin turishi uning oldida turli-tuman tasniflarga ega bo'lgan materiallar sifatida namoyon bo'ladi va bunda metall, yog'och, tosh va boshqa tabiiy materiallarning inson tomonidan qabul qilinishi unda boy murakkab his-tuyg'ularni vujudga keltiradi. Interyerda qo'llaniladigan materiallar o'zining boy va turli-tuman sifatleri bilan insonga taniqli bo'lgan tabiiy, an'anaviy materiallarga va insonga hech bir hissiyot bermaydigan, shu tufayli interyerni yaratishda faqat shakl hosil qiluvchi yuzaning sof abstrakt ifodasi sifatida ishtirok etadigan sun'iy materiallarga bo'linadi. Tabiiy tosh va yog'och o'zining tabiiyligi bilan go'zallikni, ko'rkamlikni hosil qiladi va ular ilk qurilish materiali sifatida ishlatilganligi tufayli qadimiy va doimiy ekanligi bilan ham ajralib turadi. Granit, marmar, tuf va ohak o'zining individual tasniflari bilan o'zining chuqur tarixiga ega va tuzilishida tabiatning murakkabligi, turli-tumanligi, go'zalligi va kuchini o'zida mujassam etgan holda doimo saqlagan. Yog'ochni ko'ndalang va bo'ylama kesish orqali ajoyib shakllarni hosil qilinishi, o'zining hayotiyliigi va o'tmishi, tabiiyligi, ilqlik bag'ishlashi va ajoyib xossalari bilan go'zallik, ko'rkamlikni namoyon etadi.

Tabiiy materiallarning ishlatilishi bilan interyerining obrazli ko'rinishini yaratish orqali ularning katta imkoniyatlari ochilib boradi. Bu zamonaviy restoran interyeridagi ochiq balkalar misolida yaqqol namoyon bo'ladi (*110-rasm*). Zamonaviy jamoat binolari interyerlarida keng qo'llaniladigan tabiiy materiallar plastik qoplama va pardoz, turli qotishmalar, kartonlar, mumlar va chegarasiz turli-tumanlikdagi sun'iy bo'yoqlarning yaratilishida faol namoyon bo'ladi.


Hozirgi vaqtda sun'iy materiallar inson tomonidan qabul qilinadigan va unga tanish bo'lgan ikkita faktura va rang kabi sifatlar bilan tasniflanadi. Faktura bu rasm yoki tasvir tashqi yuzasining oyna kabi silliq bo'lib, yaltiroqligi, xiraligi, yengil va yirik donador holatda ko'rinishlarini ifodalaydi.

Sun'iy materiallarning rangi turlicha bo'lishi mumkin va juda nozik did bilan qabul qilinadigan rangdagi materiallardan ishlangan buyumlar ham ko'plab ishlab chiqarilayapti.

Qurilish materiallarining vazni va mustahkamligi — bu ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan muhim sifat konstruksiyaning ratsional mantiqiy qurilishida o'z ifodasini topadi. Bino interyerida ishlatiladigan materiallar inson ongida turli hissiyotlarni uyg'otishga qodir. Masalan, tabiiy materiallardan yog'och issiqlikni his qildiradi; granit marmar, metall esa sovuqlik hissinı tug'diradi.


Interyerda yengillik va u bilan bog'liq bo'lgan shovqinni yutish kabi sifatlarga ega bo'lgan materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ba'zan esa aksincha, materiallarning bikrlık sifatlaridan oqilona foydalanishga to'g'ri keladi. Teri, yog'och, pardozlash fanerasi, po'kak kabi yumshoq materiallardan dam olishga mo'ljallangan xonalar interyerini tashkil etishda foydalaniladi, chunki bu xonalarda jimlik va osoyishta muhitning yaratilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday interyerlardagi muhit bevosita insonni xotirjamlashtirishi, undagi taranglik holatini bartaraf etmog'i va undan charchoqni chiqarib tashlash uchun xizmat qilishi lozim.

Granit, beton, metall, oyna kabi qattiq materiallardan vokzallar va katta vestibyullar, xollar va shunga o'xshash joylarda foydalaniladi. Bunday joylarda odamlar kam vaqtini o'tkazadilar va atrofdagi yuzalarning bunday qattiq materiallar bilan qoplanishi shovqinni yutmaydi, aksincha, kuchaytiradi, keskinlikni, taassurotni oshiradi.



110-rasm. Zamonaviy restoran interyerida ochiq holatda o'rnatilgan beton to'sindan foydalanishga doir misol.

Interyerda qo'llaniladigan materiallar o'z navbatida talablarga javob berishi taqozo etiladi. Birinchidan, materiallarning obyekt mazmuniga muvofiq (mos) kelishi. Interyerda qo'llanadigan material bino ichida ro'y beradigan jarayonga muvofiq kelishi va bu materiallar jarayon kechayotgan paytda yuzaga keladigan ta'sirlarga



111-rasm. Interyerda materiallarning uyg'unlashuviga doir misol (yog'och va tosh).

qarshilik ko'rsata oladigan hissiyotni hosil qilishi kerak. Mana shuning uchun ham shinam restoranlarda mijoz vaqtini o'tkazishni xohlaydi. Ko'chadan ichki fazoviy kenglikka o'tadigan o'tish joyining tashkil etuvchi vestibyullarni tabiiy qo'pol toshlar bilan pardozlash, ayniqsa, juda o'rinlidir. Ish joylarini va auditoriyalarni yengil neytral ton hosil qiluvchi ochiq rangli shtukaturka bilan pardozlash maqsadga muvofiqdir. Shu sababli bunday pardozlangan interyer ish va o'qish jarayonida xalaqit bermaydi. Umuman olganda, interyerni bezatishda pardozlash va qurilish materiallaridan foydalanilganda turli materiallarning yagona kompozitsion yechimda garmonik uyg'unlashuvini topish bosh talab sifatida namoyon bo'ladi (111-rasm). Bunda ular orasida bosh yetakchi materialga o'rin ajratiladi. Bu holda devorning yog'och bilan qoplanishi, g'isht qoplanmasi, faner bilan qoplangan yuzalar misol bo'la oladi. Boshqa ikkinchi darajali materiallar bosh yetakchi materialga muvofiq tarzda tanlanadi. Bu yog'ochning metall, tosh bilan kontraktli taqqoslanishi yoki yog'ochning turli toshlarning har xil qayta ishlanishi va plastiklar bilan taqqoslanishi va boshqalarda ko'rinadi. Bunda nafaqat materiallarning tanlab olinishi, balki ularning zarur bo'lgan va yetarli darajadagi miqdori ham muhimdir.

3-qism. Jamoat binolarining interyerlarida rang va yorug'lik yechimining jihatlari

Interyerni bezatishda u yoki bu rangdan foydalanishda ularning insonga ko'rsatadigan ta'sirlarini hisobga olish lozim bo'ladi. Ma'lumki, iliq ranglarning ta'siri insonga faollik bag'ishlaydi, sovuq ranglar esa

tinchlantiradi. Rang orqali interyer alohida elementlarining mazmuniy ahamiyati yuzaga chiqariladi yoki aksincha, yo'qoladi. Yengil och tonli ranglar orqali neytral vaziyat yaratiladi. Bu vaziyatning ahamiyati shundaki, elementlarni alohida ajratib ko'rsatishda u narsa fon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, maxsus jihozlarni, ko'rsatish belgilari, konstruktiv elementlarning alohida ranglarda bo'lganligi ajratib ko'rsatilishini misol tariqasida keltirish mumkin. Rangli garmoniya insonda hosil bo'ladigan bo'lsa, interyerdagi mavjudlikning tabiiylikdan mustasno hammasi inson tomonidan yaratiladi va unda ishtirok etadigan elementlarning hammasi o'zining rangli tasnifiga ega bo'lganmi degan savol yuzaga keladi. Demak, garmonik rangli muhit yaratishning majburiy masalasi paydo bo'ladi. Rangli garmoniya kontrastli va jismning uyg'unlashuviga bo'linadi.

Ko'p obrazli rangli garmoniya ikki guruhga ajratiladi. Ulardan birinchisi — ranglarning qarama-qarshi qo'yilishiga asoslangan bo'lsa, ikkinchisi ranglarni bir-biriga yaqinlashtirish. Birinchi guruh kontrastli uyg'unlashadi, ikkinchisi esa nyuansli uyg'unlashuvga ega. Quyida bunday ranglarning jamoat binolarining interyerida garmonik uyg'unlashuviga misollar keltirilgan (*112, 113-rasmlar*). Nyuansli sxemani murakkablashtirish va kengaytirish mumkin.

Besh-oltita ranglardan tashkil topgan tizimlarni ham tuzish mumkin. Rangli garmoniya tuzishda top bo'yicha ranglarning tanlanishi chegaralanmaydi. Avvalombor ranglarning och va to'q rangli tavsiflari orasidagi nisbatni aniqlash zarur. Ikkinchi tomondan ranglar bilan bo'yaladigan sirtlarning yuzasini topish kerak. Rangshunoslik kurslarida rangli dissonans tushunchasi o'rganiladi, unda yuqorida ta'kidlangan qonuniyatlardan sezilarli darajada og'adigan uyg'unliklar to'g'risidagi tushunchalar beriladi. Murakkab rangli kompozitsiyalarda ular uyg'unlashuvini kontrastlik asosida belgilash mumkin va tasvirlarning hissiy ta'sir o'tkazuvchanligini oshirish vositasi sifatida ifoda etiladi.

Rang — interyer qiyofasini shakllantirishda uning obrazli tavsiflarni yakunlashda eng muhim elementlardan biri bo'lib hisoblanadi. Juda ham yorqin yoki mos kelmagan rang dissonansni hosil qilishi mumkin, yagonalik va butunlikning buzilishiga olib keladi. Rangning bo'lmasligi beparvolik, atrofga bo'lgan befarqlikni vujudga keltiradi. Odatdagi kulrang tonning tabiiy materiallar bilan uyg'unlashuvi mayin rangli gammani yaratadi va interyerda etakchi bo'lgan daraxt, tabiiy tosh yoki jihozning rangi uchun fon bo'lib ifoda etiladi. Boshqa


tomondan, quyuq yorqin tonlar yordamida katta ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lgan rangli munosabatlarni yaratish mumkin.

Oliy Majlis saroyidagi majlislar zali amfiteatrining qizil rangi oltin rangli daraxt bilan uyg'unlikda ajoyib tantanavorlikni yaratishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Teatr foyelaridagi oq marmar ham ancha tantanavor bo'lgan muhitni yaratadi, silliq yuzali oq marmar bilan qoplangan yuzalarda yonib turgan qandillarning olov rangi akslanib jilolanadi. Rang va material ma'lum yoritilgan muhitda obrazli tasniflarning betakror boyligini yaratadi. Bunday ko'p qirrali talablarni o'zida aks ettirgan interyer kompozitsiyasi interyerining umumiy mazmunidan alohida ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. Interyerining rangli kompozitsiyasi binoning ichki fazoviy bo'shlig'ida ro'y beradigan jarayonlar hamda uning funksional vazifalariga muvofiq kelgan taqdiridagina tomoshabinlar tomonidan qabul qilinadi.

4-qism. Jamoat binolarining interyerli muhitida yorug'likning roli

Inson tomonidan atrofidagi interyerli muhitning qabul qilinishida yorug'lik katta ahamiyat kasb etadi. Jamoat binolarining interyerlaridagi katta oraliqli zallarning yoritilganlik darajasi ta'minlanganligi uning spetsifikasini belgilab beradi.

Yorug'likning inson tomonidan qabul qilinish nuqtayi-nazaridan mulohaza yuritilganda, yorug'lik sirli, tinchlantiruvchi va nihoyat uyg'atuvchan va sergaklashtiruvchan bo'lishi mumkin. Yorug'likning sifat tavsiflari quyidagicha bo'lishi mumkin: to'g'ri tarqalgan nurlar,




114-rasm. Xonani to'g'ridan tushgan yorug'lik bilan yoritishga misol.

tarqalgan tarzda taraladigan yorug'lik va yorug'likning sinish, qaytish xossalari, shu bilan birgalikda yon tomondan, yuqoridan tushadigan yorug'lik (114-rasm). Yoritishning bunday tizimlaridan har biri o'zining o'rni va qo'llanish sohasiga ega.

To'g'ri tarqaladigan quyosh yorug'ligi ko'zlarni qamashtiradi, insonning ishlashiga xalaqit beradi va shu bilan birgalikda bunday yorug'lik insonga ko'tarinki va quvonchli kayfiyat bag'ishlaydi. Yorug'likning tasviriy o'yinini va soyalar hosil qilish uchun mehnat jarayoniga xalaqit bermaydigan joylarda to'g'ri tarqaladigan yorug'likni to'sish maqsadida ish va o'quv xonalariga maxsus quyoshdan himoyalovchi moslamalar o'rnatiladi. Qaytadigan tabiiy yorug'lik maxsus qaytaruvchi tekislar va yorug'lik moslamalari yordamida hosil qilinishi mumkin. Bunday bir yo'nalishda va bir me'yorda taraladigan yorug'lik o'quv va ish xonalari uchun zarur bo'lgan tabiiy yorug'lik deb hisoblaniladi. Bu yorug'lik yoritilganlik darajasini ahamiyatli tarzda oshirishi mumkin.

Tarqoq tarzda taraladigan yorug'lik — bu osmondagi jismlardan qaytgan nurlar bo'lib, bunday yorug'lik yumshoq, mayin, bir maromli va xiraroq bo'ladi. Bunday yorug'lik shakllarni yorqin tasvirlashga qodir emas. Shu tufayli kuchli plastika bilan maqsadga muvofiq ravishda uyg'unlashadi. Shu bilan bir qatorda tarqoq taraladigan yorug'lik ishlash uchun ancha ma'qul bo'ladi, chunki u ko'zlarni toliqtirmaydi. Bunday yorug'lik oraliqlarni shisha bloklar bilan to'ldirish, yaltiramaydigan shisha yordamida ham hosil qilinishi mumkin (115-rasm).

Sun'iy yorug'lik tabiiy yorug'likdan farqli o'laroq maxsus yorug'lik manbalarining yaratilishini talab etadi. O'rnatiladigan yoritish moslamalaridan taraladigan yorug'lik nurlari shift devorlar sirtlarini yoritadi va bu sirtlardan qaytadi — bularning hammasi **sun'iy yorug'lik jihozlarining to'plami** deb ataladi va bu to'plam jamoat binolarining zamonaviy interyerli muhitida o'zining keng qo'llanilishini topdi. Shift va devorlardan hamda konstruksiyalarning alohida




115-rasm. Tarqatilgan yorug'likka misol (shishablok).

elementlaridan qaytgan yorug'lik alohida tasviriy sifatlarga ega bo'ladi. Qaytgan nurlar mayin va bir maromda taralishi bilan birgalikda yorug' joydan qorong'iroq hududga yetarli darajada faol o'tadi, insonga yengil his qiluvchanlik, faollikni baxshida etadi. To'g'ri taraladigan yorqin yorug'likning zo'rayishini pasaytiradi, shakllarga qandaydir rang bergandek bo'ladi va h.k. Qaytgan nurlar tomosha zallaridagi fazoviy bo'shliqni tasavvur qilib bo'lmas darajada kengaytiradi, joylardagi yorug'lik osti nurlari xonani shinamlashtiradi va uning uyg'otuvchanlik xususiyatini oshiradi. Loyiha-qurilish amaliyotida to'g'ri taraladigan va qaytgan yorug'lik nurlarining uyg'unligidan tez-tez foydalaniladi, ularning xususiyati hisobiga boy va rang-barang, turli-tuman kombinatsiyalar hosil qilinadi.

Qaytgan yorug'lik va o'rnatilgan moslamalardan fazoviy bo'shliqqa to'g'ridan to'g'ri taraladigan yorug'lik bilan bir qatorda turli shakllardagi yoritish moslamalari — lyuminessentli yoritgichlardan tortib to shakllari bo'yicha murakkab bo'lgan va kutilmagan shakllardagi turli-tuman qandillar ham keng ko'lamda qo'llaniladi. Shakllar tasodifan ro'y bermaydi, balki bu turli-tumanlik takrorlanmaslik nuqtayi nazaridan ongli ravishda olib borilgan ijodiy izlanishlar va tinimsiz intiluvchanlikning natijasi, samarasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Agar ko'p sonli binolarda yoritkichlar shakli bo'yicha chegaralangan holatda ratsional bo'lsa, hashamatli binolarda zamonaviy qandillar hech ham kutilmagan shaklda abstrakt haykal xarakterini kasb etmoqda (*116-rasm*).

Qabul qilingan yoritish tizimlari arxitekturaviy g'oyaning shakllanishida ishtirok etgan holda eng keng badiiy masalalarni yechib



116-rasm. Olmaotadagi madaniy markaz foyesida o'rnatilgan abstrakt haykal xarakteridagi qandilga misol.

beradi. Ulardan biri — bu yorug'lik aksenti va yechimini hosil qilish orqali bir vaqtning o'zida interyerda bosh bo'lgan ham funksional, ham badiiy masalalarni ajratgan holda yechib beradi. Inshootlar interyerlarining ko'rkamligini ta'minlashda pastdan yorug'lik berish ancha muhim rol o'ynaydi. Pastdan yorug'lik berish yordamida obyektlarning ichki fazoviy bo'shlig'idagi tayanch ustunlar hamda alohida konstruktiv elementlarning kuchi va kuchlanish holati, shakllarning plastik ko'rkamligining his qilinishini hosil qilish mumkin. Jamoat binolarining interyerlarida shiftlar yengilligi va havoyiligining betakror effekti nuqtali yoritgichlarning qo'llanishi bilan yuzaga keltiriladi. Katta maydonga ega bo'lgan ko'p oraliqli binolarda yoritish tizimining bunday turi insonning yorug'likni qabul qilish nuqtayi nazaridan juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki uning boshi ustida bosim o'tkazadigan yuk tasavvur qilinishini bartaraf etadi. Bu borada Rimdagi katta sport arenasi xarakterli ahamiyat kasb etadi. Sport arenasi perimetri bo'yicha tashkil etilgan yorug'lik halqasi yuk ko'taruvchi tayanchlarning ma'lum yengilligini va shu vaqtning o'zida konstruksiyalarning kuchlanganlik holatini anglatgan holda ularning ritmini yuzaga keltiradi. Aylana ko'rinishidagi yuqoridan taraladigan yorug'lik inshoot tom qobig'ini bir maromda yoritib, bu qobiqni ko'rish orqali qabul qilish nuqtayi nazaridan ancha yengillatadi. Nuqtali chiroqlar yordamida yulduzli osmon tasviri (illyuziyasi) hosil qilinadi va shunday yo'l bilan shift inson ko'z o'ngidan forig' qilinadi. Interyerning kutilmagan aspektlari shakllantiriladi, yangi hissiy «quyuq» muhit namoyon qilinadi.

JAMOAT BINOLARI AYRIM TURLARI INTERYERINING YECHIMI. HAJMIY-FAZOVIY KOMPOZITSIYANING USULLARI


Jamoat binolarning ayrim turlariga qo'yilgan talablarni yanada jiddiyroq o'rganish maqsadida ichki bo'shliqni tashkil qilishning kompozitsion usullari xususiyatlarini ochib berish va mumkin bo'lgan yo'nalish bo'yicha ishlashni davom ettirish uchun jamoat binolarining bir nechta turlari bilan yaqindan tanishmoq darkor.

Kinoteatr, maktab va teatr mazmun jihatdan, xonalarning tarkibi, ularning joylashish shartlari, qolaversa, arxitektura janri jihatidan har xil bo'lsa-da, ularning ko'p sonligidan qat'i nazar interyerning shakllanish jarayonini to'liq ochib beradi.


1-qism. Kinoteatrlar interyeri

Kinoteatrlar jamoat binolarning ommaviy va eng ko'p tarqalgan turlaridan biridir. Kinoteatrlarning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ular ayrim xususiyatlariga qarab bo'linadilar.


Oddiy an'anaviy kvadratga yaqin bo'lgan ekranli (tomonlari 1:1,37 nisbatda), boshqasi esa keng ekranli filmlarni namoyish qilishga mo'ljallangan (tomonlari 1:2,35 nisbatda) kinoteatrlarning ko'p tarqalganligi diqqatga sazovor. Bulardan tashqari 2000 kishini zalg'a sig'dira oladigan keng formatli kinoteatrlar ham mavjud. Bunga misol qilib Toshkentdagi panoramali kino San'at saroyini misol qilib olish mumkin (117-rasm).



Kinoteatrlarning sig'imiga qarab tomoshabinlarning sonidan kelib chiqqan holda tomosha zal-larning tarkibi ham ortib boraveradi. Hozirgi vaqtda shahar-sozlik qurilishlarida ikki, uch va undan ko'p zallik kinoteatrlar uchrab turibdi.




117-rasm. Toshkent.
Panorama
kinoteatrining binosi
(San'at saroyi).



118-rasm. Kinoteatrlarda tomoshabin zali va foyening o‘zaro joylashgan kompozitsiyaviy usuli. A — tomoshabin zali va vestibullyarning bir tekislikda joylashgan usuli (ikki zallik kinoteatrning namunaviy loyihasi); B — vestibulning birinchi qavatdan, tomoshabin zalining ikkinchi qavatda joylashgan (bu ham ikki zallik kinoteatr, namunaviy reja) a — umumiy ko‘rinishi, b — birinchi qavat rejasi, d — ikkinchi qavat rejasi.

Kinoteatrlar tarkibida eng asosiy element tomoshabin zali foye hisoblanadi. Kinoteatrlarning hajmiy fazoviy kompozitsiyasi asosini ana shu ikki asosiy rejalashtirish elementini joylashtirish usuli tashkil etadi. Kinoteatrlarni ko‘rishdagi ko‘p yillik tajribaga asosan ikki xil ko‘rinishdagi kompozitsiyaviy tizimni yaratdi: birinchisi — gorizontal holda foye va tomosha zali birinchi qavatga joylashadi; ikkinchisi — vertikal tomosha zali, foye va boshqa yordamchi xonalar ikkinchi qavatga joylashadi (*118-rasm*). Bu holatda foye tajribadan ma’lumki, tomosha zaliga nisbatan uning xohlagan tomonida: chekkasida yoki uning uzunasiga bo‘ylama tomonida ham bo‘lishi mumkin (*119-rasm*).


Oddiy kompozitsiyaviy tizimda foye va tomosha zalining kinoteatr binosining bosh o‘qiga anfilada bo‘ylab ketma-ket (chekkada) joylashtirilishi. Foyening tomosha zali — uzun tomoni bo‘ylab frontal joylashishida zalga kirish yon tomondan amalga oshiriladi, bunday yechim favqulodda vaziyatlarda tomoshabinlarni zaldan evakuatsiya qilish uchun qo‘l keladi, ya’ni yaxshi sharoitlar yaratadi. Rejaviy yechimlarning ko‘p sonli variantlariga bog‘liq bo‘lmagan holda kinoteatrlar asosiy va yordamchi xonalarining tarkibi, o‘zaro bog‘langanligi va guruhlanishi



119-rasm. Bir zalik kinoteatrlarning rejalashtirish yechimi usullari. A — 300 o‘rinli kinoteatr, foye frontal joylashgan; B — 500 o‘rinli kinoteatr, foye chekkada joylashtirilgan; D — Zelenograddagi 800 o‘rinli kinoteatr (Rossiya), vestibulning ikki qavatlikda frontal joylashuvi.

hamma vaziyatlarda deyarli o‘zgarishsiz qolaveradi. O‘zlarining funksional belgilariga ko‘ra kinoteatrlarning hamma xonalarini ikkita guruhga birlashtirish mumkin: tomosha uchun mo‘ljallangan xonalar guruhi va ma‘muriy xo‘jalik xonolari guruhi (120-rasm). Tomosha xonolari guruhiga: tomosha zali, kassa xonolari, foye, bufet va sanitar tugunlarga ega bo‘lgan vestibyl kiradi. Foye o‘z mohiyatiga ko‘ra tomoshabinlarning navbatdagi seansni kutish joyi hisoblanadi va shuning uchun ham unga bufet va sanitar tugunlar joylashtiriladi, tomosha zali tomosha xonolari guruhining bosh elementi sanaladi.

Tomosha zalining rejaviy yechimlarini ishlab chiqishda ekranda tasvirlarning yaxshi ko‘rinishini ta‘minlaydigan sharoitlar yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bunga bog‘liq ravishda tomosha zallarining uchta turi mavjud: parterli zal — amfiteatrli zaldagi pol katta bo‘lmagan qiyalikka — pol aylanma qiyalikka va zal balkonga ega bo‘ladi (121-rasm).



120-rasm. Kinoteatr xonalarini funksional belgilar bo‘yicha guruhlash va ularning tashkiliy strukturalari.

Foye va tomosha zalining interyerlarini shakllantirishda hozirgi vaqtda qo‘llanilayotgan konstruktiv tizimlar muhim rol o‘ynamoqda. Kino-


teatrlarda birgalikda ikkita rejaviy tarkib harakat qiladi: *zalli* va *yacheykali*.

Yacheykali tarkibga foye tegishli bo'ladi. Kinoteatrlarning bu qismi qoidaga ko'ra temir-beton ustunlar va rigellarning birikishidan hosil qilinadi. Bu esa interyerda aniq kompozitsion ritmik tuzilishni yaratadi.


San'at saroyida (*117-rasm*) tashqi ustunlar ustunlarning ritmik qadami uning fazoviy asosini aniqlab berish bilan foye intererini shakllantiradi va tashqi hamda ichki tomondan yorqin, ko'rkam ko'rinishdagi hajmni hosil qiladi.

Ustunlar asosiy yukni o'ziga qabul qilish bilan bir vaqtning o'zida katta to'suvchi tekis yuzalarni vitrajli oynalar bilan qoplash imkonini beradi. Bunday usul foyening ichki fazoviy bo'shlig'ini tabiatga qaratib tashqi muhit bilan organik bog'lash uchun zamin yaratadi. 122-rasmda shunday turdagi foyening rejalaniş varianti ko'rsatilgan. Unda interyerni tabiat bilan butunlay oynali vitraj vosita orqali maksimal bog'lash g'oyasi rivojlantirilgan. Bu yerda hovli ochiq foyeni o'zida ifoda etib,

ichki va tashqi fazoviy bo'shliqning boy rejasini yaratadi. Kompozitsion qurilishda foye ikkita sathda joylashgan bo'lib, unda yuqoriga yo'naltirilgan zinapoyaning o'rnatilishiga katta e'tibor ajratiladi. Zinapoyaning muvaffaqiyatli yechilgan shakli foyening ichki fazoviy bo'shliqni tashkil etishda va fazoviy bo'shliq — kinoteatrning tomosha zaliga o'tishning kulminatsion nuqtasida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin (*123-rasm*). Zinapoyalarning o'rnatilishi, o'tish joylarining kontrastlilik



121-rasm. Ko'rish sharoitlari bo'yicha tomosha zallarining turlari: A — parterli; B — amfiteatrli; D — balkonli zal.



122-rasm. «Arman» kinoteatrining ichki hovlisiga qaratib ochiq holda joylashgan foyening oynali vitraj (arx. A. Korjempo va I. Slonov).


yoritish usullari bilan birgalikda fazoviy bo'shliqning kichik hajmdan katta hajmga, quyidan yuqoriga tomon, qorong'ilikdan yorug'likka tomon ochilib borishi — insonda yuqori emotsional his-tuyg'ularni hosil qilishga qodir bo'lgan vosita.

Tomosha zali kuchaytirilgan konstruksiyalar bilan bajariladi, bu konstruksiyalar quyma yoki yig'ma temir-beton ramalardan tashkil topgan bo'lib, ular katta oraliqlarni yopuvchi tomlarning fermalari va balkalaridan tushadigan og'ir yuklarni qabul qilishga qodirdir.

Katta oraliqli zallar uchun metall yopilmalarning qo'llanishi xarakterlidir, chunki temir-beton yopilmalarning xususiy og'irligi oraliqning oshishi bilan yanada ortib boradi.



123-rasm. Kinoteatr foyesida zinapoya marshini o'rnatishga doir misol.



124-rasm. Osmo konstruksiyalardan foydalanib qurilgan tomosha zali zamonaviy tom yopilmasining umumiy ko'rinishiga doir misol (Omsk shahridagi konsert zali). A — umumiy ko'rinishi; B — qirgim.

Yangi qurilish imkoniyatlarining vujudga kelishi bilan yirik kinoteatrlarning loyiha-viy-qurilish amaliyotida tom yopilmasi sifatida osma konstruksiyalarning qo'llanishi katta ahamiyat kasb etdi, bu bilan arxitektorlar ijodi uchun chegaralarni sezilarli kamaytirishga erishildi (124-rasm). Katta oraliqlarni yopish imkonini beradigan yangi konstruktiv sistemalarning qo'llanishi evaziga yirik tomosha zallari ichkaridan yengil, keng havoli tarzda, bosim o'tkazmaydigan tasavvurni hosil qilgan holda qabul qilinadi.

O'zining rejaviy yechimlari bo'yicha kinoteatrlarning kompozitsion qurilishi iqlim sharoitlarga bog'liq ravishda ochiq va yopiq bo'lishi mumkin.


Sovuq iqlim sharoitlaridagi shimoliy rayonlarda foye — tomosha zali bilan birlashgan xoll ikkita rangli variantda bo'lishi mumkin (125-rasm).

Issiq iqlimli sharoitlarga ega bo'lgan rayonlarda, aksincha, «Tabiatga intilish» nuqtayi nazar bo'yicha ochiq kompozitsiyalar qo'llaniladi.

Kinoteatrlarda go'zal interyerni yaratish uchun eng maqbul bo'lgan joy bu foyedir, uni monumental san'at asarlari yoki dekorativ elementlar, jonli tasvirlar bilan boyitish ancha oson kechadi va bunday interyer tomoshabinlar ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi. Oqilona topilgan mavzuga, sifatli ijroga va to'suvchi konstruksiyalar tekisligining rang gammalari nisbatining did bilan tanlanganligiga ega bo'lgan ko'plab usullar mavjud. Interyerning bu hamma komponentlari kinoteatrlarning zamonaviy interyerlarida o'z o'rniga ega, lekin bunda eng asosiysi — ijro etishning o'ta aniqlikda bajarilishiga erishishdir.

Tomoshabinda salbiy hissiyotni hosil qiladigan to'q qizillikka, to'q ranglilikka har qanday vaziyatda ham yo'l qo'ymaslik lozim. Kinoteatr zallari o'zining mohiyatiga ko'ra ishchi joylarni ifoda etadi. Bu joylar tomoshabinni qorong'ilikka yetaklaydi, undagi qorong'ilik zalning interyerini ko'z bilan qabul qilishga deyarli imkon bermaydi. Shunga qaramasdan ko'plab tomosha zallari, ayniqsa, kinoteatrlarning hashamatli binolari hayratlanish va yuqori emotsional his-tuyg'ularni uyg'otadigan boy bezatilgan interyerlarga ega bo'ladi. Ularning estetik sifatlariga tomosha qilish balkonlarning chiqib turuvchi hajmlarining yaxshi topilgan shakllari, chiroqlar va boshqa yoritish qurilmalari hamda tovushni kuchaytiradigan apparaturalarni joylashtirishga mo'ljallangan oraliqlarning oqilona topilgan shakllari orqali erishiladi (126-rasm).

Teatr zallarida, ayniqsa, arxitekturaliy plastika bilan to'ldirib qoplangan boy shift asosiy dekorativ bezak hisoblangan. Zamonaviy



125-rasm. Sovuq iqlim sharoitiga ega bo'lgan shimolda kinoteatr interyerining yopiq kompozitsiyasiga doir misol.

teatrlarning tomosha zallaridan (127-rasm) farqli ravishda kinoteatrlarda bu fragment, asosan, yoritish tizimlari, ularni guruhlashtirish, uning butun tekisligi bo'yicha taqsimlash orqali ancha jiddiyroq usullar bilan yechiladi. Tomosha zallarining tekisliklarini pardoqlash, dekorativ materiallar bilan qoplash yong'in xavfsizligi talablaridan kelib chiqqan holda hal etiladi. Xususan, bunda ko'plab kinoteatrlarda asbestli taxtalar qo'llaniladi. Ularning tashqi sirti olovga bardoshli aralashmalarning yupqa qatlami bilan qayta ishlangan yog'och shponlar bilan qoplangan bo'ladi.



127-rasm. Moskvadagi Bolalar musiqiy teatri tomosha zalining shifti.

Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda zamonaviy kinoteatrlarning interyerlarini shakllantirishda o'z o'rniga ega bo'lgan asosiy jihatlar va muammolar haqida tasavvurlarga ega bo'lish, umumiy xulosalarni chiqarish mumkin. Bu ish murakkab ijodiy jarayonni va u bilan bog'liq bo'lgan masalalarning oqilona yechimini o'zida ifoda etib, ma'lum tajriba va chuqur professional bilimlarni talab qiladi.

2-qism. Umumta'lim maktablaridagi interyerli muhit

Maktab binolari tiplarining nomenklaturasi mutlaqo xilma-xildir. Bu ularni qishloq tumanlarida bo'lgani kabi shahar sharoitlarida ham to'plash sharoitlarining ko'p qirraligi bilan tushuntiriladi. Ammo maktab binolarining sig'imiga bog'liq bo'lmagan holda ulardagi asosiy o'quv va yordamchi xonalarning tarkibi maktablarning hamma turlari uchun bir xil bo'lib qolaveradi. Bunda faqat bu xonalarning soni va yuzasi bilan farqlanish mavjud bo'lishi mumkin. Asosiy o'quv xonalari o'z tarkibiga: sinflar, o'quv kabinetlari, qo'l mehnati ustaxonasi, universal xonalarni, metall va yog'ochni qayta ishlash bo'yicha kombinatsiyalashgan ustaxonalarni kiritadi; tanaffus paytlarida o'quvchilarning dam olishlari uchun mo'ljallangan joylar, xonalar, faollik zali — ma'ruza auditoriyasi — umummaktab tadbirlar: yig'ilishlar, majlislar, ma'ruzalar, bayram kechalari va boshqa


tadbirlarni o'tkazishga mo'ljallangan joy, ginastika zali va oshxonani kiritadi.

Maktabning o'quv dasturi shuni hisobga olgan holda tuziladiki, to'qqiz yillik ta'lim olish davomida o'quvchi nafaqat dasturni fanlar bilan, balki o'zini qiziqtirgan mashg'ulotlar — mehnat bo'yicha to'garaklarga, sport seksiyalariga qatnashishi va badiiy ijod qilish bilan ham shug'ullanishi lozim.

Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun tez toliquvchanlik, e'tiborni jamlashtirishning nodavomiyligi xarakterlidir. Bolalarning bunday guruhleri uchun mo'ljallangan maktablarda o'quv-tarbiyaviy ishlarga alohida sharoitlar yaratiladi. Mashg'ulotlarning alohida tartibi o'rnatiladi: kuniga to'rttadan ortiq bo'lmagan dars o'tilishi lozim, ikkinchi darsdan keyin katta tanaffusning bo'lishi shart-sharoitlanadi va darslar orasidagi tanaffuslarning har biri 15 minut davom etishi taqozo etiladi, kuni uzaytirilgan guruhlardagi o'quvchilar uchun kunduzi uxlash vaqti ko'zda tutilgan bo'lishi lozim. Yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan o'qitishning kabinetli tizimi o'quv kabinetlari bo'yicha ko'chish oqimi bilan xarakterlanadi.

Umumta'lim maktablari ishining bunday spetsifikatsiyasi o'quvchilarning yoshi bilan xarakterlanadigan jihatlarni hisobga olgan holda ularda puxta tashkil etilgan fazoviy kenglikni talab etadi. O'quv jarayoni uchun eng yaxshi komfort sharoitlarni ta'minlash maqsadida maktablarning hajmiy-fazoviy tarkibi funksional belgilari bo'yicha bir xil bo'lgan xonalarni alohida hududlarga guruhlashtirish asosida tuziladi (128-rasm).

Tizimga muvofiq ravishda maktabning hamma o'quv-yordamchi xonalari to'rtta funksional hududlarga birlashtiriladi: 1 — vestibulli hudud, 2 — I—IV-sinflar hududi, 3 — V—IX sinflar hududi, 4 — ma'muriy-texnik vazifalarni bajaruvchi xonalarni o'z ichiga olgan umummaktab xonalari.



128-rasm. Umumta'lim maktabi tarxiiy tarkibini funksional hududlashtirishga doir misol.

Maktab rejaviy yechimida I — IV sinf xonalari (o'quvchilarining) V — IX sinf xonalaridan himoya qilinishi muhim sharoit deb hisoblanadi. Bunday himoya maktablarda ularni qavatlariga taqsimlash bilan yoki I -

qavat sathida taqsimlash bilan amalga oshiriladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonini yaxshilashga qaratilgan tashkiliy xarakterdagi savollar va masalalarni yechishda atrof-muhit estetikasiga katta e'tibor ajratiladi. Chiroyli va did bilan tashkil etilgan maktab muhiti, undagi sinflar, kabinetlar, laboratoriyalarning interyerlari kayfiyatni ko'taradigan, toliqishni bartaraf etadigan va o'quv mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishni oshiradigan sharoitlarni yaratadi. Shu sababli maktab binolari talab etadigan interyerli muhitning estetik takomillashtirishga bo'lgan yuqori etiborni boshqa hech qanday jamoat binolari maktabchalik talab etmaydi.

Maktab interyeri xonalarning ikkita asosiy — o'quv va rekreatsion guruhlaridan tashkil topadi. Hamma sinflar, laboratoriyalar, kabinetlar, auditoriyalar, jismoniy tarbiya zallari va majlislar zali, agar undan ma'ruza auditoriyasi sifatida foydalanilsa, o'quv xonalari guruhiga kiritiladi. Rekreatsion xonalar tanaffuslar paytida dam olishga mo'ljallanadi, o'quv vaqtidan tashqari vaqtda ular ham o'quv xonalari bloki tarkibiga kiritiladi. Ma'lum maqsadlar uchun mo'ljallangan, alohida himoya qilingan xonalar maqbul tartib va ular ichida eng zamonaviy qulay sharoitlarning yaratilishini talab etadi. Yorug'lik qulayligini, akustik rejimni tashkil etish, maxsus jihozlarni o'rnatish va nihoyat xonaning maqbul shaklini hosil qilish — bu hammasi eng zarur bo'lgan elementlar sifatida interyer badiiy obrazining qismiga aylanadi.

Maktab muhitiga qo'yiladigan talablar. O'quv jarayonining o'tkazilishiga qo'yiladigan talablar: sinf xonasining o'quv jarayoniga muvofiq ravishda jihozlanishi: berilgan o'lchamdagi doska; o'quv stol va stullari; uslubiy materiallarni saqlashga mo'ljallangan shkaflar; materiallarni namoyish qilish uchun maxsus taxtalar.

Quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lgan holda sinfxonaga 30—40 o'quvchini joylashtirish: yozuv taxtasi yonida tushuntirish; yozma ishlarni o'tkazish; guruhli mashg'ulotlarni olib borish; umumsinf o'yinlarini tashkil etish.

O'qitishning texnik vositalaridan foydalanish: rangli diapozitlarni, kinofilmlarni ko'rsatish; televizordan foydalangan holda, ya'ni teleko'rsatuvlar bo'yicha dars o'tkazish.

«Uzaytirilgan kun» mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar. Bu maqsadga erishish uchun individual guruhlar mashg'ulotlarini ta'minlaydigan sinf xonani eng ko'p xilma-xillikda transformatsiyalash.

Gigiyenik talablar:

1. Qulay yorug'lik: yoritilganlikning teng me'yorligi 1:5 nisbatdan oshmasligi lozim. Doskaning uzoq-yaqinligi; ko'zni qamashtiradigan yorug'likning bo'lmashligi.


2. a) yorug'lik tushadigan tomonlar bo'yicha sinf xonalarining maqbul orientatsiyasini ta'minlaydigan — sharqqa va shimolga, bir navbatli mashg'ulotlarda g'arbga qaratilgan insolyatsiya; b) quyoshdan himoyalash; d) shamollatish va sun'iy ventilyatsiya.

Fiziologik talablar: oliy asab faoliyati va psixologiya:


1. a) sinf interyeri boshqa barcha xonalardan farqli ravishda o'zining ko'rinishiga, yetarlicha yorqin individual tavsifga ega bo'lishi kerak;

2. b) e'tiborning jamlashtirilishi. Xalaqit beruvchi hamma tashqi salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish — shovqin, sinf xonalarining oldida yurishlar, kerak bo'lmagan jadvallar va h.k.

Aynan turli omillar tugallangan ma'noda sinf interyerini aniqlab beradi, ko'p hollarda esa maktab binosining butun kompozitsion usulini ham aniqlaydi. Masalan, sinf xonasining yuqoridan qo'shimcha tabiiy yorug'lik bilan yoritilishi maktablarning bir qavatli qurilishini yoki pog'onali kompozitsiyada qurilishini ilgari suradi (129-rasm).



129-rasm. Yuqoridan yoritiladigan turdagi sinfxonaga doir misol.



130-rasm. Sinfxonalar tarxiiy yechimlarining variantlari (chet el tajribasi).

Katta bo'lmagan xonalarining bir-biridan eng yorqin esda qoladigan farqlanishi shaklida bo'lishi mumkin. Shuning uchun aynan shakl mashg'ulotlariga bo'lgan moyillik darajasi dinamik stereotipning ishlab chiqilishi bilan bog'langan. Uydagi sharoitlardan farq qiladigan xarakterli, ko'rkam interyerga ega bo'lgan sinf xonalarini yaratish zaruriyati tug'iladi.

Agar turar-joy binolari qurilishida ustuvor tarzda yuzaga kelgan an'analarni e'tibor bilan ko'rib chiqsak, ularda xonalarning to'g'ri burchakli shakli yagona ekanligiga iqror bo'lamiz, lekin maktab sinf xonalari ko'p qirrali trapetsiya va boshqa ancha murakkab shakllarga ega bo'lishi mumkin. Chet el amaliyotida sinf xonalarning har xil shakllariga ega bo'lgan ko'p variantlari kuzatiladi (130-rasm).




131-rasm. Umumta'lim maktabi binosida galereyani qurish usuliga doir misol (chet el tajribasi).

Qator rivojlangan g'arb mamakatlarining arxitektorlari sinfning murakkab konfiguratsiyaga ega bo'lishi naqsadga muvofiq keladi deb hisoblashadi, chunki konfiguratsiya har xil bo'lganda differensiallashgan qiziqarli fazoviy bo'shliq hosil qilinadi. Sinf xona interyerining mashg'ulotlar paytida o'quvchilar e'tiborini jalb qilishga qo'yiladigan talablarga javob berishi taqozo etiladi.

O'quvchini chalg'itmaydigan muhit yaratilmog'i lozim. Buning uchun sinf interyerini tashkil etadigan elementlar yagona birlikka keltirilmog'i lozim, ular sonini esa minimumlashtirish taqozo etiladi.

Har bir o'quv yurtida, ayniqsa, maktabda ish tartibida o'quvchining qiyi jihatdan toliqqanligini bartaraf etish va uning organizmining inksional jarayonlarini faollashtirish maqsadida tanaffuslarning tashkil qilishi ko'zda tutiladi. Buni amalga oshirish uchun har bir seksiyada yoki o'quv blokida keng koridorlar va zal ko'rinishida rekreatsion joylarning o'rinishi ta'minlanadi. Issiq iqlimli rayonlarda rekreatsiya ochiq tipda bo'lgan galereya ko'rinishida bo'lishi mumkin (131-rasm). O'zbekiston maktablari uchun respublika hududida ob-havoning yuqori haroratda




132-rasm. To'g'ridan to'g'ri faol shamollatishga mo'ljallangan o'quv bloklarining tarxii yechimlariga doir misollar: A — sinf xonalarini koridorlarga nisbatan bir tomonlama ylashtirish; B — ikki tomonlama derazalarga ega bo'lgan koridorsiz tizimdagi sinf xonalar.

bo'lishi va yilning issiq fasllari maktab o'quvchilari organizmiga bu faktorning zararli ta'sirini yengillashtirish katta ahamiyatga ega bo'ladi. Maktab qurilishi amaliyotida bu muammoni yechish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar o'quv xonalarini koridorlarga nisbatan bir tomonlama joylashtirish yo'li bilan mustaqil tabiiy shamollatish uchun sharoitlarni rejayiy vositalar bilan ta'minlashda o'z aksini topadi (132-rasm).

Rekreatsiya tipi va uning o'quv xonolari bilan bog'lanishi butun maktabning va xususan uning interyerini ham fazoviy tashkil etilganligini xarakterlaydi. 133-rasmda bunday uyg'unliklarning turli usullari tasvirlangan.

«A» guruhida har bir sinf yoki ikkita sinf o'zining rekreatsiyasiga ega. Odatda, bu rekreatsiya sinfga bevosita tutashgan ochiq havoda joylashgan kichik hovlida tashkil etiladi. Bunday usul bir qavatli binolar uchun xarakterli va undan boshlang'ich sinflarning foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bunday rekreatsiya boshlang'ich sinf o'quvchilarini yuqori sinf o'quvchilaridan ishonchli himoya qilishni va ularning ochiq havoda bo'lishlarini ta'minlaydi.


«B» guruh zamonaviy maktab qurilishi uchun eng xos bo'lgan guruh sanaladi. Bu rekreatsiya sinflar guruhi uchun mo'ljallangan va u tanaffus paytida o'quvchilarning yoshlari bo'yicha ajralish va bolalarning guruh



133-rasm. Rekreatsiya turlari. A — sinfga qaratilgan rekreatsiya; B — sinflar guruhiga qaratilgan rekreatsiya; D — maktabga qaratilgan rekreatsiya; E — sinflar guruhi va maktabga qaratilgan qo'shma (aralash) rekreatsiya.


chegasida muloqotda bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Bir nechta sinflarning bunday tizimdan rekreatsiyasi tabiiyki ko'p bo'ladi, u o'zining kattaligi va shakli bo'yicha fazoviy bo'shliq turli-tumanligini va zarur bo'lgan kontrastligini hosil qilishi mumkin. Bunday rekreatsiyalarning usul va joylashish o'rni bo'yicha turli usullari bo'lishi mumkin: sinf bilan bir sathda joylashgan rekreatsiya, uchastkaga qaratilgan rekreatsiya, «Г» shakldagi rekreatsiya, hovlini hosil qiluvchi rekreatsiya, qavatlardagi rekreatsiya va h.k.

D guruhdagi rekreatsiyalarga zalli rekreatsiyalar tegishli bo'lib, ular butun maktab uchun mo'ljallangan bo'ladi. Tabiiyki bunday usul katta maktablar uchun xarakterlidir. Bunday rekreatsiya ikkinchi qavat bo'yicha ochiq galereyali, ikkita rangli zalning boy fazoviy tuzilishi, yuqoridan yoritilishi va zinapoyalarning effektiv o'rnatilishi bilan diqqat-e'tiborni o'ziga tortadi. Zalli rekreatsiyalar turli iqlimli regionlardagi maktablar uchun ham xarakterlidir. O'tgan asrning oxirgi yillarida O'zbekistonning yuqori changli-shamolli rayonlaridagi qurilishlar uchun ichki rekreatsiyaga ega bo'lgan maktablarning ikkita turi ishlab chiqildi (134-rasm).



134-rasm. Chang-shamol faolligiga ega rayonlarda quriladigan maktablarning tarxiy yechimlariga doir misollar. A — o'quv xonalarining guruhi uchun: yopiq hovlilili fazoviy bo'shliq; B — har bir sinf xonasi uchun mo'ljallangan yopiq hovlilili fazoviy bo'shliq.

Mohiyati bo'yicha bu ikki variant ham bir xil rejaviy tarkibiga ega bo'lib, ular orasidagi farq shundaki, birinchi variantda faqat uchta ichki hovliga ega bo'lgan fazoviy bo'shliq ko'zda tutilgan, ulardan har biri sinflar guruhi uchun mo'ljallangan. Ikkinchi variantda esa sinflar bo'yicha taqsimlangan bir nechta mayda hovlilarning bo'lishi ko'zda tutilgandir. Birinchi variantga tegishli bo'lgan maktablarda katta qulaylik yaratish uchun o'quv bloklari ichida ochiq hovlilili fazoviy bo'shliqlar atriumlarning bo'lishi loyiha orqali ko'zda tutilgan. Bunday atriumlarda o'quvchilar yilning sovuq fasllarida dam olishlari inobatga olingan. Shimolda zal tipidagi atriumli rekreatsiyalar qo'llaniladi (135-rasm).




135-rasm. Atriumli turdagi zalli rekreatsiya.

A – tarx, B – atrium interyerining umumiy ko‘rinishi.

Bunday yirik rekreatsiya ko‘chaga chiqish mumkin bo‘lmagan izg‘irin sovuqda turlicha dam olishni ta‘minlash imkoniyatini beradi. Ancha yumshoq iqlimga ega bo‘lgan mamlakat Finlandiyada umumiy rekreatsiya ochiq havoga, hovliga o‘tish deb hisoblanadi. Janubda esa umumiy rekreatsiya quyoshdan himoyalangan katta fazoviy bo‘shliq bo‘lishi mumkin. Bunday rekreatsiya turli fazoviy echimlarga ega bo‘ladi.

Psixologlar va shifokorlarning fikriga ko‘ra qiziqarli atrof-muhitga ega bo‘lgan tabiat bilan har kuni aloqada bo‘lish bolalarning biologik rivojlanishiga, ijobiy his-tuyg‘ularning hosil bo‘lishiga, aqliy va jismoniy jihatdan chiniqishlariga shart-sharoitlar yaratadi. Maktab binolari arxitekturasini rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri ularni tabiiy atrof-muhit bilan ajralmas yagonaligini hamda tabiat va binoning o‘zaro bir-birining ichiga kirishini ta‘minlashdan iboratdir. O‘zaro kirishish nafaqat hajm tashqi effektining tabiatga qaratilishiga tegishli, balki interyerining ichki tomondan tabiatga ochilganligi va tabiat elementlarining maktab

binosining interyeriga kirib borishiga ham tegishlidir (136-rasm). Shakllari va mazmun-mohiyati bo‘yicha turli-tuman bo‘lgan arxitekturaviy muhit bolalarga ma‘lum bir ijobiy emosional qo‘shimcha kuch beradi va aksincha, bir-biriga yaqin bo‘lgan hamda bir jinsli muhit maktabga, o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirmaydi. Arxitekturaviy qulaylik, shinamlik, go‘zallik,



136-rasm. Maktab interyerining atrof-dagi tabiiy muhit bilan bog‘lanishiga doir misol.

kun davomida arxitekturaviy muhitning ko'p qirrali almashinuvi o'quvchilar ongli faoliyatining psixologik faolligi deb hisoblanadi.

O'quvchilarning psixologik faolligini oshiruvchi arxitekturaviy muhitlarga quyidagilar kiradi: mashg'ulotlarning kontrastlik nuqtayi nazar bo'yicha turli vaziyatlarda navbatlanishini hisobga olgan holda fazoviy bo'shliqning turli talqin qilinishi; bino interyerining tabiat bilan bog'langanligi, binoning landshaftga kirib borishi; o'quv xonalari fazoviy bo'shlig'ining transformatsiyalanishi; xonalar majmuasi fazoviy bo'shlig'ining differensiallashuvi va integrallashuvi; alohida xonalar va xonalarining fazoviy tashkil etilganligini o'zgartirish uchun mobilli transformatsiyalanadigan va jihozlarning qo'llanishi. Fazoviy bo'shliqda harakatlanish, rassom tomonidan sehrgarlik bilan yaratilgan ajoyibot, zamonaviy arxitektura, haykaltaroshlik, tasviriy san'at va dizayn asarlarining qudratli faolligiga aylanib bormoqda.

Hozirgi vaqtda binolarning fasad qismlarini ochish va «qirqish» yo'li orqali katta yuzalarni oyna bilan qoplash evaziga binolar arxitekturasida yaltiroqlikning hosil qilinayotganligini kuzatish mumkin. Bu yaltiroqlik fazoviy bo'shliqning suzuvchi ajoyibotni hosil qilishga qaratilgan bo'lib, unda bino go'yoki bug'lanayotgandek, fazoviy bo'shliq ichkariga va tashqariga ko'chayotgandek tuyuladi.

Bepoyon tashqi fazoviy bo'shliqning shakli arxitekturaviy fazoviy kompozitsiyaning devorlar chegarasi bilan tugallanmaydigan o'quv xonasi chegarasi ortidagi atrofda davom etadigan qismiga aylangandek bo'ladi. Maktab interyeri kontrastdan kontrastga qarab harakatlanadigan ishtiyoqli ehtiyojini qondirmog'i lozim, bunday kontrastlik interyerli muhitga alohida hayotiylik bag'ishlaydi.

Insonda, ayniqsa, bolalarda taassurotlarning doimiy almashinib turishiga muhtojlik seziladi. Bolalar o'zlarini o'rab turgan olamni va uning tashkil etuvchilarini ularning fizik o'lchamlariga qarab va fikrlash orqali qabul qiladilar. Bolalar katta bo'lmagan harakatlarda ham o'zlarini yaxshi his qiladilar.

Ularga harakatning tez-tez shakl almashtirishi zarur. Bu borada ancha murakkab va shu bilan birga effektli deb predmetli haykalning va kichik shakllarning ko'p rejali dinamik qurilishini aytish mumkin. Kichik arxitekturaviy shakllarni bino ichiga, ochiq, yarim ochiq va yopiq hovlilarga hamda uchastkalarga joylashtirish mumkin. Kichik arxitekturaviy shakllarga quyidagilar kiradi: relyefli dekorativ shkafchalar, turli xaykallar, xumlar, geometrik hajmli kompozitsiyalar, favvoralar,



137-rasm. Maktab ochiq hovlisidagi kichik arxitekturaviy shakllardan biri.

dekorativ san'at elementlari o'quvchini estetik tarbiyalashga shart-sharoit yaratadi, ularda didning shakllanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.


Maktab dekorining estetik funksiyasi bilan bir qatorda unga ma'lum me'yorda ongli va tarbiyaviy ahamiyat ham tegishlidir. Maktab interyeriga monumental va dekorativ elementlarini kiritishda aksentlarni ajratish mutlaqo muhim ahamiyat kasb etadi. Monumental targ'ibot uchun eng ma'qul bo'lgan joylarga vestibyl, rekreatsiya, majlis zali, oshxonani kiritish mumkin.

Maktab interyerlaridagi dekorativ panno ham ancha qiziqarli bo'lib, ular ham teng ravishda estetik, tarbiyaviy ta'sir o'tkazadi (138-rasm).

Monumental va dekorativ elementlar o'quv seksiyalarini o'ziga xos

dekorativ suv havzalari, uzun kurslar, chiroqlar (137-rasm). Kichik arxitekturaviy shakllar talab etiladigan emotsional atrof-muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda yaxshi estetik didning rivojlanishini ta'minlaydi, go'zallikni his qilishga chorlaydi. Shu bilan bir qatorda maqsadli yo'naltirilgan kichik arxitekturaviy shakllar ham keng qo'llaniladi: sakrash, oshib o'tish, sirpanish uchun qurilmalar, kamondan o'q otish maydonlari va h.k.

Monumental dekorativ san'atning elementlari interyerlarni boyitadi va xonalarni individuallashtiradi. Joylashish o'rni, mazmun-mohiyati va shakli bo'yicha yaxshi o'ylangan monumental



138-rasm. Mozaikali rekreatsiyali devor detali.

belgilash (tanishish) ramzlari sifatida xizmat qiladi, bolalarda ularni o‘rab turgan olamning turli-tumanligiga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi. Bularning hammasi shaxsning shakllanishiga emotsional ta‘sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, maktablarning interyerlarini shakllantirish va rejayiv yechimlarini tashkil etishga keltirilgan misollarning hammasi o‘quvchilar uchun sog‘lom hayot tarzini ta‘minlovchi, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlovchi, umuman olganda, o‘qishga mas‘uliyat bilan yondashishga chorlovchi maksimal qulay sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan eng yaxshi yechimlarni topishning natijasi hisoblanadi.

3-qism. Muzeylar va ko‘rgazma zallarining interyerli fazoviy bo‘shliqlari yechimlari

Muzeylar va ko‘rgazma zallariga ega bo‘lgan binolar shunday muassasalarki, ularda u yoki bu davlatning ma‘naviy-tarixiy, madaniy-moddiy qadriyatlari va xalq xo‘jaligining yutuqlari haqidagi axborotlar jamlangan shaklda o‘z aksini topadi.

Tarixiy qadriyatlarni o‘zida ifoda etuvchi qadimiy hujjatlar va materiallarni saqlash va namoyish etish muzeylarning funksional vazifasini tashkil etadi va uning nimaga mo‘ljallanganligini aniqlab beradi. Bir vaqtning o‘zida ular ilmiy-qidiruv markazlari ham hisoblanadi. Ularning bazasida o‘lkaning ma‘naviy merosi va madaniyati o‘rganiladi. O‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra muzeylar bir nechta yo‘nalishlarga ega bo‘ladi: o‘lkashunoslik, tarixiy, badiiy, xalq hunarmandchiligi, poleantologik va ko‘plab boshqa yo‘nalishlar. Sig‘imi (hajmi) bo‘yicha muzeylar kichik — 3 mingdan 10 ming kub metrgacha, o‘rtacha — 10 mingdan 30 ming kub metrgacha va yirik — 30 mingdan 80 ming kub metrgacha bo‘lishi mumkin.

Ko‘rgazma zallari ham muzeylarnikiga o‘xshash bo‘lgan vazifalarni bajaradi. Lekin ularda muzeylardan farqli o‘laroq inson faoliyatining hamma — texnika, fan, madaniyat va san‘at sohalarida erishilgan yutuqlarni aks ettiruvchi eksponatlar, boshqa turlarini ham namoyish etish uchun mo‘ljallanadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan ko‘rgazmalarda xalq xo‘jaligi hamda sanoat yutuqlari va rivojlanishi namoyish etilayapti. Bu ko‘rgazmalar ishbilarmon tijorat xarakterga ega bo‘ladi, ular asosida yirik bitimlar, shartnomalar tuziladi. Bu bitimlar va shartnomalar bo‘yicha respublikada ishlab chiqarilgan u yoki bu sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari yirik partiyalarda vatanimiz va chet el firmalariga yetkaziladi. Ko‘rgazmalar ham xuddi muzeylar singari


funksional vazifasi, eksponatlarning mazmun-mohiyati va maqsadi bo'yicha juda keng tipologik diapozonga ega bo'lib, ular ham muzeylar kabi umum shahar, umum viloyat, respublika va xalqaro ahamiyatga ega.

Muzey va ko'rgazmalarning vazifalariga ko'ra hamda ular arxitekturaviy-rejaviy yechimlarining farqlanishiga qaramasdan ularning rejaviy tarkiblarining asoslari, xonalar tarkibi va o'zaro bog'lanishi bo'yicha bir-biridan kam farq qiladi. Bunday inshootlarning rejaviy yechimlari ekskursion guruhlar oqimiga qarama-qarshi harakatni inkor etadigan bosh texnologik talablarga muvofiq quriladi.

Ko'rgazma zalining biridan boshqasiga anfiladli sxema hamda harakat oqimi yopiq doira tizimi bo'yicha bo'ladigan harakatni ifoda etuvchi oqimlar harakatining grafiklari eng ko'p tarqalgan grafiklar deyiladi (139-rasm).

Muzeylar va ko'rgazma binolarining loyihaviy yechimlariga qo'yiladigan eng bosh va asosiy talablardan bittasi bu ichki fazoviy bo'shliqni funksional hududlashtirishni to'g'ri tashkil etish, asosiy va yordamchi xonalarni to'g'ri guruhlashtirish va ular orasidan o'zaro bog'lanishlarni to'g'ri yo'lga qo'yishdan iborat.

Zimmasiga tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish funksiyasi yuklatilgan xonalarining birinchi guruhiga garderob va sanitariya tugunlariga ega bo'lgan vestibul, informatsion-ma'lumot berish markazi, ekskursiya a'zolari uchun xonalar, suvenirlar va boshqa buyumlarni sotishga mo'ljallangan do'koncha kabi bir qator xonalar kiradi. Vestibulli guruhlar va vestibul oldidagi ochiq ko'rgazma tashrif buyuruvchilarni psixologik tayyorlash vazifasini bajaradi va uning birinchi bo'lib tasavvur qilinishini shakllantiradi. Bu yerda anjumanlar, uchrashuvlar, majlislar va shunga o'xshash tadbirlar o'tkaziladi, shu bilan bir qatorda universal xonalarda turli jamoat tadbirlari va davriy ko'rgazmalar olib boriladi. Ikkinchi guruh xonalari o'zida ko'rgazma zallarni namoyon etadi, ular doimiy



139-rasm. Eshiklarining prinsipial tizimlari:
A — anfiladli tizim; B — halqali tizim;
1 — vestibul, 2 — ko'rgazma zal.

ko'rgazmalarning bosh funksional hududini hosil qiladi. Zallarning maydonlari ko'rgazma qilinadigan materialning hajmiga bog'liq ravishda qabul qilinadi.

Xonalarining uchinchi guruhini tashkil etuvchi xonalar ma'muriy-xo'jalik funksiyalarini amalga oshiradigan hududni hosil qiladi. Bunday xonalarga ilmiy kabinetlar, fondlarni saqlash xonalari, laboratoriyalar, restavratsiya ustaxonalari, eksponatlarni ma'lum muddatda saqlashga mo'ljallangan xonalar kiradi.


Ko'rgazma zallari ko'rgazmalar va muzeylarning markaziy kompozitsion yadrosi bo'lib xizmat qiladi. Ko'rgazma zallarning maydonlari turlicha bo'lishi mumkin. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, ularning ko'p jihatlarini va turli-tumanligini maydonlari 900, 1500 va 3000 m² bo'lgan va balandligi bo'yicha: 4,5 m — katta bo'lmagan eksponatlarni joylashtirishga mo'ljallangan; 6 m — mashina-mexanizmlar uchun; 3 m dan 12 m gacha — alohida yirik eksponatlar uchun mo'ljallangan uchta asosiy turga jamlash mumkin. Ma'muriy-xo'jalik xonalari balandligi 3,3 m bo'lgan qavatlariga joylashtiriladi.

Vestibul tashrif buyuruvchilarda birinchi taassurotni shakllantiruvchi va ko'rgazma zallar bo'yicha keyingi ekspozitsiyalarni tayyorlashga yo'naltiruvchi joy bo'lganligi uchun uni davriy ko'rgazmalarning kirish zaliga ochish lozim bo'ladi.

Vatanimizda va xorijdagi loyiha-qurilish amaliyotida markazli va blokli hajmiy-fazoviy kompozitsiyaga ega bo'lgan muzey va ko'rgazma pavilonlari keng rivojlangan (*140, 141-rasmlar*). Bu kompozitsion yechim usullaridan har biri o'zining ma'lum tasniflariga ega. Markaziy kompozitsiya rejayiy yechimlarining kompaktligi va tashqi to'suvchi konstruksiyalarning minimal maydon egallashi evaziga maydonning iqtisod qilinishi, issiqlik yo'qotilishining minimal qiymati va umumiy ekspluatatsion xarajatlarning minimalligi bilan ajralib turadi.

Ayrim vaziyatlarda bunday kompozitsiyalarning ichki rejayiy strukturasi tayanchlarga ega bo'lmagan zalning yagona hajmi bilan yechiladi, bunday zalda tomoshabin ichki fazoviy bo'shliqda yaxshi orientatsiya sharoiti va ko'rish orqali qabul qilishning keng sferasidan foydalanishga muvaffaq bo'ladi.

Toshkentdagi O'zbekiston tarixi muzeyi zamonaviy muzeyga misol bo'la oladi (*140-rasm*). Yagona hajmda bajarilgan muzey binosi to'rtta qavatdan iborat (bunda birinchi qavat — supacha ham hisobga olingan). Bosh yuqori hajm (ekspozitsion zallar hajmi) reja bo'yicha kvadrat




140-rasm. O'zbekiston tarixi muzeyi. A — umumiy ko'rinishi; B — bino qirqimi; D — binoning tarxi (arx. V. Rozanov, V. Shestopalov).

shaklida bo'lib, uning katta hajmi pastki kichik hajm ustida muvozanatlashgan. Muzeyning bosh kompozitsion rejasi bo'lib katta fazoviy hajmli atrium xizmat qiladi. Bu yadro bino hajmining butun balandligi bo'ylab davom etgan. Hamma ekspozitsion zallar bu yadro atrofida joylashgan va oqimlar harakati yopiq doira bo'yicha amalga oshadi.

Muzeylar va ko'rgazmalarning bunday turdagi kompozitsiyalari rejalarining puxta differentsiallashgan funksional hududlari va ulardagi xonalarning «tug'ma» belgilari bo'yicha guruhlanishi bilan ta'minlanadi. Birinchi turda bo'lgani kabi ikkinchi turda ham ekspozitsiyalar ikki, uch va undan yuqori bo'lgan sathlarda yechilishi mumkin.

Sirakuzadagi arxeologiya milliy muzeyini blokli muzey binolariga misol tariqasida keltirish mumkin (141-rasm).

Muzey binosi xonalar alohida funksional hududlarga puxta guruhlashtirilgan holda bir qavatli inshootni namoyon etadi: kirish, ekspozitsion va ma'muriy-texnik xonalar hududi bu hajm ostida joylashgan. Ko'rgazma hududi to'rtta har xil bo'shliqdagi trapetsiyasimon zalli yacheykalardan tashkil topadi. Bu yacheykalar vestibulli guruhlarining markaziy hajmidan radial (radiusli) yo'nalishlar bo'yicha tarqaladi. Bloklar orasidagi mustaqil bog'lanishlarga ega bo'lgan bunday rejaviy usul muzey binosi yuzalarining



141-rasm. Serakuzadagi arxeologiya milliy muzeyi (bino tarxi): 1 — vestibulyul, 2 — kirish zali, 3 — ma'muriy-yordamchi guruh, 4 — ekspozitsiya zallari.

past-baland joylashganligidan qat'i nazar istalgan yer uchastkasiga joylashtirish imkonini beradi. O'zbekistondagi deyarli barcha ko'rgazma inshootlari va muzey binolari markaziy kompozitsiyali yagona hajmda qurilgan.

Muzeylar va ko'rgazma majmualari noyob inshootlarni ifoda etadi. Shu sababli ularning g'oyaviy-badiiy sifatlariga alohida yuqori talablar qo'yiladi. Bu talabga birinchi navbatda go'zal va maqsadga muvofiq bo'lgan yagonalik nuqtai nazar javob beradi. Muzeylar va ko'rgazma povilonlarning arxitekturaviy-fazoviy qurilishi ko'rgazma zallarining mavzusini ochib berishi lozim. Bu masalani yechishda birinchi navbatda inshootlarni ichki tashkil etishdan, ularning ichida sodir bo'ladigan jarayonlar rejaviy tarkibidan kelib chiqqan holda yechishni taqozo etadi.


Ko'rgazma zallarining katta yopiq fazoviy kengliklari, ularni alohida yoritish tizimlari ko'plab muzeylar va ko'rgazmalar uchun to'suvchi konstruksiyalarning an'anaviy yirik tashqi tuynuksiz yuzalarini aniqlab beradi. Ko'rgazma povilonlari va muzeylarning bunday yopiq yechimlari savdo korxonalarida bo'lgani kabi interyerlarning ichki plastikasini yuzaga chiqarish qulay yorug'lik muhitini yaratish bilan bog'liq bo'lgan eng muhim masalalarning yechilishi bilan hal etiladi. Yorug'likning ko'rgazma zallari va muzeylar interyerlaridagi roli mutlaqo kattadir. Ratsional yoritish tizimi bilan ko'rgazma materialning ko'rish orqali yaxshi qabul qilinishini ta'minlaydigan sharoitlarga erishish mumkin. Bunda quyosh nurlarining ko'zni qamashtiradigan yaltiroqlikda qaytishi va ko'rgazma ko'rsatmalarining buzilishiga olib keluvchi salbiy ta'sirlari bartaraf etiladi. Uning ta'sirida ahamiyatiga ko'ra kam bo'lmagan boshqa muhim masalalar ham yechiladi: fazoviy, plastik va ranglarga aloqador bo'lgan masalalar o'z yechimini topadi, atrofda jarangdor arxitekturaviy muhit yaratiladi va ko'rgazma zal interyerlarida tomosha qilish tufayli hosil bo'ladigan toliqish va psixologik kuchlanganlik holatlarini so'ndirishga erishiladi. Vatanimiz va chet ellardagi qurilishlarda ko'rgazma zallarini tabiiy yorug'lik bilan yoritish tizimiga keng amal qilinmoqda. Buning asosida ichki yorug'lik muhitining tashqi muhit bilan yagonaligiga erishiladi hamda zalning umumiy qorong'iroq fonida emotsional kuchlanishni hosil qilish uchun zal yo'naltirilgan yorug'lik bilan yoritiladi. Ko'rgazma zallar va muzeylarning interyerlarini yoritishda an'anaviy qo'llaniladigan yorug'likni tarqatish ko'plab ko'rgazma povilonlari va muzeylarni klassik yoritishga misoldir. Bunda yopiq fazoviy bo'shliqda yuqori darajali qulaylikka ega bo'linadi. Namoyish zallardagi bunday yoritilganlikka

tabiiy, sun'iy va integral yorug'lik tizimlarining qo'shma tarzda qo'llanishi evaziga erishiladi. Quyida ko'rsatilgan rasmlarda (142-rasm) muzeylar va ko'rgazma majmualari namoyish zallarining tabiiy yorug'lik tizimlari yordamida yoritilishiga misollar keltirilgan.

Zallarni tabiiy yorug'lik bilan yoritishda, odatda, yuqoridan yon tomondan yoritish tizilmasidan foydalaniladi. Bu tizimlardan har biri ekspozitsion mazmun nuqtayi nazaridan ma'lum sharoitlarni yaratishga yaroqli bo'lgan yorug'lik xossalariga ega. Muzeylar va ko'rgazma pavilonlarining namoyish zallarida yorug'likni tarqatishning sun'iy manbalaridan foydalanish ularda kechki ish soatlarida ko'rgazmalarni qo'shimcha yoritish uchun va yorug'lik effektini hosil qilish bilan izohlanadi. Bunday vaziyatda eng muhim bo'lgan masala bu yaltiroqlikni bartaraf etish va sun'iy yorug'lik manbalarining sezilmaydigan, yashirin joylarga o'rnatilishi bilan yechiladi.




A



B

142-rasm. Muzey va ko'rgazma majmualari namoyish zallarining interyerlarida yorug'likni tashkil etishga doir misollar. A — yon tomondan yoritish; B — yuqori yon tomondan yoritish; D — yuqoridan markaziy yoritish.



D

4-qism. Savdo muassasalarining interyerlari

Savdo muassasalari binolarining interyerlarini tashkil etishning alohida jihatlari shundan iborat bo'ladiki, ular fazoviy muhitning har qanday bezatilishi, eng alohida izlab topilgan pardoqlash varianti ham yaxshi savdo biznesini ta'minlay olmaydi. Agar qachonki, ularning savdo nuqtalari, ishchi joylari, savdo zallarining o'zlari fazoviy muhitning puxta informativligi zarur bo'lgan mahsulotni tezda topish uchun va nihoyat mahsulotning sotib oluvchilar tomonidan sifatiga baho qo'yilishi uchun yetarli bo'lgan me'yoriy qulay yoritilganlikka ega bo'lmasa.

Bunda zarur bo'lgan mahsulotning ushbu do'konda yo'q ekanligiga ishonch hosil qilish ham o'ziga yarasha ahamiyat kasb etadi. Agar bunday aniqlashga tartibsiz harakat oqimi, ko'rish uchun diskomfortli va

noinformatsion muhit mavjud bo'lganligi tufayli erishilsa, albatta, bunda qoniqmaslik va salbiy emotsiyalardan tashqari hech narsa yuzaga kelmaydi va xaridor bunday vaziyatlarda hattoki eng chiroyli arxitekturaviy shakllarni ham baholashga qodir bo'lmaydi, xaridor hattoki ularni payqamaydi ham!

Yirik ko'p qavatli savdo-sotiq binolaridagi yon tomonlama tushadigan tabiiy yorug'lik diskomfortlikdan boshqa hech narsani bermaydi.

Savdo binolarida tabiiy yorug'lik bilan undan farqli o'laroq interyerdagi butun predmetli-fazoviy muhitning qabul qilinishi uchun maqbul sharoitlar yaratish va bunday sharoitlarning doimiyligini ta'minlash imkonini beradi. Bunda yorug'likning faol texnikasidan foydalanish orqali qo'yilgan maqsadga yuqori darajada erishiladi, bunda yuqori samaradorlikka, nisbatan uzoq muddatli xizmat qiladigan va nur tarqalishining keng spektriga ega bo'lgan yorug'likning yangi manbalari va yangi yoritish asboblarning keng nomenklaturasidan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Zamonaviy arxitekturada sun'iy yorug'likni interyerning arxitekturaviy kompozitsiyasini shakllantirishning muhim vositalaridan biri deb ko'rib chiqish mumkin. Sun'iy yorug'lik imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish, interyerdagi ranglar uyg'unlashuviga va kompozitsion yechimiga erishish eslab qolinadigan arxitekturaviy obrazni yaratishning asoslaridan bittasidir (*143-rasm*).

Sun'iy yorug'likdan va uning bor imkoniyatlaridan foydalanish oldida turgan arxitekturaviy masalalarni tahlil qilish arxitekturaviy yoritishni loyihalashning quyidagi asoslarni ishlab chiqish va tavsiya etish imkonini beradi. «Arxitekturaviy» deyilganda kompozitsion mazmunga muvofiq ravishda funksional va badiiy masalalarning kompleksli yechilishini ta'minlash tushuniladi:

- arxitekturaviy yechimning chegaralarini tanlash;
- arxitekturaviy yoritishga differensial yondashish;
- transformatsiyalash orqali interyerning arxitekturaviy va yorug'lik muhitini ta'minlash.

Birinchi qoida yorug'likdan foydalanish me'yorini arxitekturaviy kompozitsiya sifatida aniqlab beradi. Interyerning kompozitsion yechimini yaratishda arxitektorning ijodiy g'oyasini eng to'liq reallashtirish imkonini beradigan vositalar va yo'nalishlar tanlanadi. Bunda interyer badiiy obrazining uyg'unlashuvchi va go'zal qiyofasini hosil qilish birinchi navbatda har bir arxitekturaviy vositaning eng qulay chegaralarini tanlab olishga bog'liqdir.


Bunda ulardan bittasidan boshqalardan ko'ra alohida ajralgan holda faol ravishda foydalanganlik kompozitsion butunlikning deformatsiyalanishiga, ko'rish orqali qabul qilinadigan ma'lum informatsiyaning o'ta darajada qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Bir vaqtning o'zida u yoki bu vosita kompozitsion imkoniyatlarning o'ta soddalashtirilganligidan va ulardan sxematik tarzda foydalanish arxitekturaviy mazmunni birlashtirish, umumlashtirish oqibatidagi informatsion yetishmovchilikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bu yerda taniqli arxitektor A. A. Vesninning: «Qabul qilishning ikkita: pastki va yuqori bo'sag'asi mavjuddir. Masala qanday yechilmasin, eng muhimi qabul qilish shu ikki bo'sag'a orasida bo'lmog'i lozim. Pastki — quyi bo'sag'a. Bu dinamik qabul qilishning faktli ifoda etilishidagi ritmik tebranishlarning minimumini aniqlaydi. Bu bo'sag'adan pastda monotonlik, bir obrazlik bilan aniqlaniladigan soha bo'ladi. Yuqori bo'sag'a tebranishlar soni eng katta bo'lgan joyiga borib yakunlanadi. Bu o'sha bexavotirlik, o'tkirlik. Ular faqatgina qabul qilishni qiyinlashtiradi va qoniqish hissini bermaydi», — deb aytgan so'zlarini keltirish mumkin [26].

Psixologiyaga ma'lum bo'lgan insonning bo'lishi mumkin muhitning informativligi o'zining eng qulay chegaralariga ega bo'ladi, ulardan ortiqcha murakkablikka og'ish yoki mazmunning murakkablashtirilgan holatda qabul qilinishi aksincha his-tuyg'uni yuzaga keltiradi [15]. Yuqorida ta'kidlanganlar to'g'ridan to'g'ri va avvalombor yorug'likdan arxitekturaviy kompozitsiyani shakllantirishda eng muhim vosita sifatida foydalanishga tegishlidir.

Yorug'liksiz arxitekturaviy kompozitsiyani qabul qilish mumkin emas. Yorug'lik — soya tarkibi asosiy arxitekturaviy g'oyaning interyer bilan kontekstligida yaratiladi va u kompozitsiyada shunday rol ni bajaradiki, bu rol ijodiy g'oya orqali aniqlanadi. Arxitekturaviy yoritish chegaralari tushunchasi yorug'lik bilan arxitekturaviy shaklning asosiy xususiyatlarining va ularning o'zaro ta'sirlashuvining yuzaga chiqish darajasini aniqlab beradi. Yoritish asboblari, yoritish qurilmalarining alohida tashkil etuvchilari fazoviy muhitning arxitekturaviy obrazini shakllantirishda ishtirok etuvchi elementlar deb hisoblanadi. Shu sababli ular arxitekturaviy muhitning boshqa tashkil etuvchilari qatorida interyerning umumiy kompozitsion qurilishiga kiritiladi va »badiiy belgilarning ustuvor umumiyliги bilan«, ya'ni aniq yo'nalish orqali arxitekturaviy garmoniya va arxitekturaviy go'zallikning yaratilishiga shart-

sharoit hozirlaydi [25]. Yoritish qurilmalarini loyihalashga bo'lgan tafovutli yondashuv savdo-sotiq binolari interyeri uchun ikkinchi qoida sifatida asosiy yorug'lik turlarining quyidagi jamlanmasini hisobga oladi: umumiy, funksional-texnologik, modellashtiruvchi va informatsion (144-rasm).



144-rasm. Yoritish moslamalarini loyihalashda tafovutli yondashishga oid misollar. Yuqorida — savdo zalini yaxlit yoritish yechimi; pastda chapda — umumiy yoritish o'ngda — modellashtirilgan.

Interyerning umumiy yoritilishi xonalarda zaruriy ko'ruvchanlik darajasini ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, bunday yoritilganlik darajasi odam chehrasini ajratishga va unda orientatsiyalanishga hamda fazoviy kenglikning arxitekturaviy jihatlarini va xona shakl-qavatini yuzaga chiqarishga imkon beradi.

Funksional-texnologik yoritish ish joylarida yorug'lik muhitining eng yaxshi gigiyenik va texnologik ko'rsatkichlarini ta'minlash maqsadida yaratiladi. Savdo zallar interyerida bunday yoritilganlik hisoblash-kassa hududida va qo'shimcha xizmat ko'rsatish hududlarida qo'llaniladi.


Modellashtiruvchi yorug'lik namoyish etilayotgan yoki qo'yilgan tovarlar shakllarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatish, yuzaga chiqarish va interyerning arxitekturaviy shaklini namoyish etishga mo'ljallanadi. Bunday yoritish yordamida arxitekturaviy kompozitsiyaning savdo muhiti bilan uyg'unlik qilinishi amalga oshiriladi va uning emotsional ta'sirini ta'minlaydigan sifatlar shakllantiriladi.

Informatsion yorug'lik savdo zallari interyeridagi turli ma'lumotlardan tashkil topgan osilmalarning ko'z orqali qulay qabul qilinish uchun mo'ljallanadi. Ta'kidlash joizki, tavsiya etilayotgan bo'lim qator vaziyatlar turlaridan har birini ma'lum darajada shartli ravishda o'ziga bir nechta funksiyalarni umumlashtirishi mumkin.

Arxitekturaviy yoritishni tashkil etishning uchinchi muhim qoida bino interyeridagi arxitekturaviy muhitning transformatsiyalanishi va

o'zgaruvchanligini ta'minlaydi. Alvar Aaltoni so'zlariga ko'ra arxitekturaliy muhit ancha ko'p darajada inson ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi nuqtayi nazaridan transformatsiyalanish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim: «... u bilan, boshqa uning tashkil etuvchilari bilan shunday muloqotda bo'lish kerakki, natijada ular insonning doimiy yangilanib va rivojlanib turadigan psixologiyasiga javob bermog'i lozim; ... inson atrofidagi bevosita muhit shunday konstruksiyalanishi lozimki, unda doimiy o'zgaruvchanlikka avval boshdanoq uning zamiriga qo'yilgan bo'lmoqi lozim» [1].

Arxitekturaning yuqori sifatda saqlanishi yorug'likning qanday darajada bunday o'zgarishlarga muvofiq kelishini doimiy ravishda rejali o'zgarishlar ro'y beradigan savdo muassasalarining interyeri misolida ko'rish mumkin.



145-rasm. Yoritish moslamalari tarkibini tashkil etishning asosiy uslublari (yuqoridan pastga qarab): funksional jihatdan turli jihatli, hududli tashkil etish, yoritish quvvatini zaxiralash.

146-rasm. Yoritish moslamalarining o'zgaruvchan tarkibini tashkil etishning asosiy uslublari: a, b — tashkil etuvchilarning qismini almashtirish; d, c — yoritish asboblarning mobilligi.

Interyer arxitekturaviy muhitning transformatsiyalanishuvini ta'minlaydigan yoritishni tashkil etishning ikkita asosiy yo'lini ko'rsatish mumkin. Ulardan birinchisi — yoritish qurilmasining berilgan tarkibini yaratish bilan bog'liq bo'lib, yoritishning funksional ahamiyatliligi, yoritish quvvatlarining hududiy tashkil etilishini va zaxiraviyligini tashkil etish usullari kiritiladi (145-rasm). Ikkinchisi esa yoritish qurilmalarining ulardan tashkil etuvchilarni qisman almashtirish asosida o'zgaruvchan tarkibni va yorituvchi asboblarning mobilligini yaratishni o'z ichiga oladi (146-rasm).

Yoritish qurilmasining berilgan tarkibi uning ekspluatatsiya qilinish davri davomida o'zgarasligi, lekin interyer rejasining ma'lum o'zgarishlarini ta'minlash imkoniyatlari bilan baholanadigan sifatlarga ega bo'lmog'i lozim. Savdo zallarida yorug'likning hududli tashkil etilishi ancha iqtisodiy jihatdan ma'qulroq hisoblanadi. Bunday tashkil etish arxitekturaviy muhitning o'zgaruvchanligini hosil qilishi uchun eng kam imkoniyatlarga ega bo'ldi. Amaliyotda qo'llanilishi tez-tez uchrab turiladigan funksional teng ahamiyatlilik uslubi loyihalanishdagi nisbatan oddiyligi va oson rejalashtirilishiga qaramasdan ekspluatatsion sarflar bilan bog'langan, funksional hamda badiiy masalalarning ratsional yechimini ta'minlay olmaydi. Savdo xonalari uchun eng maqbuli bu zaxiralashtirilgan yoritish quvvatlarining qo'llanishi hisoblanadi, lekin u avvalroq aytib o'tilgan uslublarga nisbatan ancha yuqori kapital sarfxarajatlar bilan bog'langan. Shunga qaramasdan u funksional teng ahamiyatlilikda ancha keng imkoniyatlarga ega.

Ikkinchi yo'l — yoritish qurilmalarining o'zgaruvchan struktura hosil qilishi interyerning talab etiladigan qayta rejalaniishi va transformatsiyalanishini ta'minlaydi. Yoritish qurilmasining tashkil etuvchilarini qisman almashtirish ekspluatatsiyaning har bir davri yoritish masalalariga muvofiq kelishini ta'minlash maqsadida yoritish asboblarning sonini va turlarini davriy almashtirish imkonini beradi.

Yoritish asboblarning mobilligi ularning o'qi atrofida vertikal, gorizontal yoki biror-bir boshqa yo'nalishda har bir konkret vaziyat uchun ma'qul bo'lgan yorug'lik oqimlarining shunday tarqalishini ko'chirish imkonini beradi. Binoning savdo interyeridagi bunday uslub arxitekturaviy yoritishni tashkil etish uchun eng samarali bo'lgan uslub sifatida qo'llaniladi. Uning qo'llanishi funksional va badiiy masalalar kompleksini iqtisodiy nuqtayi nazardan to'g'ri yechish imkonini beradi.

Arxitekturaviy yoritishning birinchi yo'li va u bilan bog'liq bo'lgan

uslublari kundalik ehtiyojdagi mahsulotlar bilan bog'langan savdo xonalari, joylarda amalga oshirish tavsiya etiladi; ikkinchi yo'li va uning aniqlovchi uslublari epizodik ehtiyojdagi mahsulotlar bilan bog'langan savdo xonalari va joylari uchun mo'ljallangan. Arxitekturaviy yoritishni loyihalashning bitta emas, balki bir vaqtning o'zida foydalanish imkonini beradigan bir nechta uslublaridan tez-tez foydalaniladi.

Bu qoidalarni amaliyotga qo'llash interyer arxitekturaviy kompozitsiyasini shakllantirish vositasi sifatida yorug'likdan samarali foydalanish imkonini beradi va yorug'likni interyerlarning umumiy arxitekturaviy sifatlarini oshirish omili sifatida namoyon bo'lishiga zamin yaratadi.

ZAMONAVIY TURAR-JOY VA JAMOAT BINOLARI INTERYERLARINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDAGI OMILLAR KOMPLEKSI

Binolar interyerlarini loyihalash ustida olib boriladigan amaliy ish ularni shakllantirish qonuniyatlarini chuqur bilishni va qo'yilgan masalalarni yechishga tizimli yondashishni talab etadi. Ushbu bo'limda asosiy omillar va ularning turar-joy hamda jamoat binolari interyerlarini shakllantirishga ko'rsatadigan ta'sirlarining xarakteri hamda ularni loyihalashda kompleksli yondashish uslublari ancha umumlashgan shaklda bayon etiladi.

1-qism. Interyerning funksiyasi va kompozitsiyasi

Yuqorida ta'kidlanganidek, funksiya va kompozitsiya interyerni shakllantirishda aniqlovchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Interyerning yaratilishi ichki fazoviy muhitni shakllantirishdan, uning o'lchamlarini, shaklini aniqlashdan boshlanadi. Loyihalanayotgan xonalar joylarining mo'ljallanishi ichki muhitni, uning interyerini tashkil etishning aniqlovchi omillari deb hisoblanadi.

Fazoviy muhit o'zining vazifalariga muvofiq ravishda funksional hududlarga bo'linadi, ular ham keyinchalik ancha maqsadga muvofiq tarzda ketma-ket guruhlantiriladi va shu asosda interyer tashkil etilishining strategiyasi tanlanadi. Bunda yechimlarning variantlari bo'lishi mumkin. Bu variantlarni tahlil etish orqali ular ichidan kuch va vaqtni iqtisod qiladigan eng ratsional variantlar ajratib olinadi.

Biroq funksional belgilar bo'yicha tanlanadigan variantlar faqat xonalar, joylar interyerlarini shakllantirish jarayonida boshlang'ich bosqich deb hisoblanadi, ammo ichki fazoviy kenglik nafaqat funksiyalarning ratsional talablariga javob bermog'i lozim, balki interyerning obrazli va kompozitsion qurilishiga ham javob bermog'ini taqazo etadi, chunki kompozitsiya ichki muhitni qurishning qoidasi sifatida interyerda shakl hosil qilishning aniqlovchi omili deb hisoblanadi.

Kompozitsiya funksiya, konstruksiya va badiiy g'oya bilan uzviy bog'langan. Interyerlar sifatidagi shakl hosil qilinishning qonuniyatlari kompozitsiyaning nazariy mazmunini tashkil etadi. Uning masalasi uyg'unlik, badiiy go'zallikka ega bo'lgan asarlarni shu bilan birgalikda inson hayoti kechadigan interyerlarni yaratish bilan ifodalanadi. Shuning uchun ichki fazoviy kenglikni shakllantirishda nafaqat funksional va

konstruktiv talablarni hisobga olish, balki interyerni insonga hissiy ta'sir ko'rsatishini ham e'tiborga olmoq talab etiladi. Ichki fazoviy kenglik insonda erkinlik yoki siqilish, yengillik yoki og'irlik, xotirjamlik yoki zo'riqish, quvonch yoki qayg'ulikni hosil qilishi mumkin.

Interyer obrazi kompozitsiya tarkibiga kiruvchi badiiy vositalar yordamida yaratiladi. Bunday vositalarga: simmetriya va assimetriya, nyuanslik va kontrastlik, ritmik va qismlar hamda butunlik orasidagi aloqadorliklar kiradi. Interyerni loyihalashdagi badiiy vositalar predmetlar yuzasini qayta ishlash usullarini, uning rangini, fakturasini to'ldiradi. Badiiy vositalardan hech biri mustaqil bahoga ega bo'lmaydi va o'z-o'zidan mavjud bo'la olmaydi. Badiiy vosita faqat kompozitsiya tizimidagina ahamiyat kasb etishi mumkin.

Interyerning fazoviy echimini aniqlaydigan omillarning murakkabligi va har xil jinsiligi muallifning uni ketma-ket korrektirovkalash orqali olib borishini talab etadi. Funktsional va estetik muvofiqlik nuqtayi nazardan baholanadigan qator eskizlar bajariladi. Ularning baholanishi interyer yechimining navbatdagi variantlari zahirida amalga oshiriladi.

2-qism. Interyerda dekorativ-amaliy san'at asarlarining qo'llanilishi

Badiiy vositalar ichida san'atning dekorativ-amaliy turlari eng kuchli ta'sir ko'rsatishga qodir. Fazoviy bo'shliqning emotsional to'ldirilganligiga erishish uchun tasviriy vositalarning qo'llanilishi zarur bo'ladi (*147-rasm*). Monumental rang-tasvirdan panno, tasvirlar sifatida foydalanishda takt, me'yorni ushlashga rioya qilish, alohida asarlarning eng yaxshi joylashish variantlarini tanlash talab etiladi.

Interyerning bezatilishida arxitektura, rang-tasvir, haykaltaroshlik grafikaning o'zaro aloqadorligi uyg'unlashuvning qonuniyatlariga asoslanadi, interyerning bezatilishi esa uning nimaga mo'ljallanganligiga bog'liq bo'ladi.

Masalan, muzeylar, ko'rgazmalar, ekspozitsiyalar uchun mo'ljallangan xonalar, joylar uchun ekspozitlarni namoyish etish, ko'rsatish uchun eng yaxshi sharoitlarning ta'minlanishi talab etiladi. Bunga nafaqat obzor uchun yetarli bo'lgan sharoitlar bilan, balki plastikli va rangli yechimlar bilan ham erishish talab etiladi.

O'ylangan mavzuni ochish, yoritish uchun fazoviylikni aks ettiradigan san'at turlari keng jalb qilinadi. Fazoviy muhitga dekorativ-amaliy san'at turlarini kiritishda uning yuqori badiiy mutanosibligining

inobatga olinishi taqazo etiladi, bunda u xonaning bajaradigan vazifasiga, interyerning rangli yechimiga, uning jihozlariga, mebeliga, yoritilganligiga muvofiq tarzda tanlab olinadi.

Ichki fazoviy kengliklarni tashkil etishda monumental asarlardan keng foydalaniladi. Ular kompleksga panno, haykallar, fazoviy kompozitsiyalar sifatida kiritiladi.

Panno uchun mazaika, qirqma, relyef bajarilishining samarador usullari tanlanadi. Yanada yangi materiallarning, bir vaqtning o'zida eski materiallarning qo'llanilishi, qayta ishlash usullarining kengaytirilishi interyerlarni loyihalashning uslublarini takomillashtirish uchun cheksiz imkoniyatlarni ifoda etadi. Metallni qayta ishlash variatsiyalari — kovsharlash, quyish, egish, payvandlash, toblash, kesish, yopishtirish, silliqlash, donador shakllantirish, qoraytirish, kuydirish, loklash, bo'yash — materialning hamma bunday qayta ishlanishi turli kompozitsiyalar, panno, pardevorlar, bezaklar, chiroqlar, deraza panjaralari, eshiklarni yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

Baribir qadimgi keramika eng ommabop bo'lib qolaveradi. Bu — dekorativ taqsimchalar, panno, hajmli haykallar, relyeflar hamda vazalar, idish-tovoqlar, gul tuvaklar, kashno, unsurlarning dekorativ bezak sifatida interyer fazoviy kengligiga qo'yilishidir (*148—149-rasmlar*). Zamonaviy interyerlarda yog'ochdan ishlangan buyumlar keng qo'llanilmoqda. Bunday buyumlarga pardevorlar, devorlar, panno, mebel, plafonlar kiradi. Yog'ochning qayta ishlanish imkoniyatlari turlicha: kuydirish, o'yish, silliqlash, turlash, loklash, turli lak-bo'yoqli tarkiblar bilan bo'yash. Interyerdagi alohida shinamlikni mato yaratadi. Uni gobelenlar, pardalar, to'siqlar, gilamli yo'lakchalar, mebel qoplamalari ko'rinishida interyerga kiritish mumkin. Kanopli mato nafaqat dekorativ funksiyani bajaradi, balki u derazalarga yengil taramli holatda osilganligi bilan jazirama quyosh nurlaridan ham himoya qiladi, ancha zichroq holatda bo'lsa, sezilarli darajada shovqinni ham yutadi. Juda ham zich holatda to'qilgan kanop xonaga sovuq havoning oqib kirishiga to'sqinlik qiladi. Silliq matolar ancha keng tarqalgan bo'lsa-da, lekin ular kamroq ko'rkamlik bag'ishlaydi, ular o'ziga xos strukturaga ega — faktura va rangi bo'yicha chiroylidir. Junli, ipakli, paxtadan tayyorlangan tarkibdagi matolar ma'muriy komplekslarda almashtirib bo'lmaydigan darajada o'z o'rniga ega. To'qilgan tasviriy matolardan bolalar muassasalarini, mehmonxonalar, xollarni bezatishda foydalaniladi (*150-rasm*).

Keng oynali oraliqlarni yopish uchun butunlay bir tomonni qoplaydigan pardalar keng qo'llanilmoqda. Tomosha zalini bezaydigan sahnadagi parda markaziy rolni bajaradi. Alohida tasviriy asarlar interyerli muhitda yanada keng qo'llanilmoqda. Ularning tabaqalarini tanlashda fazoviy muhit bilan mos o'lchamlarini e'tiborga olish juda zarurdir. Yashash muhitida: mehmonxonalar, xonadonlar, yotoqxonalar, dam olish uylarida — estamplar, litografiyalar, ofortlar hamda original akvarelli rasmlarning qo'llanilishi juda o'rinlidir. Yashash burchagiga terak shoxidan, ildizlardan, guldastalardan yasalgan ishlanmalar betakror husn bag'ishlaydi.

3-qism. Tabiatdagi tirik shakllar

Interyerni dekorativ bezatishda tabiatdagi jonli shakllardan ham foydalaniladi. O'simliklar estetik roldan tashqari havoni kislorod bilan to'ldirish orqali sog'lomlashtirish maqsadida katta ahamiyat kasb etadi. Arxitekturaviy interyerda ular landshaftli reja fragmenti, akvariumlar, jonli burchaklar, gullar bilan to'ldirilgan yuzalar sifatida namoyon bo'ladi. Arxitekturaviy interyerni bezatishda o'simliklar va jonli mavjudotlarning nafaqat tashqi ko'rinishiga, balki ularning haroratga, namlikka va yorug'likka bo'lgan ehtiyojlarini ham hisobga olish ham juda zarurdir.

Yashil muhitni shakllantirishning eng keng tarqalgan usuli bu alohida o'simliklarni guldonlarga, tuvaklarga, kashnolarga, stol ustiga, pol yuzasiga, devorlar bo'ylab, maxsus idishlarga joylashtirish bilan amalga oshiriladi (*151, 152-rasmlar*). Alohida «orolchalar»ni tashkil etishda kompozitsiyaga daraxtlar, butalar, toshlar, favvorali suv havzalari, akvariumlar, terrariumlar, sayroqi va dekorativ qushlar joylashtirilgan qafaslar kiritiladi. Zamonaviy arxitekturaning tabiat bilan sintez qilinishi qishki bog'larning bino ichiga rostlanuvchan mikroiqlimda bilan kiritilishi bilan yorqin ifodalanadi. Shu bilan bir qatorda ulkan yashil bog'larning bir necha qavatlar bo'ylab qo'llanishi ham ko'p uchraydi. Ular atriumli fazoviy bo'shliqlar nomi bilan asta-sekin keng tarqalmoqda.

Ko'prik, daraxtlarga ega bo'lgan suv havzasi bilan badiiy bezatilgan ochiq hovli haykal, gazonlar va gulzorlar bilan uyg'unlashib, insonning tashqi olam bilan bog'lanishini samarali ta'minlaydi.

Ochiq hovlida zarxal satxda joylashgan tosh yotqizilgan yo'lakchalar, favvoralar, qum yoki mayda toshchalar sepilgan maydonchalar, murakkab konfiguratsiyaga ega bo'lgan suv havzalari ochiq hovlini

bezatish elementlari bo'lib xizmat qiladi. Ko'z bilan ko'rish orqali qabul qilishga tarnovlar orqali oqayotgan suv shovqini, gullarning bir-birlariga tegib ovoz chiqarishi quloqqa mayin eshitiladi. Qishki bog'ning yaltiroq pardevorlar bilan to'silishi kontrastlikni hosil qiladi.

4-qism. Kichik arxitekturaviy shakllar. Mebel

Interyerni tashkil etishda qo'llaniladigan qator elementlar qat'iy funksional mo'ljallanganlikka ega. Ularni tanlashda loyihachi ulardagi o'ziga xos talablarni hisobga olmog'i lozim. O'ziga xos talablar ichida elementlarning qulay qaratilganligi kam bo'lmagan muhit bilan organik bog'liqlikda o'ziga xos yagonalikni hosil qiladi (*153, 154, 155-rasmlar*). Interyerni kichik arxitekturaviy shakllar bilan bezatishda hamma narsalar uchun eng ma'qul bo'lgan konstruktorlik varianti va pardoqlash materiali aniqlanadi. O'rindiqlar, sufachalar, gultuvaklar va boshqa idishlar shakli bo'yicha go'zal va ko'rkam qilib tayyorlanadi, lekin bunda ansamblga mos tushishiga katta e'tibor qaratiladi.

Arxitekturaviy muhitda dizaynning mavjud bo'lishi interyerni loyihalashning ajralmas qismi deb hisobga olinadi. Arxitektura va dizayn orasidagi o'zaro bog'lanish interyerda yagona yo'lli ansamblni yaratish bilan unda jihozlarni joylashtirish yorqin ifoda etiladi.

Interyerni tashkil etishda jihozlarning tashqi bezatish bezagini tanlash lozim bo'ladi. Bunda berilgan muhit uchun qanday shakllar, rang, faktura, gabaritlar mos tushishi haqida o'ylash taqozo etiladi.

Mebel har qanday interyer uchun muhim va zarur bo'lgan komponent hisoblanadi. Mebel inson tomonidan turli harakatlarning bajarilishi uchun eng yuqori qulaylikni yaratgan holda fazoviy kenglikni tashkil etishda faol ishtirok etadi. Mebelning shakllari va konstruksiyalari odamning o'lchamlari va uning qismlarinining proporsiyalari bilan bog'langan.

Foydalanish nuqtayi nazaridan mebellar turar-joy, ma'muriy, ishlab chiqarish va transport sohasiga tegishli bo'lgan binolar uchun mo'ljallangan bo'ladi. Mebel o'tirish, yotish uchun mo'ljallanadi hamda mebel, qo'ygich stol, mebel saqlagich va kombinatsiyalashgan mebellar — divan-karavot, sekreter va h.k. ham bo'ladi. Mebellarni joylashtirishda uning ratsionalliligiga erishish hamda badiiy-estetik ko'rinishga ham e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Oshxona mebellarini noto'g'ri joylashtirish oshxonada odamning kun mobaynida bir necha kilometr ortiqcha harakat qilishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda

har bir interyerda predmetli muhitning rangli va dizaynli yechimi bir-biriga mos tushishiga ham erishish ancha muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu yagonalik yoki mos tushuvchanlik xonaning estetik sifatlarini uning nimaga mo'ljallanganligini hisobga olgan holda aniqlab beradi.

Narsa va buyumlarni saqlashga mo'ljallangan sig'implarning o'lchamlari inson tomonidan kundalik yoki davriy ravishda foydalaniladigan predmetlarning o'lchamlariga bo'ysunadi. Yetib borishga eng qulay bo'lgan o'rta hudud doimo e'tibor ostida bo'ladigan kitoblar, asboblarning uchun ajratiladi, pastki qism kamdan kam talab qilinadigan kattaroq va og'ir bo'lgan jismlar va predmetlar uchun mo'ljallanadi. Yuqori yarus ma'lum bir mavsumda ishlatiladigan predmetlar uchun mo'ljallanadi, lekin ularning o'lchamlari katta bo'ladi. Masalan, chang'ilar, chanalar, dachaga xos bo'lgan anjomlar va buyumlar uchun.

Mebel interyerga organik tarzda kirib borishi va fazoviy muhitda badiiy mutanosibligi bilan ajralib turmog'i lozim bo'ladi, lekin mebellarning qo'yilishi bilan hech qachon interyerni narsa-buyumlar to'plamiga aylantirmaslik kerak. Vertikal o'rnatilgan mebel yashash fazoviy muhitni eng yuqori darajada erkinlashtiradi.

Rangiga ko'ra devor chizig'i bo'yicha ma'lum bir kompozitsiya hosil qiladigan va xona hajmiga mos tushadigan mebelni tanlash muhim rol o'ynaydi.

Hozirda transformatsiyalanadigan, yig'iladigan, puflab shishiriladigan mebel turlari keng tarqalmoqda.

Tashqi interyerning tashkil etilishi ko'rish kommunikatsiyalari bilan bog'langan. Bunga yorug'lik-grafik vositalari, ko'rsatkichlar, shartli belgilar belgilashlar va shu kabilar kiradi. Elektron ko'rsatkich yordamida vaqtni o'lchash asboblari, atmosfera, mikroiklim ko'rsatkichlari, «yuguruvchi misra» va katta formatli teleekranlar o'rnatiladi. Bunda ranglar yorug'lik, umuman, tirik organizmlarning qurshoviga muhim estetik ta'sir o'tkazish omili sifatida namoyon bo'ladi.

5-qism. Tasviriy san'atlarning sintezi

Arxitekturada, jumladan, interyerda san'atlarning sintez qilinishi asarlarning shunchaki «bitta tom ostiga» jamlanishini bildirmaydi, bu shunday yagonalikni yaratish demakki, unda bu san'atlar bir-birining ichiga kirib ketadi, ya'ni arxitektura haykaltaroshlik va tasviriy san'atga, haykaltaroshlik va tasviriy san'at arxitekturaga aylangandek bo'ladi. Bu yagonalikda arxitektura yetakchi omil bo'lib xizmat qiladi; haykaltaroshlik

va rangtasvir o'zining xususiyatni yo'qotmagan holda arxitekturaviy-kompozitsion elementlar sifatida namoyon bo'ladi. Sintez qilinayotgan ijodiy faoliyat xususiyatlik jihatlar va qonuniyatlarga ega bo'ladi, ularning qo'llanishi haqqoniy san'at ansamblining yaratilishiga shart-sharoit hozirlaydi. Interyerda san'at turlarining sintez qilinishi arxitektura, haykaltaroshlik va rangtasvir ma'lum arxitekturaviy muhitda uzluksiz birlashtirilgan kompozitsion yagonaligini tashkil etadi (*156-rasm*).

Bunday organik uyg'unlikning yaratilishi har bir tasviriy san'at turiga alohida mansub bo'lgan xususiy sifatlarning saqlanishi va qator umumiy xossalarning qo'shiluvchanligiga asoslanadi.

Umumiy xossa ta'sir o'tkazishning yagona muhitini xarakterlaydi. Uchala san'at turining fazoviyligi ular uchun umumiy bo'lgan sifatlardan biri deb hisoblanadi. Arxitektura tasviriy san'at asarlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan birlamchi konkret fazoviy muhitni tashkil etadigan va yaratadigan san'at sifatida o'zaro ta'sirlashuv nuqtayi nazaridan o'rnatishda aniqlovchi bo'lib namoyon bo'ladi. Tasviriy san'at fazoviy muhit shakllarining va to'suvchi konstruksiyalarning arxitekturaviy komponentlari go'zalligini kuchaytirish uchun jalb qilinadi, ular orqali esa arxitekturaviy fazoviy muhitga kirib boradi.

Arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san'atning umumiy xususiyati san'atlarning sintez qilinishiga imkoniyat yaratib beradi. Arxitekturaviy shaklda bu hajm va tekislik, haykaltaroshlik shaklda esa tekislikdagi hajm relyefli tasviridir. Rangtasvir tekislikda bajariladi va tasvirlash vositasi orqali fazoviy bo'shliq, hajm va tekislikni ifoda etishi mumkin. Tasviriy san'at turlarining arxitekturaviy shakl bilan ta'sirlashuvi arxitekturaga bo'ysunadi. Xususiy asarlarning kompozitsiyasida ularning ishtirok etishida avvalombor arxitekturaviy fazoviy muhitning fizik kattaliklarini, hajmi va tekisligining, ulardagi materiallarning fakturasi, rangining hamda tektonikasining hisobga olinishi juda zarurdir.

Badiiy shaklning plastik, rang, texnik vositalar sifatida ishlatilishi uchala san'at turiga ham barobar yaqindir.

Sintezning umumiy maqsadi arxitekturaviy obyekt g'oyasining tugallangan emotsional-obrazli tasvirini yagona fikr bilan ifodalashdan iboratdir. Jahonga shuhrat qozongan noyob bo'lgan Parfenon relyeflari, Mikelandjelo, Rafael, Tintoretto va boshqa ko'plab monumental san'at asarlari tashkil etadi.

Arxitekturaviy shakl bilan bo'lgan bog'lanish haykalga yoki rangtasvirga «monumental» va «dekorativ» san'at sifatidagi sifatlarni beradi.

«Dekorativlik» atamasi estetik ma'noda badiiy shaklning sifatini aniqlab beradi va insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojini ifoda etadi. Zamirida san'atlarning bir butun qatori yotgan dekorativ san'at buyumlarini ishlab chiqarish va ularni turlicha bezatish bilan xalq ijodiga kirib boradi.

Dekorativ san'at estetik jihatdan moddiy madaniyatga mansub bo'lib, undan interyerni bezatishda — dekorativ rangtasvir va plastika, badiiy shisha, keramika, quyma, o'ymakorlik, misgarlik, matolardan foydalaniladi. Sintezda monumental va dekorativ san'atning bosh masalasi bu arxitekturaviy shaklning ta'sir o'tkazishini kuchaytirishdan iborat. Bu ko'plab elementlar — geometrik, o'simliklar yoki jonli organizmlarning tartiblangan predmetli tasvirlangan turli ko'rinishdagi ornamental kompozitsiyalaridir.

Monumental asar tasvirning mazmunan va syujetli aniqlanganligi bilan badiiy obrazning konkretligida g'oyalarning konsentratsiyalashuvi orqali o'zining ko'rkamligi va go'zalligini ifoda etgan holda namoyon bo'ladi. Qoidaga ko'ra shakli va mazmuni bo'yicha maqsadga muvofiq bo'lgan bu asar o'zining turli-tuman ko'rinishlarida qo'llaniladigan kartina yoki haykaltaroshlik asarlaridir. O'zining to'g'ridan to'g'ri yoki allegorik vositalari bilan ular g'oya mazmunini ochib berishda faol ishtirok etadi.

San'at turlarining sintezidan foydalangan holda bus-butun arxitekturaviy-badiiy obrazni yaratishda bu san'at turlarining g'oyaviy-mazmunan yaqinligi ularning bir qancha usullari yordamida arxitekturaviy-kompozitsion tarkibga organik tarzda qo'shilib ketishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shakllarning fazoviy o'qlarini o'rnatish usuli. Bu o'qlar yo'nalishida monumental asarlarni joylashtirish mumkin. Haykaltaroshlik asarlari yoki kartinalar kulminatsiyali ahamiyat kasb etib, ularning mazmuni tasvirning obrazli mohiyati orqali ochib beriladi.

Arxitekturaviy shakl ushbu vaziyatda qabul qilinish effektini tayyorlab beradi.

Ichki fazoviy kenglikda mazmuniy mo'ljalni belgilash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan hajm yoki tekislikni ajratish usuli. Syujetli yoki dekorativ-ornamentli monumental kompozitsiyaning tarkibiy mazmuni aksentli shaklning ahamiyatini tushuntirishga shart-sharoit yaratib beradi.

Fazoviy shakl yoki bevosita to'siq konstruksiyalar massasining tektonik tarkibidan foydalanish usullari san'at asarlarining qo'yilish joyini, uning

parametrlari va materialini aniqlab beradi. Bu usullardan biri ochiq fazoviy kenglikda oynali to'siqlar ortida haykaltaroshlik asarlarining joylashishini aniqlashdan iborat. Bunda ichki fazoviy muhitning tashqi tomon bilan, kadr kartinaviyligining yorug'lik effektlari va chegaralovchi to'siqlarning yengilligi bilan rivojlantiriladi va h.k.

Interyer fazoviy muhitini yon tomonlarga va yuqoriga illyuzorli kengaytirish usuli. Bunga shift og'irligini olib tashlash yengillatish effektini ham kiritish mumkin. Fazoviy muhitni illyuzorli kengaytirish usulining uchta turi mavjud bo'lib, ular «ramadagi kartina» (klassitsizm usuli), «kartinali tekislik» (renessans) va «devordagi ochiq oraliq» deb shartli ravishda nomlanadi.

Ichki fazoviy bo'shliqni qismlarga ajratish usuli. Bu vaziyatda faoliyat yoki harakatlanishning ma'lum hududlarini ajratish uchun hajmiy-haykaltaroshlik asarlaridan foydalaniladi.

O'ZBEKISTON XALQ TURAR-JOYLARIDA INTERYERLI MUHITNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

1-qism. O'zbekistonda zamonaviy turar-joy va jamoat binolarida xalq turar-joylari interyerini tashkil etishda to'plangan tajribalardan foydalanish

O'zbekiston xalqi, jumladan, yosh avlod xalqimiz tomonidan avvalgi davrlarda yaratilgan betakror arxitekturaviy asarlari bilan hech shak-shubhasiz faxrlansa arziydi. Bizning davrimizgacha yetib kelgan yodgorliklar san'atning noyob, haqqoniy asarlari bo'lib, umumjahon tarixida o'zining munosib o'rnini egallagan holda jahon madaniyatining bebaho merosiga kiritilgan. Bu arxitektura asarlarining betakror go'zalligi nafaqat tashqi shakllarda, balki ichki interyerli muhitning ajoyib tarzda tashkil etilishi va pardoatlanishida ham o'z ifodasini topgan. Binolarning interyerlarini va ayniqsa, xalq turar-joylari interyerlarini shakllantirishda ahamiyatga molik katta tajriba to'plangan. Afsuski, zamonaviy binolarning loyihalarida bunday boy tajriba o'zining to'liq va munosib holda qo'llanilishini topmayapti.

Xalq turar-joylari interyerini tashkil etish haqiqatdan ham o'ziga xosdir. Bunday xususiyat turmushda to'plangan madaniy-maishiy an'analar va uy egalarining turmush tarzi ta'siri ostida yuzaga kelgan. Tashkil etilgan fazoviy bo'shliq sifatidagi o'zbek xalqi turar-joylarining interyerida insonning jismonan va ruhan rivojlanishiga bo'lgan moyillik, farzandlarni tarbiyalash uchun zarur bo'lgan muhitni yaratish, odamlarning ijtimoiy hayotini tashkil etish kabi muhim masalalar allaqachon o'z yechimini topgan.

Ko'plab turar-joy interyerlari tabiiy-iqlim sharoitlarining bevosita ta'siri ostida shakllangan. Bunday turar-joylar respublikamiz alohida regionlarida uchraydigan o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. Bu ta'sir turar-joylarning fazoviy va funksional tashkil etilishida qurilish materiallarini hamda konstruksiyalarni tanlashda o'z aksini ifoda etadi. O'zbekiston murakkab va har xil relyefli hududlarga ega bo'lib, bu hududlardagi bepoyon dashtli tekisliklar va cho'llardan asta-sekin Hisor, Oloy va Tyan-Shanning shimoliy tog' yonbag'irlariga o'tiladi. O'zbekiston serquyosh o'lka. Bu o'lkada quyosh nurlarini yorqin sochadi va muddatli quyoshli holat o'z hukmini o'tkazadi. Quyoshli onlarning o'rtacha yillik soatlar soni 2700 dan 2900 soatga, hududning shimoliy qismida bu ko'rsatkich 2800 dan 3100 gacha soat atrofida tebranadi. Biroq quyosh

nurlarining cheksiz taralishi va issiq ob-havo ko'p vaqt davom etishiga qaramasdan, bu yerda qish ancha sovuq kechadi, hattoki absolyut harorat janubda 25—30 gradusgacha, shimoli g'arbda esa 35—38 gradusgacha pasayishi kuzatiladi. Yozda o'rtacha oylik harorat tekisliklar va tog' yonbag'irlarida 25—30 gradusni tashkil etsa, alohida oylarda absolyut ko'rsatkichlar 40—42 gradusgacha etadi. O'zbekistonda shamolli rejim ham o'ziga xos xarakterga ega. Yilning issiq davrida o'lka hududining katta qismida shimoliy va shimoliy-g'arbiy yo'nalishda shamol esib turadi, lekin bu shamol kuchsiz bo'lib, uning tezligi 2—5 m/sek oraliqda o'zgarib turadi. Biroq ba'zi paytlarda, ayniqsa, bahor faslida shamol ancha to'zonli tus olib, yomg'ir va do'llar yog'ini ostida esadi. Ancha kuchli bo'lgan shamol tog'li va tog' oldi rayonlarining katta qismida va Ustyurt kengliklarida esadi, bu hududlarda shamolning tezligi 30—40 m/sek gacha etadi.

Qurilish amaliyoti davrining butun tarixi davomida tashqi faktorlarning noxush ta'sirlarini bartaraf etish uchun kurash olib borilganligidan va inshootlarda eng ma'qul bo'lgan mikroiklim muhitlarini yaratish uchun uzluksiz ravishda keng ko'lamda ishlar olib borilganligidan guvohlik beradi. Bunday kurashish usullari qurilish jarayoni va inshootlardan foydalanish davomida to'plangan tajriba asosida doimiy ravishda takomillashtirilib borildi.

2-qism. O'zbekiston turar-joylarining tipologiyasi

O'zbekiston turar-joylariga tashqi iqlim sharoitlari va milliy turmush tarzi an'analarning birgalikda ko'rsatgan ta'siri quyida keltirilgan misollarda yanada yorqinroq kuzatiladi.

Xorazm turar-joylari. Bu yerda yashash uylari turar-joylarining ajralib turadigan jihatlari ularning yorug'lik tushish tomonlari bo'yicha puxta mo'ljal qilinishida, fazoviy muhitning maqbul yechimi hal qilinishida va konstruksiyalarning oddiyligida o'z ifodasini topadi. Shu bilan birgalikda ulardagi yog'och elementlarning ishtiyoq bilan pardoqlanganligi, uylarga arxitekturaviy-badiiy jihatdan to'liq ishlov berilganligidan dalolat beradi. Xarakterli Xorazmcha uy to'g'ri burchakli to'rtburchak shaklidagi maydonni egallab, shimol — janub o'qi bo'yicha cho'zilgan bo'ladi. Bu o'qda Xorazmdagi barcha yashash uylari uchun xarakterli bo'lgan yadro joylashadi. Bu yadro ikkita turli kattalikdagi ayvonlar, keng mehmonxona va yashash xonalaridan tashkil topadi. To'g'ri burchakli to'rtburchak shaklidagi yopiq hovli ustiga «hukmron» tarzda shimol

tomondan esadigan shamolga ochiq qaratilgan holatda «tars» — ayvon ko'tariladi. Ayvonning orqa tomoniga yo'lakka ega bo'lgan yashash xonasi quriladi, koridor orqali oshxonaga, omborxonaga va uyning shimoliy qismida joylashgan xo'jalik hovlisiga o'tiladi. Kichik ayvon ortida mehmonlarga mo'ljallangan xona joylashtiriladi. Uyning devorlari tashqi va ichki tomondan somonli loy bilan suvaladi va yashash xonalarining poli yog'och taxtalardan ishlanadi. Yashash uylari bo'yicha Xorazm me'morchilik maktabi uchun hovlining har bir qarich yeridan unumli foydalanish o'ta xarakterlidir.

Buxoro uylari. Odatda, Buxorodagi uylar ikki yoki uchta hovliga ega bo'lib, ular o'z tarkibiga tantanali, yashash va xo'jalik qismlarni kiritadi. Bu uylarda baland yozgi xonalar yaqqol ajralib turadi va ular shimol tarafga qaratilgan bo'ladi. Qishki xonalar esa yozgilariga nisbatan ancha past bo'lib, ular janubiy yoki g'arbiy orientatsiyaga ega bo'ladi. Uylar interyerlari nozik o'yma namoyon va taxmon, tayoqchalar bilan bezatiladi. Shiftlar rangli rasmlar bilan qoplanadi, eshiklar va derazalar o'ymakorlik asosida bajariladi. «Tashqari» deb ataluvchi tantanavor hovli mehmonxona va ayvonga ega bo'lgan kirish guruhlaridan tashkil topadi. «Ichkari» deb nomlanuvchi yashash qism alohida xonalarga ega bo'lib, ular peshayvon bilan bog'langan. Xo'jalik hovlisida qoramollar uchun mo'ljallangan ayvonli qurilma — molxona joylashtiriladi. Xuddi shu qismda ovqat tayyorlash xonasi va tandirxona ham joylashtiriladi. Buxoroda XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida qurilgan ko'plab uylar hozir ham saqlanib qolingan. Mahalliy me'morlarning istedodi va mahorati arxitekturada yorqin va yaqqol ifoda etilgan.

Qashqadaryo uylari. Qashqadaryo uyi Movarounnahr uchun an'anaviy bo'lgan turar-joy arxitekturasi xususiyatlariga ega bo'lishi bilan xarakterlidir. Bu uyda perimetr bo'ylab yashash va xo'jalik xonalarining qurilishi bilan ikkita yopiq hovlining mavjud bo'lishi uning alohida o'ziga xos jihatini belgilab beradi. Bu hovlilardan birinchisi hovli — birun deb atalib, uyning erkaklar uchun mo'ljallangan yarim qismi bo'lib, bu qism yashash, uchrashuv o'tkazish va rasmiy qabulxona uchun xizmat qiladi. Ikkinchi hovli darun — ichkari deb atalib, uyning ayollar uchun mo'ljallangan ikkinchi yarmini tashkil etadi. Hovli tomondan uyga o'yma yog'och ustunlardan tashkil topgan ayvon qo'shilgan. Tantavor xonalar va ayvonning shiftlari alohida ko'rkamlikka ega bo'lgan holda bejirim ishlanganligi bilan e'tiborga molikdir. Yog'och to'sinlar va ular orasining toqilar bilan to'ldirilishi alohida ahamiyat kasb etadi va bu

to'sinlar hamda toqilar kamdan kam hollarda rangli rasmlar va tasvirlar bilan bezatilgan. Mehmonxonaning qalin devorlari ichiga shaklli taxmonlar qurilgan bo'lib, ular idish-tovoqlar va ro'zg'or anjomlarini joylashtirishga mo'ljallangan.

Samarqand uylari. Bu uyning yorqin misoli sifatida Samarqand mavzesida joylashgan Qozi Abdurasul uyini keltirish mumkin. Uy noto'g'ri shakldagi maydonni egallagan bo'lib, u sharqiy—g'arbiy bo'yicha uzaytirilgan. Uyning kompozitsiyasi ikki hovlili bo'lib, uning qavatlar soni har xil, ya'ni aralash tarzda qurilgan. Kirish darvozalari janubiy—g'arbiy burchakda joylashgan. Burun — tashqari o'ziga perpendikulyar joylashgan holda qo'shib qurilgan bir ustunli ayvonga ega bo'lgan mehmonxona, otxona, ikkinchi qavatga eltuvchi zinapoya va o'rtasida quduq joylashgan yashil maydonli hovliga ega. Otxona ustiga ensiz dahlizli boloxona qurilgan. Uyning ayollar uchun mo'ljallangan ikkinchi yarmida umumiy dahlizga ega bo'lgan yashash xonalari, oshxona va bir ustunli ayvon qurilgan. Devorlar konstruksiyasi bir va ikki qatorli yog'och karkas—sinchdan tashkil topgan bo'lib, pishgan g'ishtdan terilgan. Tom yopilmasi an'anaviy to'sinli yassi holatda bo'lib, to'sinlar orasi vassalar bilan yopilgan. Yashash uylarining interyerlari ganch o'ymakorligi san'ati va xonalar shifti esa naqshli rasmlar bilan bezatilgan.

Toshkent uylari. Toshkent turar-joylarida, odatda, uyning janub tomonida tashqari va ichkariga eltadigan ikkita yopiq kirish bo'ladi. Uyning «tashqari» deb ataluvchi shimoliy yarim qismi perimetr bo'yicha qurilgan. Bu qismda bir nechta yashash xonalari va g'arbga ochiq holatda qaratilib qurilgan ayvon joylashadi. Uyning «tashqari» deb nomlanuvchi janubiy ikkinchi yarmi ikki qavatdan iboratdir. Pastki qavatda yopiq kirish joyi, oshxona va ikkinchi qavatga chiqadigan zinapoya qurilgan bo'lib, ularning ustiga «П» shaklida uchta yashash xonasi va ayvon joylashgan. Ular orasida baland ochiq fonarli tarxiy ko'rinishi kvadrat bo'lgan hovli-soyabon joylashgan.

«Ichkari» qism ham perimetr bo'ylab qurilgan bo'lib, kirish joyidan sharq tomon bo'ylab oshxona o'ziga tegishli mahsulotlarni saqlash xonasi bilan birgalikda qurilgan, uyning g'arb tomonida dahlizga ega bo'lgan uchta yashash xonalari o'z o'rnini egallagan. Bu yerda sharqqa ochiq holatda qaratilib qurilgan ayvon hamda tandirxona ham joylashgan. Mehmonxona interyeri to'rtta devorda taxmon, tokchalarning o'rnatilishi bilan urg'uga ega bo'lib, bu tokchalar choyshablar hamda ro'zg'or anjomlarini joylashtirishga mo'ljallangan bo'ladi. Yashash xonalarining

to'sinli shiftlari betakror shakllarning rangdor rasmlarini o'zida mujassam etadi.

Farg'ona uylari. Odatda, Farg'ona uylari turar-joylari ikkita hovlidan tashkil topadi: mustaqil kirish joylariga ega bo'lgan tantanavor va yashash qismlaridan, tantanavor qismning yadrosi — bu dahlizli mehmonxona va unga qo'shib qurilgan ayvondan iborat bo'ladi. To'g'ri burchakli to'rtburchak shaklidagi hovlining yashash qismida ayvonli ikkita yashash xonasi va qator boshqa xo'jalik xonalari joylashadi. Ko'p hollarda uy ikki metrli supa ustida muvozanatlashadi. Ayvonlardagi toqilar bilan yopilgan to'sinli yassi tom yopilmasi yog'och ustunlarni ushlab turadi. Yashash xonalari «mo'ri» yordamida isitiladi, shakldor bo'rtmaga ega bo'lgan taxmon — tokchalar idish-tovoqlar hamda ro'zg'or anjomlarini saqlashga mo'ljallangan bo'ladi. Bu taxmonlarga sandiqlar, shkaflarni ham joylashtirish mumkin. Farg'onalik ustalar vodiy tog'lar bilan qurshalganligi sababli seysmik jihatdan xavfli hudud ekanligini bilgan holda yashash va boshqa qurilishlarni ikki qatorli «qo'shsinch» orqali tiklaganlar. Devorlarning qalinligi 60—80 sm ni tashkil etgan. Qaralayotgan uyda ganchga o'yilgan naqshlar qiziqarli bo'lib, bu naqshin devorlar va taxmonlar orasidagi devorga joylashtirilgan. Xonalarning yuqori qismidagi perimetr bo'yicha, odatda, ultrabinafsha fonda, oq rangda geometrik naqshlar chiziladi. To'liq va zich naqshli rasmlar bilan tasvirlangan shift alohida taassurot qoldiradi, undagi qizil fonda mayin va nozik o'simlikning rasmi yaqqol ajralgan holda ko'zga tashlanib turadi. Farg'ona vodiysi yashash uylarida ba'zida ayvon mehmonxona bilan «qashqarcha» deb ataluvchi usulda qo'shib qurilgan bo'ladi.

Namangan yashash uylari. Beqiyos ko'p sonli uylar ichida Yusufbek hoji uyi kishi e'tiborini o'ziga jalb etadi va bu uyda, ayniqsa, uchta zal — mehmonxona interyerlarining pardozi va bezatilishi alohida taassurot qoldiradi. Ularda xalq ustalari rus arxitekturasini va jonli tasvir san'ati bilan tanishib, yangi vositalardan foydalangan holda devor hamda shiftlarni tabiatlar, natyurmortlar va islmiy naqshlar bilan bezatishgan. Bu uyda Farg'ona me'morlari an'anaviy rejaviy yechimlarga ichki fazoviy muhitni bezatishning yangi usullarini singdira olish bilan o'zlarining badiiy bezatish bo'yicha imkoniyatlarini yaqqol namoyon etishgan.

3-qism. Xalq turar-joylarining bezaklari va funksional elementlari

Imorat interyerining ko'rinishi va funksiyasi xona qismlari, jihozlari bilan belgilangan. Masalan, saroyda — taxt, ibodatxonada — ilohlar,

budda haykallari, ular uchun tokcha bo'linmalari, supalar, otashparastlik ibodatxonalarida — otashkada va muqaddas mehroblar, masjidida mehrob, turar-joyda supa, taxminan, tokchalar xonaning asosiy funksiyasini belgilab turgan. Turar-joylarda yozgi, qishki va mehmon kutishga mo'ljallangan xonalar nazarda tutilgan. Xonalar poygoh va peshgoh qismlarga ajratilgan. O'choqlar xonaning poygoh qismi devori oralig'ida joylashtirilgan.

Supalar. Turar-joy me'morchiligida xona yuzasini egallaydigan jihozlardan kam foydalanishga harakat qilingan. Xona sathidan unumli foydalanishga va uning hamma qismini oila a'zolari faoliyatiga xizmat qilishini kuchaytirishga qaratilgan. Shuning uchun ham nafaqat tokcha, taxmonlar, hatto mo'rilar devor orasiga joylashtirilgan. Kat, sandiqlar ham devordagi taxmon va tokchalarning pastki bo'linmalariga joylashtirilgan. Xona devorlari taxmon, tokchalarning qo'llanishi interyerga saranjomlik, qulaylik bilan birga turar xonaga xos muhit, badiiylik bag'ishlaydi. Markaziy Osiyoning iqlim sharoiti xonada supa ustiga to'shalgan bo'yra, gilam va ko'rpachalar bilan cheklanish imkonini bergan. Shuning uchun antik va ilk o'rta asrlarda xona atrofi bo'ylab joylashtirilgan supalar ham xonadon talabiga javob bergan. O'rta va so'nggi o'rta asrlarda shaharlarda o'rtacha kattalikdagi tarxda to'g'ri to'rtburchak tuzilishidagi xonalarining keng tarqalishi hamda bunday xonaning barcha qismidan unumli foydalanish istagi uning atrofi bo'ylab yo'nalgan supalardan voz kechishni va o'rniga supalarning yaxlit bo'lishini taqozo etgan. Shuning uchun ham supa xona sathini qariyb butunlayicha egallay boshlaydi. Faqat xonaning kirish qismida oyoq kiyimini yechish va dashshani qo'yish uchun supa sathidan pastroqda yo'lak qoldirilgan. Natijada xona yuzasi peshgoh va poygoh qismlarga ajratilgan.

Xonaning 3—4 tomonini devor atrofi bo'ylab supa bilan aylantirish odati hozirgi kungacha Tog'li Badaxshon, Darvoz va Qorategin tog' turar-joy me'morchiligida saqlanib qogan. Xonaning markaziy qismida to'rtburchak ko'rinishida «Г» va «Т» shaklida qoldirilgan. Nurota tog' me'morchiligida XX asr boshlarida qurilgan turar joylarda ham xonaning bir yoki ikki devori bo'ylab supa joylashtirilgan kompozitsiya uchraydi. Mazkur supalar, asosan, ko'rpa-to'shak taxlash, uy jihozlarini qo'yishga mo'ljallangan.

Xona sathining supa shaklida ko'tarilishi uning yuzasiga poygoh, dam olish, xo'jalik — mo'ri joylashgan qismini ajratish imkonini bergan.

Xona kompozitsiyasida tantanavorlik bag'ishlangan hamda xonada qulaylik yaratgan.

Ustunlar. Ustun xona interyerida konstruktiv vazifani bajargan. U kaltaroq to'sinlar bilan maydoni keng xona tomini yopish imkonini bergan. Ustun xona tomini ikki, to'rt va undan ortiq qismga bo'lgan xarilarning kesishgan joylarida o'rnatilgan. Ustunlar xonaning hamma tomonidan ko'rinarli bo'lganligi sababli unga bezak berishga harakat qilingan. Ustun uchun qadimdan yog'och ishlatilgan. Yog'och ustunni namdan saqlash uchun toshdan ishlangan poykursiga o'rnatilgan.

Ustunlar ikki turga bo'linadi. Ulardan biri yog'ochdan va ikkinchisi tosh va g'ishtdan ishlangan. Ustunning ikki turga bo'linishi, asosan, tom konstruksiyasidan kelib chiqqan. O'rta asrda g'ishtdan ishlangan ustunlar keng qo'llanilgan. Ustun tanasida juft-juft g'ishtlar oralig'ida, shaxmat taxtasi katagi yo'nalishida, ganchdan, yurakka monand gul naqshi joylashtirilgan. Ustun qirqimini ko'zdan kechirganimizda doira bo'ylab terilgan g'ishtlar oralig'ida uchburchak shaklidagi bo'shliqlarning yuzaga kelganining guvohi bo'lamiz. Ana shu yoriqlarni ganchli naqsh bilan to'ldirish, bo'shliqlarni berkitish va ustun tanasini bezash imkonini bergan. Natijada oddiy tarxda doira tuzilishidagi ustun, g'ishtlarning juft-juft qalanishi va oralaridagi bantikka o'xshash naqshli yuzachalar hisobiga o'ziga xos boy bezak va kompozitsiyaga ega bo'lgan.



157-rasm. Bolahovuz masjidi. Ayvon ustuni (B. Telegin fotosurati. Tasvirni X. Po'latov mazkur kitob uchun taqdim etgan).

Qadimiy yog'och ustunlar tuzilishini Afrosiyobdan topilgan o'choqlardagi naqshlardan bilib olsak bo'ladi. Ularning aksariyati poykursi, ko'zagi, tana va kalla kabi qismlardan tashkil topgan. Shunday IX—XII asrlarga oid ustunlar Afrosiyob, Xiva, Farg'ona va Yuqori Zarafshonda saqlanib qolgan. Ularning poykursi, ko'zagi va kalla qismlari geometrik, o'simliksimon islmiy murakkab naqshlar bilan o'ymakorlik qilingan.


XIV—XV asrlarda ustun tanasi bo'ylab o'rama, o'yma naqshlar ishlangan. Markaziy Osiyo me'morchilik maktablarida ustunlarning qismlari katta-kichikligi, ko'rinishi, ko'zagi qismining nokka, mis qozonga, ko'zaga

o'xshashligi va naqshlarning murakkabligi, oddiyligi yoki yaxlitligi bilan farq qilgan.

Jumladan, Farg'ona vodiysida, Buxoro va Samarqandda ustunning kalla qismi murakkab tuzilishdagi yig'ma sharafalar bilan bezatilgan (157-rasm). Markaziy Osiyoning tog' me'morchiligida poykursi, ko'zagi, kalla qismlari oddiy geometrik shakllarga o'xshab ishlangan ustunlar ham uchraydi. Ularda kalla qismi yuqoriga kengaygan jom va ustiga o'rnatilgan kub yokki to'g'ri to'rtburchak va bir-biriga birlashtirilgan bir nechta qator romb, piramida shaklida ishlangan. Bunday ustun qismlari katta yaxlit o'yinchoqlar va har xil kenglikdagi halqonlar bilan bezatilgan. Umuman, ustun o'zining asosiy funksiyasidan tashqari qismlarining mutanosibligi va o'yma naqshlarining serjililigi bilan xona interyeriga monumentallik bag'ishlagan.


Taxmonlar va tokchalar. Turar-joylarda jihozlarni saqlash uchun taxmon, tokchalar o'rnatish odati qadimdan bo'lgan. Markaziy Osiyoda tokcha va taxmon bo'linmalari juda qadimdan qo'llanilgan. Tokchalarda ko'zacha, jom, kosa va boshqa chiroyli mis, sopol buyumlari qo'yilgan. Mazkur dalillar qadim davrlarda xalq turar-joy me'morchiligida mehmonxona, xona bezagiga katta e'tibor berganliklaridan dalolat beradi.

Xona devorida tokchabandli bo'linmalar qo'yish bizgacha an'ana sifatida yetib kelgan. Tokchabandli xonalarni Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qarshi, Shahrisabz, Namangan, Farg'ona va hatto Zarafshon daryosi yuqori oqim turar-joy me'morchiligida ko'ramiz. Shaharlarda turar-joylar, asosan, sinch devordan bo'lgan. Sinch devor chuqur tokchalar o'rnatish imkonini bergan. Tokchalar har xil kattalikda bo'lgan. Shuningdek, deraza va eshiklar oralig'idagi bo'linmalar tokchaband qilingan. Taxmon va tokchalarning go'zal va shinam bo'lishiga alohida e'tibor berilgan. Buning uchun katta tokchalar yuqori qismini ravoq shaklida rang-barang murakkab sharafalar bilan tugatishgan.




158-rasm. Samarqand. Turar-joy mehmonxonasida tokchaband devorning markaziy qismi (muallif chizmasi).

Tokchalar orasidagi yuzani ham ravoq shaklidagi naqsh bilan chegaralab, ichiga qiyg'os ochilgan rang-barang gullarni chizishgan. Ravoqchalar atrofiga mayda nafis naqshlar o'yishgan va rangli o'simliksimon naqshlar chizilgan. Ular xona saranjomligini hamda



159-rasm. Mahmud Sodiq uyida devor yuzasi besh bo'linmaga bo'linib, unda 77 ta har xil kattalikdagi tokcha mavjud.

go'zalligini ta'minlagan (158-rasm). Taxmon tokchalarining joylanishi har yerda har xil bo'lgan. Namanganda bir tomon devori yuzasi butunlayicha tokchaband qilingan xonani uchratish mumkin. Jumladan, Muhammad



160-rasm. Farg'ona. Vodil. XIX asrda qurilgan turar-joy xonadonidagi tokchaband devor (V. L. Voronina chizmasi).

Sodiq uyida devor yuzasi besh bo'linmaga bo'linib, unda 77 ta har xil kattalikdagi tokcha mavjud (159-rasm). Farg'ona vodiysi turar joy me'morchiligi interyerida taxtadan yasalgan kabi to'g'ri to'rtburchak, ko'p burchak tuzilishidagi tokchalardan tashkil topgan devorlar

ham bo'lgan (160-rasm).


Samarqand, Buxoroda xona to'ri devori uch bo'linmaga bo'lingan. Ulardan o'rtadagisi ko'rpa-to'shak qo'shimcha mo'ljallangan taxmonni tashkil qiladi. Ikki yonidagi bo'linmalar esa tokchaband qilingan. Toshkentda ko'rpa-to'shak taxlaydigan 1 ta yoki 2 ta bo'lishi mumkin. Bitta bo'lgan taqdirda u o'rtadagi bo'linmani egallaydi. Ikki yonidagi

bo'linmalarda 2 ta yoki 4 ta katta tokchalar joylashtirilgan. Toshkentda xona yon devorlarida bitta yoki ikkita bo'linma mayda tokchaband qilingan, qolganlari katta-katta tokchalarni tashkil qilgan. Tokchalar ichiga siyoh va pushti rangda charos bo'lib ochilgan guldasta rasmi tasvirlangan. Taxmonlar usti ravoq shaklida tugatilgan. Ravoq qismi ravoqli kosachalardan tashkil topgan murakkab shara-falar bilan bezatilgan.

Shuni aytish kerakki, taxmon, tokchaband devorlar har bir shaharda ommaviy ish-lashga mo'ljallangan. Ularda katta tokchalar pastda, kichiklari yuqorida o'rnatilgan.

Tokchalarning jimjimador ravoq taxtachalari qolipda ishlangan. Usta, devor bo'linmalari, balandligi, kengligiga qarab kompozitsiya yaratgan. Tokchaband devorning asosiy vazifasi xona sathini yaxlitligicha saqlab qolishga, ya'ni xona saranjomligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga tokchaband devor xona muhitiga o'ziga xos badiiylik, go'zallik kiritgan. Katta va kichik tokchalarning «Sarbuxori» naqshiga monand shaklda qirqilgan jimjimador qirralari ularga nafislik, o'simliklar dunyosiga xos kompozitsiya bag'ishlaydi.

Tokchalar ichki devorining qizil, ko'k, yashil ranglarga bo'yalishi ham tokchaband devor kompozitsiyasini boyitish va qo'yilgan buyumlarning tokchada yaxshi ko'rinishi ta'minlangan (161-rasm). Shuningdek, mayda tokchalarning ichki devorlariga ishlangan yorug'



161-rasm. O'zbekiston xalq turar-joy me'morchiligida xona devorlarida taxmon va tokchalarning joylashtirish turlari chizmasi.


ranglar ularning chuqurligini aniq belgilaydi. Xususan, xona tabadonlaridan taralayotgan yorug'lik nuridan tokchalarning ichki devoriga tushgan soyalar ularning jozibadorligini, rang-barangligini kuchaytiradi. Xonadagilarga yaxshi kayfiyat va zavq bag'ishlaydi.

Tom va shift bezaklari. Shift, imoratning asosiy konstruktiv qismlaridan bo'lib, xonadonda boshpanali muhit yaratadi. Shuning uchun xom shiftga serjilo, serzavk bezak berilgan. Shift xona muhitining kompozitsiya va konstruktiv jihatidan tugatilishiga asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Markaziy Osiyo me'morchiligida qadimdan to'sinli shift qo'llanilgan. To'sinli shift kaltaroq yog'och-to'sinlar bilan ustunlar yordamida katta xona yuzasini qismlarga bo'lib yopish imkonini beradi.


Markaziy Osiyoda V — VI asrlardan boshlab xona tomini gumbaz bilan yopish uslubi yuzaga keladi. Gumbaz IX asrdan boshlab, asosan, diniy va ijtimoiy hayotga xos imoratlarda keng qo'llaniladi. IX — X asrlarda to'rtburchak hajmi bilan gumbaz oralig'ida sakkiz burchakli

halqa yuzaga keladi. XIV asrda gumbaz osti 128916 burchakli halqani tashkil qiladi (162, 163-rasmlar).


Unda gumbazlar parallel ravoqlar va ularga nisbatan perpendikulyar ravishda yo'naltirilgan yarim ravoqlarga o'rnatilgan. XVI asrga kelib gumbazning o'zaro kesishgan ravoqlar ustiga o'rnatish uslubi vujudga keladi. Mazkur konstruksiyadagi gumbaz katta maydonli xonalarni yopishda ishlatilgan. Gumbaz konstruksiyalari xonaga go'zallik bag'ishlagan. Jumladan, gumbaz




162-rasm. Turkmaniston, Anov masjidi. Qalqonsimon ravoqlarqa o'rnatilgan gumbazlar turi.



163-rasm. Turkmaniston, Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasi. Ravoqlar bilan yopilgan uzunchoq tuzilishdagi xona.



165-rasm. Yuqori Zarafshon.
Gardoni Hisor saroyi shiftining
bir bo'lagi.



166-rasm. Samarqand, Afrosiyob.
Qusam Ibn Abbos masjidi sharafa qismi.


ostidagi ko'pburchak gardish ravoqlari, bir necha qator qalqonsimon yuzalar ko'rinishini olgan. Yuzalar yorug'likning tushishiga qarab, o'ziga xos go'zal ko'rinish ato etgan (164-rasm). Interyerda gumbazlar yuzasi rang-barang geometrik va o'sim-

liksimon naqshlar bilan bezatilgan.

O'zbekiston xalq me'morchiligida shift yuzasida to'sinlar yo'nalishi bilan ko'proq markazga yaqinlashgan sayin bir-biridan ko'tarilib borgan turli kompozitsiyalar ishlangan. Shift to'sinlari oralig'ida vassalar bilan to'g'ri to'rtburchak yuzachalar o'rin almashtirilgan holda kelishi ham mumkin. Bunday shiftlar Samarqand va Qashqadaryoda ko'p uchraydi. Farg'ona vodiysi shaharlarida, Toshkentda to'sinlar tekis taxtachalar bilan qoplangan va ingichka yog'ochlar toqichalar bilan shift markazidagi bo'linmada ko'p burchakli turunj, davragul naqshlari ham ishlangan.


O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda xona devorlarining yuqori qismi, shift osti bo'ylab friz bezak qatori bilan bezatilgan (165, 166-rasm).

Bu tadbir XIX asrda qurilgan turar-joy interyerida ham nazarda tutilgan (167-rasm).



167-rasm. Kattaqo'rg'on. Turar-joy. Mehmonxona
shifti ostidan o'tkazilgan sharafa bo'lagi
(muallif va Sh. Shoqosimov ishlagan).

Shaharlarda va Farg'ona vodiysi tog' qishloqlarida va qisman Yuqori Zarafshon me'morchiligida shiftning to'sin va vassalari, umuman, hamma qismi serjilo rangli bo'yoqlarda bo'yalgan. Samarqandda qabza shiftlarining vassalariga, jigarrang, ko'k ranglarda gul va ikkita madoxil naqshi ishlangan (168-rasm).



168-rasm. Samarqand. Turar-joy shiftining bir bo'lagi (muallif va Q. Qobulov chizgan).

Toshkentda yashil va ko'k rangli vassalar zaminida och ko'k, och yashil ranglarda madoxil naqshi ishlangan. Qashqadaryoda vassalar qizil rangda yoki juft-juft holda qizil, ko'k, sariq ranglarda bo'lgan. Vassa o'rnida qo'llanilgan kichik-kichik kvadrat taxtachalar yuzasiga har xil barglar naqshi ishlangan. Umuman, O'rta Osiyoda qadimdan xonada bahorni eslatuvchi muhitni saqlashga harakat qilingan. Shuning uchun ham shiftga, devorlarga har xil gul va o'simliksimon naqshlar ishlangan. Shift bezagi serjilo rangli kompozitsiyalari bilan kishiga estetik zavq beradi. Yozda xonaning salqin, qishida esa issiq tuyulishiga kishini ishontirish hissini uyg'otadi. To'sinlar yordamida yuzaga qilgan geometrik: uchburchak, to'rtburchak, oltiburchak, ko'p qirrali yulduzsimon tuzilishdagi yuzalar rang-barang o'simliksimon yuzalar bilan bog'lanib, yaxlit kompozitsiyani tashkil qiladi. Shift osti va devorlarining yuqori qismi bo'ylab o'tkazilgan sharafalar qatori, xonaning shu ikki qismini nafaqat konstruksiya, balki kompozitsiya jihatidan ham bog'laydi. Shuningdek, shiftning xona muhitida baland va bahavo bo'lishiga yordam beradi. Shift o'zining rang-barang bezaklari bilan xona muhitining maromiga yetganligini, ya'ni tugatilgan kompozitsiyaga erishilganligini ta'minlaydi. Xona devorlarida rang-barang naqshlar bo'lmagan taqdirda ham bunday shiftlar interyer muhitini badiiylashtira oladi va kompozitsiya jihatidan tugatilganligini ta'minlaydi.

1. Аалто Алвар. *Архитектура и гуманизм*.— М.: Прогресс, 1978.
2. Алексеев В. И., Вержбицкий В. *Интерьеры обеденного зала в предприятиях общественного питания*. В кн.: «Интерьеры общественных зданий». Госстройиздат, 1963.
3. Архангельская З. *Интерьеры предприятий хозяйственно-бытового обслуживания*. В кн.: «Интерьеры общественных зданий». Госстройиздат, 1963. 36.
4. Ананьев Б. Г., Рыбалко Е. Ф. *Особенности восприятия пространства у детей*.
5. Анохин П. К. *Новое о работе мозга*. «Наука и человечество». «Знание», 1965.
6. Аронин Дж. Э. *Климат и архитектура*. М., 1959.
7. Богданов Н. и колл. авторов. *Предприятия розничной торговли*. Госстройиздат, 1962.
8. Богданов Н. *Интерьеры магазинов и их оборудование*. Стройиздат, 1967.
9. Богданов Н. *Интерьеры торговых залов продовольственных и промтоварных магазинов*. В кн.: «Интерьеры общественных зданий». Госстройиздат, 1963.
10. Бурский В. *Светильники и освещение современных общественных зданий*. В сб.: «Искусство и быт». Выпуск II. М., 1964.
11. Бухман Г., Воронец Л. *Интерьер и проектирование освещения*. Киев, 1965.
12. Блохин П., Этенко В. *Квартиры с гибкой планировкой*. Сб.: «Советская архитектура», 16. 1964.
13. Бояр О., Блашкевич Р. *Квартира и ее убранство*. Госстройиздат, М., 1962.
14. *Вопросы синтеза искусств*. Сборник, М., 1936
15. Г и б с о н Д. *Экологический подход к зрительно-восприятию*. — М.: Прогресс, 1988.
16. Гуревич Г., Лозинский Б. *Типовое оборудование для предприятий обслуживания*. «Строительство и архитектура Ленинграда», 1964, № 9.
17. Гусев Н. М. *Естественное освещение зданий*. М., 1961.
18. Делле В. *Секционно-комбинированная мебель*. М., 1960.
19. Дерибери Морис. *Цвет в деятельности человека*. М., 1964.
20. Данилова И. Е. *Итальянская монументальная живопись*. М., 1970.
21. Делле В. *Секционно-комбинированная мебель*. М., 1960.
22. Делле В., Сомов Ю. *Современная мебель*. М., 1964.
23. Дерибери М. *Цвет в деятельности человека*. Стройиздат, 1964.
24. Иконников А., Степанов Г. *Основы архитектурной композиции*. «Искусство», М., 1971.
25. Иконников А. В., Степанов Г. П. *Основы архитектурной композиции*. — М.: Стройиздат, 1971.
26. Ильин М. А. *Веснины*.— М.: АН СССР, 1960.
27. Запорожец А. В., Зинченко В. П. *Восприятие*.
28. Калугин Е. *Сборно-разборное оборудование*. «Советская торговля», 1961, № 9.
29. Кильпе Т., Гил и Лов И. *Интерьер и мебель ресторана, кафе, столовой*. «Экономика», 1968.
30. Корбюзье. *Архитектура XX века*. «Прогресс», 1970.
31. Кринский В. Ф., Колбин В. С., Ламцов И. В., Луппов Н. *Интерьеры современных общественных зданий*. В сб.: «Искусство и быт». Вып. II, М., 1964.
32. Митлева А. *Встроенная мебель*. Гослесбумиздат, 1962.
33. Мачульский Г. К. *Мисс Ван Дер Роз*. М., 1969.
34. Нейферт Э. *Строительное проектирование*. Стройиздат, 1965.

35. Нерви П. А. *Строить правильно*. М., 1956.
36. Одуева Н. К. *О переходе от ощущения к мысли*. Изд. Академии наук СССР. М., 1963. О возвышенном. «Наука», М. — Л., 1966.
37. Орбели Л. А. Том III. «Наука», М. — Л., 1964
38. Рыбицкий В. В. *Встроенное оборудование в квартирах со свободной планировкой* (Пособие по проектированию). Стройиздат, 1968.
39. Росс У., Эшби. *Конструкция мозга*. «Мир».
40. Соболев И. Н., Урбах А. И. *Архитектура общественных зданий и сооружений*. Стройиздат, М., 1971.
41. Саймоне Д. Ж. *Ландшафт и архитектура*.
42. Столпер Г. *Встроенное оборудование в жилых и общественных зданиях*. М., 1965. Действие. М., 1967.
43. Сеченов И. *Избранные философские и психологические произведения*. Госполитиздат, 1947.
44. Симонов П. *Что такое эмоция?* «Наука», М., 1966.
45. Стригалева А. А. *Цвет в современной массовой архитектуре*. Сб.: «Архитектура жилого комплекса». Стройиздат, М., 1969.
46. Туркус М. А., Филасов Н. В. *Введение в архитектурное проектирование*. Госстройиздат, 1962.
47. *Устройство и оборудование торговых предприятий*. «Госторгиздат», 1956.
48. Устинов А. Цвет в архитектуре промышленных зданий.
49. Юдин С. *Размышления хирурга*. М., 1969.
50. (ERCO. Program 1985/1987. Prospekt - Nr. 26285038., National. Interior Lighting, Working catalogue. 1989).

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-§. Qisqacha tarixiy ma'lumotlar	6
INTERYERNI TASHKIL ETISHNING ASOSLARI	
1-qism. Interierli muhitga qo'yiladigan talablar	33
2-qism. Interierning rangli alohida jihatlarl	44
3-qism. Interierning anjomli muhiti	56
XONADONLARNING INTERIERI VA JIHOZLARI	
1-qism. Interierni tashkil etishning funksional-fazoviy asoslari	59
2-qism. Xonadon jihozlari	61
3-qism. Xonadon xonalarning interierlarini shakllantirish	66
JAMOAT BINOLARI. ASOSIY XONALARNING INTERIERI VA JIHOZLARI	
1-qism. Fazoviy tarkibni shakllantirish	94
2-qism. Jamoat binolarining interierida qo'llaniladigan tabiiy va sun'iy materiallar	99
3-qism. Jamoat binolarining interierlarida rang va yorug'lik yechimining jihatlarl	101
4-qism. Jamoat binolarining interierli muhitida yorug'likning roli	103
JAMOAT BINOLARI AYRIM TURLARI INTERIERINING YECHIMI. HAJMIY-FAZOVIIY KOMPOZITSIIYANING USULLARI	
1-qism. Kinoteatrlar interieri	107
2-qism. Umumta'lim maktablaridagi interierli muhit	113
3-qism. Muzeylar va ko'rgazma zallarining interierli fazoviy bo'shliqlari yechimlarl	123
4-qism. Savdo muassasalarining interierlarl	128
ZAMONAVIIY TURAR-JOY VA JAMOAT BINOLARI INTERIERLARINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDAGI OMILLAR KOMPLEKSI	
1-qism. Interierning funksiyasi va kompozitsiyasi	135
2-qism. Interierda dekorativ-amaliy san'at asarlarining qo'llanilishi	136
3-qism. Tabiatdagi tirik shakllar	138
4-qism. Kichik arxitekturaviy shakllar. Mebel	139
5-qism. Tasviriy san'atlarning sintezi	140
O'ZBEKISTON XALQ TURAR-JOYLARIDA INTERIERLI MUHITNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHALTARI	
1-qism. O'zbekistonda zamonaviy turar-joy va jamoat binolarida xalq turar-joylarl interierini tashkil etishda to'plangan tajribalardan foydalanish	144
2-qism. O'zbekiston turar-joylarining tipologiyasi	145
3-qism. Xalq turar-joylarining bezaklarl va funksional elementlarl	148
Foydalanilgan adabiyotlar	157

**HIDOYATOV TIMUR ABROROVICH,
KADIROVA SURAYYO ADILOVNA,
ABDURAHMONOV YO'LCHI ISMOILOVICH**

ZAMONAVIY JIHOZLASH VA INTERYER

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi tomonidan 5580100 — «Arxitektura
yo'nalishi» talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan

Muharrir: *M. Tursunova*
Musahhih: *N. O'rolova*
Dizayner: *F. Rahimov*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №110, 15.07.2008.
Bosishga ruxsat etildi 27.07.2012-y. «Tayms» garniturasida.
Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog'i 11. Nashriyot bosma tabog'i 10,5.
Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 22.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

ISBN 978-9943-391-45-1



9 789943 391451